So'nggi yillarda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, ilgari "yopiq" bo'lgan zo'ravonlik mavzusini keng yoritish imkonini berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son, 2019-yil 29-maydagi "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4342-son, 2020-yil 29-maydagi "Bola huquqlarini

himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4736-son qarorlari, 2021-yil 9-avgustdagi "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-son Farmonining qabul qilingani fikrimizni tasdiqlaydi.

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "jamiyatda voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarning oldini olish muhimligi belgilab berilgan"i mazkur sohani tadqiq etish zarurati mavjudligidan dalolat bermoqda.

Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni kriminologik nuqtayi nazardan tahlil qilganda jinoyat sodir etishning sharoit va sabablari, jinoyatchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari va jinoiy xulqning oqibatlari o'rganiladi.

Shunga muvofiq, voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar kriminologik jihatdan o'rganilganda, bunday jinoiy faoliyatni davom ettirish yoki yangi jinoyat sodir etilishi mumkinligining oldini olish uchun qanday harakatlar qilish kerakligi va boshqa shaxslar tomonidan shunday qilmish sodir etishlarining oldini olish ko'zlanadi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan jinoyat sodir qilgan jinoyatchi shaxsiga qonun yo'li bilan bunday jinoyatning oldini olishning qanday choralari ko'rilishi mumkinligini ham belgilaydi.

Material va metodlar

Tadqiqot davomida jinsiy daxlsizlikka qarshi qaratilgan jinoyatlarda voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning viktimologik tavsifi o'rganildi.

Mazkur tahlil jarayonida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, amaliyotni yaxshilash yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi. Ushbu tadqiqot ishida tahlil qilish, funksional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, sotsiologik so'rovlar o'tkazish kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Voyaga yetmagan shaxslarning hayotiy tajribasi hamda huquqiy ongi yetarli emasligi bu turdagi jinoyatlar latentligi har doim yuqori darajada bo'lishiga bevosita ta'sir etib turadi. 2023-yilda huquqni muhofaza qiluvchi xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari ham ushbu holatni yana bir bor tasdiqladi. Unga ko'ra, voyaga yetmagan jabrlanuvchilar ularga nisbatan sodir etilgan jinoyat bo'yicha: 39,5 foiz holatda hech kimga xabar bermagan, 9 foiz holatda faqat yaqin qarindoshlariga xabar bergan, 20,5 foiz holatda "sharmanda bo'lish"ning oldini olish uchun sir saqlagan; shuningdek, 31 foiz holatda jabrlanuvchilar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchsizlik bildirgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish lozimki, voyaga yetmaganlarning, ya'ni 18 yoshga to'lmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligini har qanday tajovuzlardan huquqiy himoya qilish har bir davlat hududida nafaqat hozirgi davr uchun, balki insoniyat tarixining barcha davrlari uchun muammoli tarzda xos [2, 3, 4] bo'lib, bu o'ziga xoslik uni mustaqil tadqiqot predmeti sifatida bevosita tahlilga tortishni taqozo etmoqda.

Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarni tahlil qilishda jabrlanuvchilar shaxsini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, 2021-yilda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilib, tergov qilingan jami jinoyat ishlari soni 1831 tani tashkil qilgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2022-yilga kelib 2194 taga yetgan.

Bolalarning jinsiy erkinligiga qarshi 2021-yilda 334 ta va 2022-yilda 395 ta jinoyat ishi tergov qilingan bo'lib, ushbu turdagi jinoyatlar voyaga yetmaganlarga nisbatan jami sodir etilgan jinoyatlarning o'rtacha 18 foizini tashkil qilmoqda [5].

2023-yilning to'qqiz oyi davomida O'zbekistonda voyaga yetmaganlarga nisbatan 1 240 ta zo'ravonlik holatlari qayd etilgan, ularning 417 tasi jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan.

O'tkazilgan kuzatishlarga qaraganda, 28,7 foiz holatda jabrlanuvchilarning viktin xulqi jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lgan. Nomusga tegish jinoyati bo'yicha 29 foiz holatda voyaga yetmagan jabrlanuvchilar o'zlarining yengiltak xulq-atvori bilan tavsiflangan, 15 foiz holatda esa ularga jamoatchilik tomonidan salbiy tavsif berilgan. Shuningdek, jinsiy jinoyatlarda bolalarning viktimligi ham yuqori hisoblanib (masalan, birgina GFRning o'zida har yili bolalarga qarshi qaratilgan 8 000 ga yaqin jinsiy jinoyatlar ro'yxatga olinadi [6]), bunday viktimlik aksariyat holatlarda ichki oilaviy mojarolar va bolalarning nazoratsiz holda qoldirilishidan kelib chiqadi [7].

Shuning uchun ham voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning umumiy va kriminologik tavsifi masalasiga kelganda dastlab bevosita voyaga yetmaganning umumiy tavsifini bilish talab etiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrda qabul qilingan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son Qonunida (2025-yil 15-mayda kuchga kiradi) nazarda tutilgan. Jumladan, qonunning 3-moddasida "Bolaning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiy daxlsizligiga, sha'niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo'lgan, shu jumladan, telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo'ravonlik deb e'tirof etiladi", – deb keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 21-fevraldagi "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekistonning beshinchi davriy ma'ruzasi yuzasidan BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi tavsiyalarini amaliyotga tatbiq etish to'g'risida"gi 4068-IV-son qo'shma qarori talablarida ko'rsatilgan BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining beshinchi davriy ma'ruzasini ko'rib chiqish yakunlari yuzasidan BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi tavsiyalarini amalga oshirish bo'yicha 2024–2027-yillarga mo'ljallangan milliy harakatlar rejasining 4-bandida ham bolalarga nisbatan zo'ravonlik tarqalishi, sabablari, tabiati va shakllarini baholash

uchun tadqiqot o'tkazish, masalan, jismoniy jazo, oilaviy zo'ravonlik, qo'rqitish, jinsiy ekspluatatsiya va suiiste'mol qilish, shu jumladan, onlayn tarzda olingan natijalarga asoslanib, bolalarga, ayniqsa, qizlarga, nogironligi bo'lgan bolalarga, muqobil parvarishdagi bolalarga, migrant ota-onadan qolgan bolalarga va odil sudlov tizimidagi bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllari oldi olinishi hamda ularga qarshi kurashish bo'yicha kompleks strategiyani bolalar ishtirokida shakllantirish va amalga oshirish masalalari keltirib o'tilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayrim olimlar jinoyat qurbonlarini tiplarga ajratish masalasini hal qilishda jabrlanuvchining nafaqat jinoiy-protsessual maqomi, balki ularning barcha shaxsiy alomatlarini e'tiborga olish zarurligini ta'kidlaydilar. Jumladan, T.V. Varchuk jabrlanuvchilarning quyidagi tasnifini taklif etadi:

Potensial qurbon – o'zining shaxsiy sifatlari, maqomi, pozitsiyasi, xulq-atvori kabi xislatlari tufayli jinoyatdan oldin "qurbon" rolini egallashi mumkin bo'lgan shaxs.

Tasodifiy qurbon – bu ham potensial qurbon tipiga mansub bo'lsa-da, lekin u tasodifiy vaziyatlar yoki jinoyatchining tanlovi sababli qurbonga aylanadi. Ba'zan tasodif kim jinoyat qurboniga aylanishini belgilaydi.

Latent qurbon – jinoyatdan real va amalda jabr ko'rgan shaxs bo'lib, muayyan sabablar tufayli mazkur holat aniqlanmay yoki rasmiylashtirilmay qolgan qurbon tipi [8].

A. Oilaviy zo'ravon tipida jabrlanuvchilarning viktin xulq-atvori o'z oila a'zolariga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik qilish ko'rinishida amalga oshiriladi. Mazkur tipga kiruvchi jabrlanuvchilar asosan aroqxo'r yoki giyohvandlar bo'lib, oilasining moddiy jihatdan o'zlariga qaramligidan foydalanadilar. Bunday jabrlanuvchilarning aksar qismini o'rta va katta yoshdagi erkaklar, ruhiy kasal (yoki asab tizimi shikastlangan) shaxslar, ba'zan muqaddam sudlangan shaxslar tashkil qiladi.

Umumiy yoki tanlov asosida tajovuz qiluvchi shaxslar, ularning viktinlik moyilligi bevosita muayyan shaxslarga nisbatan amalga oshirilgan zo'ravonlik yoxud boshqa ig'vogarlik harakatlari natijasida yuz beradi.

B. Jabrlanuvchining faol tipi: jabrlanuvchilar tipini tajovuzkor va janjalkash xulq-atvoriga ega bo'lmagan qurbonlar tashkil qiladi. Shunga qaramay, ularning o'zlariga jinoyat natijasida zarar yetadi. Ular ko'pincha o'zlari zarar yetkazish haqida iltimos qiladilar. Ushbu tipning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib hamda viktin xulq-atvoriga bo'lgan munosabatni e'tiborga olib, ularning quyidagi tiplarini ko'rsatish mumkin:

- ongli ravishda dalolat qiluvchi (jinoiy abort);
- ehtiyotsiz dalolatchi (transport vositasini mast holatda bo'lgan shaxsga topshirish);
- ongli ravishda o'ziga zarar yetkazuvchi (harbiy xizmat o'tashdan qutulish uchun o'ziga shikast yetkazish);
- ehtiyotsizlik bilan o'ziga shikast yetkazuvchi (jinoiy maqsadni amalga oshirish chog'ida portlash yoki o'q-otar quoldan ehtiyotsizlik bilan foydalanganlik natijasida shikastlanish).

D. Jabrlanuvchining tashabbuskor tipi: jabrlanuvchi ijobiy xulq-atvoriga ega, shunga qaramay, jinoyat qurboniga aylanadi (masalan, ichki ishlar organlari xodimi).

Tashabbuskor jabrlanuvchilar umumiy tashabbuskor (ularga hamma vaziyatda ham ijobiy tashabbuskor xulq-atvorda bo'lish xos) va tanlovchi tashabbuskor (ijobiy tashabbuskor xulq-atvor faqat ayrim vaziyatlarga xos) turlariga bo'linadi. Ular o'zlarining ijtimoiy rollariga qarab quyidagi tiplarga bo'linadilar:

- lavozimiga binoan tashabbuskor;
- jamoatchi tashabbuskorlar (deputatlar, inson huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat tashkilotlari xodimlari);
- sof tashabbuskorlar (shaxsiy sifatlarga ko'ra, masalan, ijtimoiy guruhda liderlikka intiluvchi tashabbuskor shaxslar).

E. Jabrlanuvchilarning nafaol tipi: jabrlanuvchilar turli sabablarga ko'ra, masalan, yoshi, jismoniy kuchsizligi va shu kabi ijtimoiy sifatlardan tufayli jinoyatchiga qarshilik ko'rsatmaydigan shaxslardir. Shuningdek, nafaol jabrlanuvchi tipiga boshqa holatlar sababli, jumladan, jinoyatning oshkor bo'lmashligini istaydigan shaxslar ham kiritilishi mumkin.

Nafaol jabrlanuvchilar tipiga yana quyidagi tiplarni kiritish mumkin:

- obyektiv qarshilik ko'rsatmaydiganlar;
- obyektiv qarshilik ko'rsatuvchilar.

F. Jabrlanuvchilarning notanqidiy tipi: jabrlanuvchilar ko'pincha ehtiyotsizlikka yo'l qo'yadilar va hayotiy vaziyatlarni to'g'ri baholay olmasliklarini namoyish etadilar. Notanqidiy xulq-atvor kriminal ahamiyatga ega bo'lgan salbiy alomatlar, ya'ni ochko'zlik, g'arazgo'ylik hamda ijobiy, ya'ni saxiylik, ezgulik, ochiqlik kabi alomatlar orqali namoyon bo'ladi.

O'z navbatida, notanqidiy jabrlanuvchilar umumiy notanqidiy (doimo) va tanlovchi notanqidiy jabrlanuvchilarga bo'linadi.

Mazkur tipning quyidagi variantlari mavjud:

- zaif aql-idrokka va past darajadagi ma'lumotga ega bo'lganlar;
- voyaga yetmaganlar;
- qariyalar;
- kasalmandlar, shuningdek ruhiy kasallikka chalinganlar;
- ochiq notanqidiy sifatga ega bo'lgan shaxslar.

G. Jabrlanuvchilarning neytral tipiga asosan xulq-atvorida biron-bir salbiy sifatlardan mavjud bo'lmagan shaxslar kiradi. Ta'kidlash joizki, neytral xulq-atvor aslida neytral emas. Chunki bunday holat jinoyatchiga jinoiy maqsadni amalga oshirish uchun xalaqit qilmaydi. Biroq bunday xulq-atvoriga ega jabrlanuvchilar jinoyatchi uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratmaydi hamda shaxsning o'zining viktimlik moyilligi oshishiga sababchi bo'lmaydi.

Shubhasiz, yuqorida tahlil etilgan jabrlanuvchilarning umumiy xulq-atvor tiplari ana shu tiplarga taalluqli jabrlanuvchilarning turli jinoiy vaziyatlardagi tashqi fe'l-atvorlari ko'rinishini namoyon qiladi. Ulardan jabrlanuvchilarning ichki – ruhiy-motivatsiyaviy xulq-atvor mexanizmi holati haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish ham mumkin. Masalan, tajovuzkorlik o'z asosida ham jinsiy, ham g'arazgo'y motivlarni namoyon etishi mumkin. Nafaollik esa jabrlanuvchining o'zi amalga oshiradigan qarshilik "befoyda" ekanligi yoki qarshilik ko'rsatishga qodir emaslikni

ifoda etsa, notanqidiy tipda vaziyatni tushunmaslikning turli darajasi namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, demografik va ijtimoiy belgilar: jinsi, yoshi va mansab darajasiga asoslangan tasnif keng qo'llanadi. Amaliyotda potensial va real viktimlashuv bir-biriga doim ham mos kelavermaydi. M. Rustambayev va S. Niyozovanning fikricha, turli yoshdagi shaxslar yosh bilan bog'liq o'ziga xos ruhiy-jismoniy xususiyatga ega. Bundan kelib chiqadiki, voyaga yetmaganlar o'zlarining qiziquvchanliklari, ishonuvchanliklari, tez ta'sir ostiga tushishlari, jismoniy kuchsizliklari sababli yuqori viktimlikka egadir. Bunday sifatlar voyaga yetmaganlarning nafaqat qurbonga aylanishlari, balki jinoyat sodir etishlari uchun ham sabab bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, 12–14 yoshgacha davr shaxsning eng viktimlik yoshidir [9].

Voyaga yetmaganlar maktabgacha yoshdan bevosita kattalarning ko'rsatmalariga amal qiladi. Ulardagi shaxsiy faoliyat qoidalari, qarashlar va ishonch muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'smirlarda kattalarning so'zi va qarashlarini tanqidiy baholash jarayoni boshlanib, ularda tanholikka nisbatan ehtiyoj tug'iladi. Boshqa tomondan esa o'smirlar kattalarga o'xshashga intiladi [10]. Bu esa ijtimoiy ijobiy va salbiy holatlarga egadir: salbiy holat, xususan, kattalarning salbiy yurish-turishlarini o'zlarida takror qilish, hissiyotlarni yashirish yoki o'zlari jinoyat sodir qilishlarida ko'rinadi. Mazkur holat voyaga yetmaganlar o'rtasida kriminogen holatlar kuchayishiga olib keladi.

M.P. Yakobsonning fikricha, o'sib borayotgan maktab o'quvchisining ta'sirchanlik doirasi qandayligini bilish uning o'ziga yaqin turgan shaxslarni qanday qabul qilishi, ijtimoiy faoliyat qoidalari qandayligi va ijtimoiy o'zgarishlarni qanday baholashini aniqlashga imkon beradi [11]. Ya'ni mutaxassislar tomonidan olib borilgan kuzatishlar ma'lum darajada umumiy qonuniyatlarni aniqlash imkoniyatini beradi: qayerda voyaga yetmaganlarning bilim darajasi, madaniy saviyasi qoloq bo'lsa, shu yerda boshqa jinoyatlar qatorida jinsiy jinoyatlar sodir qilinishi uchun ko'proq sharoitlar yuzaga keladi.

Bundan tashqari, voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning umumiy tavsifi ular shaxsidagi quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga qamrab oladi [12]:

1. O'qishga qiziqishning yo'qolishi, o'quv jamoasidan, uning talab va faoliyatidan ajralish, javobgarlik hissi yo'qolishi: masalan, besh holatdan 4 tasida ushbu voyaga yetmagan boshqa tengdoshlaridan bilim olish borasida sezilarli orqada qolgan. Bunda bilim olishning ijtimoiy kuchsizlanishi darajasiga qarab o'smir bo'sh vaqtini betartib o'tkazishga ko'proq intila boshlaydi.

2. Ishga bo'lgan qiziqish yo'qolishi. Ish bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlarga befarqlik, javobgarlik hissi pasayishi.

3. Jamoat ishlarida ishtirok etmaslik. Dam olish va turmush sohasida salbiy yo'nalishga moyillik (masalan, spirtli ichimliklar ichish yoxud biron-bir jinoyat sodir etish va h.k.

Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarda jabrlanuvchining kriminologik xarakteristikasini tavsiflovchi omillarning eng ko'p

tarqalganlari sifatida voyaga yetmagan shaxsning tajovuzchi bilan birgalikda spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi, voyaga yetmaganning axloq normalariga zid xulqi, behayolarcha qilingan kiyimlar (mini yubkalar va boshqalar), suhbatlarni jinsiy mavzularga aylantirish, behayolarcha qilingan hazillar, anekdotlar va boshqalarni [13] ko'rsatish mumkin.

Voyaga yetmagan jabrlanuvchi shaxsining kriminogenligi uning ijtimoiy mohiyatidir. Shaxsda bunday kriminogenlik xususiyati tajovuzdan birmuncha oldinroq yuzaga kelgan bo'lishi ham mumkin. Ya'ni bu holat "agar kelajakda tajovuz bo'lgan taqdirda ham buni hech kimga aytmalik haqidagi fikrning mustahkamlanishi"da o'z ifodasini topadi.

Voyaga yetmaganning irodaviy doirasida uning uyatchanlik hissi hamda tajovuzchidan qo'rqqanligi kriminogen vaziyat saqlanib qolishida salmoqli o'rinni egallaydi, bu esa keyinchalik ham unga nisbatan bu turdagi tajovuzlarning bir necha bor takrorlanishiga imkon yaratib berishi mumkin.

Jinsiy daxlsizlik (yoki erkinlik)ka bo'lgan tajovuz jinsiy aloqa bilan bog'liq holda sodir etilganda voyaga yetmagan shaxs dahshatga tushishi, o'zini yo'qotib qo'yishi kabi holatlarni boshdan kechirishi mumkin. Aksar jabrlangan voyaga yetmaganlar keyinchalik yuz bergan holat yuzasidan berilgan savollarga uyalib javob bera olmaydilar.

Nomusiga tajovuz qilingan voyaga yetmagan qizlarda zo'rlanganidan keyin uzoq vaqtgacha qo'rquv, asabiylik, atrofdagilarga ishonmaslik, o'ziga hurmatsizlik, ruhiy buzilish va emotsional qiyinchiliklar [14], ba'zan joniga suiqasd qilish hollari yuz berishi mumkin. Ayrim voyaga yetmaganlar qo'rqqanidan yoki qonunni bilmaganidan tajovuz to'g'risida hech kimga xabar bermaydi. Yana bir jihati borki, bunda jabrlanuvchilarning aksariyat qismida aybdorlik hissi saqlanib qolaveradi va keyinchalik jinsiy hayot mobaynida muammolarni yuzaga keltiradi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Voyaga yetmagan jabrlanuvchi shaxsining viktimligini tavsiflovchi xususiyatlar qatoriga uning qo'rqqanligi, irodasizligidan tashqari o'z o'rtoqlari orasida obro'sini yo'qotishdan qo'rqish kabilar ham kiradi.

Shaxsning kriminogen xususiyatlari va xatti-harakatlari yuz bergan tajovuzni hech kimga sezdirmaslikka urinishi uning boshqalar oldida sharmanda bo'lish, obro'sizlanib qolish kabi oqibatlardan cho'chishida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, aybdor Sh. 2016-yil o'rtalaridan 2020-yil oxirlarigacha davomli tarzda o'gay qizi A.ning nomusiga tegib, jinsiy ehtiyojini zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirib kelgan. Qachonki xotini buni sezib qolib, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga xabar qilgandan keyin uning jinoyati fosh bo'lgan [15].

Shuningdek, bu borada jabrlanuvchining huquqiy madaniyati ham tahlilga muhtoj bo'lib, bu madaniyat uning huquqiy ongi, huquq va uni qo'llash amaliyotiga, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga, sodir etilgan jinoyatga, qonunga ishonmaslikda ifodalanadigan munosabatidan, o'zining shaxsiy ishonchi va odatlarining real huquqiy yo'nalishlari yig'indisidan iborat. Odatda jinsiy daxlsizligi (yoki erkinligi) tajovuzga uchragan voyaga yetmagan jabrlanuvchilar huquqiy ruhiyati sezilarli darajada o'zgargani bilan xarakterlidir. Bu shaxsning huquqiy ko'rsatmalarga befarqligi, unga shubha bilan qarashi kabilarda namoyon bo'ladi.

Demak, voyaga yetmagan shaxslar jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilishga qaratilgan jinoyatlar latentligiga sabab bo'luvchi holatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Jabrlanuvchida hayotiy tajriba yetarli emasligi va huquqiy ong pastligi.
2. Qo'rqqoqlik, sharmanda bo'lishga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, mahalladagi qo'ni-qo'shnilar "gap"idan qochib qutulish.
3. Voyaga yetmaganning kelajakdagi turmushi buzilib ketishidan qo'rqishi.
4. Tajovuzchi, uning yaqin qarindoshlari yoki o'rtoqlari tomonidan qasos olish tarzidagi qo'rqituvlar.
5. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchsizlik tufayli ularga vaqtida xabar bermaslik va h.k.

AQSh mutaxassislari ma'lumotiga ko'ra, bitta ro'yxatga olingan nomusga tajovuz qilinganlik holatiga 10 ta ro'yxatga olinmagani to'g'ri keladi. Aytish lozimki, AQShdagi ba'zi shtatlar qonuniga ko'ra, jabrlanuvchi axloqiga, xulq-atvoriga qarab jinoyat ishini tugatish ham mumkin. O'zbekistonda esa masala bunday hal etilmaydi. Voyaga yetmagan shaxslar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga tajovuz qiluvchi jinoyatlarning latentligi nafaqat AQShda, balki ayni vaqtda davlatimizda ham yuqori darajada (25 foiz) hisoblanadi.

O'rganilgan jinoyat ishi materiallari natijalariga ko'ra, voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning 62 foizi – sigareta chekkan, 34 foizi – chekkan va spirtli ichimlik iste'mol qilgan, 18 foizi – giyohvandlik vositalari iste'mol qilgan, 20 foizining badaniga tatuировка chizilgan bo'lgan.

V.S. Minskaya ma'lumotlariga ko'ra, ushbu turdagi jinoyatlarda 55 foiz holatda jabrlanuvchi mastlik holatida bo'lgan, 30 foiz holatda esa jabrlanuvchi ayblanuvchi bilan birga spirtli ichimlik iste'mol qilgan [16]. Spirtli ichimlik va giyohvand moddalarni iste'mol qilish natijasida jinsiy daxlsizlikka tajovuz jabrlanuvchisi bo'lib qolgan holatlar ham hayotda ko'plab uchraydi.

Bunday holatlar barchasi viktin xulq-atvor sifatida kriminogen vaziyat yuzaga kelishi va kuchayib borishiga xizmat qilishi aniq. Shuning uchun ham birinchi navbatda jabrlanuvchi xulq-atvorini chuqur o'rganish lozim bo'lib, bunday viktin xulq-atvorni quyidagi 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Jinoyat sodir etishga ig'vo qiluvchi (mayllik uyg'otuvchi) xulq-atvor. Bunday holatda jabrlanuvchi o'z xulq-atvori bilan unchalik tanish bo'lmagan yoki umuman tanish bo'lmagan shaxslarni begona joylarda (aybdorning uyida yoki boshqa joylarda) jinsiy aloqa qilishga undovchi xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Bunday xulqdagi jabrlanuvchilar jinsiy jinoyatlar jabrlanuvchilarining 10–15 foizini (nemis olimlari tadqiqotlari bo'yicha 1/3 qismini [17]) tashkil etadi.

2. Ig'vo qiluvchi xarakterga ega bo'lmasa-da, jinsiy aloqaga kirishishga obyektiv imkoniyat yaratib beruvchi xulq-atvor. Masalan, ayol jinsidagi shaxsning kechki paytda hech kim bo'lmagan hamda tajovuz sodir bo'lish xavfi bo'lgan joylarda yakka o'zi yurishi va h.k. Bunday xulq-atvorli jabrlanuvchilar 35–40 foizni tashkil etadi.

3. Neytral xarakterdagi xulq-atvor. Bunday holatda shaxs o'z xulq-atvori orqali jinoyat qurboniga aylanishini tushunib yetmagan holda shunga shart-sharoit yaratib

beradi. Bunday xulq-atvordagi shaxslar toifasiga, birinchi navbatda, yosh bolalar va qariyalar kirib, ular jabrlanuvchilarning 45–60 foizini tashkil etadi [18].

“Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarda jabrlanuvchilarning kriminogen tavsifini o‘rganish ularning yosh doirasiga qarab tasniflashni taqozo etadi. Bunda quyidagicha tasniflash o‘rinli bo‘ladi:

- 14 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning kriminologik tavsifi;
- 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning kriminologik tavsifi.

Demak, bunda shubhasiz 14 yoshga to‘lmagan voyaga yetmagan jabrlanuvchilar kriminogenligi 14–18 yoshgacha bo‘lganlar kriminogenligidan farq qiladi” [19], – deb ta’kidlaydi Q.P. Payzullayev o‘zining tadqiqot ishida.

B.A. Blinderning fikricha, “voyaga yetmaganlar nomusiga tegishdan kelib chiqadigan oqibatlarni tasavvur etish qiyin, ular muqarrar bo‘lib, yillar davomida jabrlanuvchiga ta’sir qilib kelishi mumkin” [20].

Voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning ko‘pchilik qismida jismoniy jihatdan sog‘lomlik saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ruhiy buzilishga duchor bo‘lganini ko‘rish mumkin. Mazkur turkum tajovuzlardagi jabrlanuvchilarning kriminogen xususiyatlaridan yana biri tajovuzga uchragan voyaga yetmaganlarning tajovuzdan so‘ng o‘zlarini o‘ldirishga harakat qilganliklarida ko‘rinadi. Shuningdek, aynan ruhiy anomaliyaga ega bo‘lgan shaxslar ko‘pincha takroran jinsiy tajovuzlar qurboniga aylanib qoladilar [21].

Voyaga yetmaganlar shaxsining o‘ziga xos xususiyatlarini va uning shakllanishini tahlil qilish jinoyat qurbonlari bo‘lganlar va boshqa shaxslarning yangi jinoyatlar qurboni bo‘lishining oldini oluvchi choralarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga egadir. Lekin ta’kidlash zarurki, jabrlanuvchilarning barcha viktin xatti-harakatlarini ochib berish mushkul, chunki u har bir jabrlanuvchining o‘ziga xosligiga, hayotiy tajribasi, ma’lumotlariga va boshqa omillarga bog‘liq.

Shunday qilib, voyaga yetmagan jabrlanuvchilar shaxsini o‘rganish ularni tarbiyalashdagi ishtirok etuvchilar rolini oshirishga, ularning axloqiy va ma’naviy shakllanish jarayoni normal kechishini o‘z vaqtida ta’minlay olishga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning voyaga yetmaganlar jabrlanuvchi bo‘lib qoladigan holatlarga qarshi kurashishdagi faoliyatiga ko‘maklashadi. Bu esa kelajagimiz tayanchi bo‘lgan yoshlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol bo‘lib yetishishida muhim ahamiyatga egadir.

Kuzatuvlarga qaraganda, jami nomusga tegish jinoyatlarining yarmidan ko‘pida voyaga yetmaganlar jabrlanuvchi bo‘lgan. Mutaxassis huquqshunoslar taxminicha, har bir hisobga olingan nomusga tegish jinoyatiga 2,6 dan 4 tagacha hisobga olinmagan shunday qilmish to‘g‘ri keladi [19].

Nima uchun jinsiy jinoyatchilar o‘z tajovuzlari obyektlari sifatida o‘z oilasining a’zosi bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslarni tanlaydilar? Balki buning sababi bolalar o‘zlari ishonishga odatlangan yaqin odamlariga kuchli qarshilik ko‘rsatmasligi, bu odam ularni osongina ko‘ndirishi yoki aldashi mumkinligidadir. Yaqin qarindoshlarining jinsiy tajovuziga duchor bo‘lgan bolalar yuz bergan voqea haqida birovga og‘iz ochishni uncha xohlamaydilar va o‘zlari ham yuz bergan voqea mohiyatini doim ham tushunavermaydilar [22].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, nomusga tajovuz qilgani uchun ozodlikdan mahrum etilganlarning 9,7 foizi jabrlanuvchilar xatti-harakatida jinsiy aloqa qilishga moyillik bo'lganini ko'rsatishadi. Shuningdek, o'tkazilgan so'rovlar bo'yicha sudlanuvchilar 72,2 foiz holatda jabrlanuvchilar bilan oldindan tanish bo'lganini, 43 foiz holatda esa jabrlanuvchilar tomonidan ularga nisbatan qarshilik bo'lmaganini ko'rsatishgan.

Voyaga yetmagan shaxslar nomusiga tegish uchun javobgarlik normalarini belgilovchi moddalar dispozitsiyasini aniqlashda qonun chiqaruvchi tomonidan himoyaga olingan shaxslarning aniq yoshi 18 va 14 yosh qilib belgilandi. Bu bilan voyaga yetmagan va kichik yoshdagilar nomusiga tegish atamaları bilan bog'liq muammolar bartaraf qilindi. Endi oldingidek jabrlanuvchining jinsiy yetuk yoki yetuk emasligini aniqlash uchun o'tkaziladigan turli ekspertiza, tergov harakatlariga barham berildi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, nomusga tegish jinoyati bo'yicha voyaga yetmagan jabrlanuvchilar yoshi o'rganilganda, ularni statistik jihatdan quyidagicha tavsiflash mumkin: 12 yoshgacha – 18 %, 12–14 yoshgacha – 16 %, 14–16 yoshgacha – 24 %, 16–18 yoshgacha – 42 %ni tashkil etadi.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, nomusga tegish jinoyatida jabrlanuvchilarning 1/3 qismi 14 yoshga to'lmagan shaxslar hisoblanadi, shuning uchun ham bunday shaxslar qonunchilik organi tomonidan "yosh bola"lar deb topilib (JK 56-m. 1-q. "b" bandiga qarang), ularning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilab qo'yilgan.

14 yoshga to'lmagan shaxsning nomusiga tegish og'irlashtiruvchi holat sifatida O'zR JK 118-moddasi 4-qismida belgilab qo'yilishi sababi: birinchidan, 14 yoshga to'lmagan shaxsning nomusiga tegish jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasi voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligiga tajovuz qiluvchi boshqa jinoyatlardan yuqoriroq hisoblanadi; ikkinchidan, aksariyat 14 yoshga to'lmagan jabrlanuvchilar ularga nisbatan sodir etilayotgan xatti-harakatlar mohiyatini tushuna olmaydi (va bu haqda o'ziga hisobot berolmaydi) [23].

Xulosalar

Oilada bolalarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning oldini olish, ularni fosh etish va tergov qilish borasidagi faoliyat huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari kasbiy mahorati darajasiga ko'p jihatdan bog'liq. Bolalarga nisbatan sodir etilgan jinsiy tajovuzlar alomatlarini sezish, bilib olish uchun ehtimol tutilgan jabrlanuvchilar bilan ishlaydigan xodimlar maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari lozim. Jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish davolash jarayonida shifokorlar, psixologlar, pedagoglar va boshqa mutaxassislarning o'zaro hamkorligi talab etiladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlar tizimida reabilitatsiya va profilaktika bilan shug'ullanuvchi mahkamalararo guruhlar tashkil etilishi, ular tarkibiga turli kasb mutaxassislari kiritilishi maqsadga muvofiq. Jinsiy jinoyatchilar orasida ruhiy holati buzilgan shaxslar ancha ko'p bo'lgani bois nafaqat jinoyatchilar, balki bunday jinoyatlarni sodir etishga moyil shaxslar uchun ham majburiy davolash muassasalari zarur.

Bundan tashqari, jinsiy jinoyatlar sodir etishga moyil bo'lgan, jinsiy mayli buzilgan, ruhiy anomaliyali shaxslarni aniqlash va ularning hisobini yuritish samarali tizimi yo'lga qo'yilishi lozim. Bunday hisoblar ichki ishlar va psixonevrologiya dispanserlarida yuritilishi zarur.

Jinoyat ishlarini tahlil qilish va olib borilgan sotsiologik so'rovlar natijalariga ko'ra, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinsiy jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilganlarning ko'pchiligi (85 %) ilgari ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqanlar ekani aniqlangan. Shuni e'tiborga olib avval shaxsga qarshi sodir qilgan jinoyatlari uchun jazoni o'tab chiqqanlarning xulq-atvori ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan bir qatorida, voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning umumiy oldini olishda quyidagi choralarni amalga oshirish lozim:

- xulqi va jamoat tomonidan berilgan tavsifni hisobga olgan holda jinsiy jinoyat sodir etishga qodir bo'lgan shaxslar ustidan ijtimoiy nazorat o'rnatish;
- oldin nomusga tegish yoki boshqa jinsiy jinoyatni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish;
- nomusga tegish jinoyatini sodir qilishga yo'l qo'ymaydigan, shaxslarni xabardor qilish bilan bog'liq operativ tadbirlarni amalga oshirish;
- jinsiy jinoyatlar sodir etgani uchun sudlangan shaxslarni qayta tarbiyalash va xulqini yaxshilash jarayonida qo'llanuvchi maxsus chora-tadbirlarni, jazoni o'tash joylarida esa jazoni o'tayotgan shaxslarga nisbatan huquqiy, ruhiy va tibbiyot tadbirlarini o'tkazish;
- ma'muriy nazorat bilan bog'liq, shuningdek, tibbiy tadbirlardan foydalanish orqali amalga oshiriluvchi nomusga tegish va boshqa jinsiy jinoyatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan postpenitensiar profilaktika joriy etish;
- viktimologik profilaktikani joriy etish va amalda qo'llash.

REFERENCES

1. 2020-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis dated December 29, 2020]. Available at: <http://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. Mezhdunarodnyye akty o pravakh cheloveka [International acts on human rights]. Collection of documents. Moscow, 2000, pp. 306–326.
3. Model'nyy Ugolovnyy kodeks dlya gosudarstv – uchastnikov SNG [Model Criminal Code for the CIS Member States]. *News of Universities*, 1996, vol. 1, pp. 92–150.
4. Volzhenkin B.V. Poyasnitel'naya zapiska k Model'nomu Ugolovnomu kodeksu dlya gosudarstv – uchastnikov Sodruzhestva Nezavisimyykh Gosudarstv [Explanatory note to the Model Criminal Code for the Member States of the Commonwealth of Independent States]. Available at: <http://pravoved.jurfak.spb.ru>
5. O'zbekistonda 1,5 mingdan ortiq bola zo'ravonlikka uchrash xavfi ostida qolmoqda [More than 1,500 children in Uzbekistan are at risk of violence]. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2023/10/13/violence/>



6. Bohndorf D. Mord, Raub, Terror, Drogen Kriminalitat im Imperialismus heute [Murder, robbery, terror, drugs crime in imperialism today]. Dieter Bohndorf, Reinhard Gelbhaar. Berlin, 1987, p. 44.
7. Schwind, H.D. Kriminologie [Criminology]. Heidelberg, 1988, p. 266.
8. Varchuk T.V. Viktimologiya [Victimology]. Moscow, Unita-Dana Publ., 2008, p. 38.
9. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Viktimologiya. Umumiy qism [Victimology. General part]. Tashkent, Public Security University of the Republic of Uzbekistan, 2021, pp. 80–90.
10. Zhetpisbayev B.A. Sotsial'no-pravovyye aspekty deviantnogo povedeniya nesovershennoletnikh [Social and legal aspects of deviant behavior of minors]. *Man and Law*, 2000, vol. 4/6, pp. 58–63.
11. Yakobson M.N. Emotsional'naya zhizn' ispolnina [Emotional life of the performer]. Moscow, 1966, p. 14.
12. Minskaya V.S., Cherchel' G.I. Viktimologicheskiye faktory i mekhanizm prestupnogo povedeniya [Victimological factors and the mechanism of criminal behavior]. Irkutsk, 1988, p. 152.
13. Child abuse and neglect: Biosocial dimensions. 1987.
14. Imelinskiy K. Psikhogigiyena polovoy zhizni [Psychohygiene of sexual life]. Moscow, 1972, pp. 52–57.
15. From the 2020 archive of the Tashkent City Criminal Court.
16. Minskaya V.S. Opyt viktimologicheskogo izucheniya iznasilovaniya [Experience of victimological study of rape]. *Issues of the fight against crime*, iss. 17. Moscow, Legal literature Publ., 1872, p. 25.
17. Ichonfelder Y. Du Rolle des Madchins bee Sexualdelikten. Huttgard, 1968, p. 120.
18. Stepanova O.Yu. Polovyye prestupleniya po UK 1996 goda (obshchaya kharakteristika i problemy kvalifikatsii) [Sexual crimes under the Criminal Code of 1996 (general characteristics and problems of qualification)]. Ryazan, Moscow Institute of Economics, Management and Law, 2001, p. 33.
19. Payzullayev Q.P. Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajjovuzlarning sodir etilish sabablari, shart-sharoitlari va oldini olish muammolari [Causes, conditions and problems of prevention of aggression against the sexual integrity and freedom of minors]. Tashkent, TSIL Publ., 2005, p. 40.
20. Blinder B.A. Ugolovno-pravovaya okhrana svobody dostoinstva zhenshchiny [Criminal-legal protection of freedom and dignity of women]. Tashkent, Tashkent State University, 1970, p. 91.
21. Svyadoshch A.M. Zhenskaya seksopatologiya [Female sexopathology]. Leningrad, 1974, pp. 72–76.
22. Xaydarov M.A. Voyaga yetmagan shaxsning jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar tushunchasi va uning holati [The concept and status of crimes against the sexual integrity of a minor]. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2024, vol. 4/3, p. 130.
23. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29/3, p. 3962.

Kelib tushgan / Получено / Received: 23.10.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 29.11.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.4./UCHS9845
UDC: 343.3:340.62(045)(575.1)

SOG'LIQQA QARSHI JINOYATLAR TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA TASNIFLANISHI

Israilov Dilshod Shavkatovich,
O'zbekiston Respublikasi
Sudyalar oliy kengashi huzuridagi
Sudyalar oliy maktabi direktori o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
ORCID: 0009-0005-8460-3099
e-mail: dilshod.israilov191063@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sog'liqqa qarshi jinoyatlar tushunchasi, mohiyati va ularning tasniflanishiga doir masalalar tahlil etilgan. Shuningdek, sog'liq insonga genetik tomondan beriluvchi muhim tabiiy boylik hisoblanishi, u har bir davlat tomonidan jinoiy-huquqiy jihatdan muhofaza qilinishi, uning tushunchasi, mohiyati va tasnifi bo'yicha olimlarning fikrlari o'rganilgan. Bundan tashqari, maqolada muallifning sog'liqqa qarshi jinoyatlarga ta'rif berilgan bo'lib, ushbu jinoyatlar tarkibi moddiy xususiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, sog'liqqa qarshi jinoyatlar obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida tahlil etilayotgan jinoyatlar uchun qonunda ko'rsatilgan sog'liqqa zarar yetkazish turidagi jinoiy oqibatlar va qilmish o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash shartligi ham bayon etilgan. Shu bilan bir qatorda, mazkur maqolada muallif sog'liqqa qarshi jinoyat sifatida badanga shikast yetkazish va uning o'ziga xos mezonlari yuzasidan ham fikrlar berib o'tgan. Bundan tashqari, maqolada "badanga shikast yetkazish" va "sog'liqqa shikast yetkazish" tushunchalari haqidagi masalalar bahs-munozaraga sabab bo'lib kelgani, ammo ko'plab yuridik adabiyotlarda "sog'liqqa shikast yetkazish" emas, balki "badanga shikast yetkazish" tushunchasi keltirib o'tilgani yuzasidan olimlarning fikrlari ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: badanga shikast yetkazish, javobgarlik, jazo, jinoyat, sog'liq, shikast yetkazish, inson sog'lig'i, mezon, obyektiv tomon, zaruriy belgi

ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И КЛАССИФИКАЦИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ ЗДОРОВЬЯ

Исраилов Дилшод Шавкатович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент,
заместитель директора Высшей школы судей при
Высшем судейском совете Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье анализируются понятие, сущность преступлений против здоровья и вопросы их классификации. Также были изучены мнения учёных о том, что здоровье – это природный ресурс, генетически переданный человеку и важный для человека, охраняемый каждым государством в уголовно-правовом отношении, его понятие, сущность и классификация. Кроме того, в статье даётся авторское определение преступлений против здоровья, а также подчёркивается, что состав этих преступлений носит материальный характер. Также в качестве необходимого признака объективной стороны преступлений против здоровья следует указать условие установления причинно-следственной связи между преступными последствиями, определёнными в законодательстве как вид причинения вреда здоровью по анализируемым преступлениям, и деянием. Вместе с тем в этой статье автор также высказал мнение об отнесении к преступлениям против здоровья – причинение телесных повреждений и приводит конкретные критерии. Кроме того, в статье также исследуются мнения учёных по поводу того, что вопросы о понятиях «телесное повреждение» и «причинение вреда здоровью» являются предметом споров, но во многих юридических изданиях приводится понятие «телесное повреждение», а не «причинение вреда здоровью».

Ключевые слова: телесные повреждения, ответственность, наказание, преступление, здоровье, вред, здоровье человека, критерий, объективная сторона, необходимый признак

CONCEPT, ESSENCE AND CLASSIFICATION OF CRIMES AGAINST HEALTH

Israilov Dilshod Shavkatovich,
Deputy Director of the Supreme School of Judges under
the Supreme Council of Judges of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Law, Associate Professor

Abstract. This article analyzes the concept, essence, and classification of crimes against health. The views of scientists on the concept, essence, and classification of health as a natural resource genetically inherited to humans and important to humans, and its criminal-legal protection by each state, have also been studied. In addition, the article provides the author's definition of crimes against health, emphasizing that the

composition of these crimes is material in nature. It is also stated that as a necessary sign of the objective side of crimes against health, it should be understood that for the analyzed crimes, it is necessary to determine the causal connection between the criminal consequences of the type of health damage specified in the law and the act. At the same time, in this article, the author also provided opinions on bodily harm as a crime against health and its specific criteria. In addition, the article also examines the opinions of scholars that the issues of the concepts of “injury to the body” and “injury to health” have been the subject of controversy, but in many legal literature, the concept of “injury to the body” is cited, not “injury to health.”

Keywords: *bodily injury, liability, punishment, crime, health, injury, human health, criterion, objective side, necessary sign*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmonida eng muhim yo'nalishlardan biri mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad “Inson qadri uchun” tamoyili asosida mamlakatimizda har bir fuqaroning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, inson qadri yuksaltirilgan erkin fuqarolik jamiyatini yaratishdan iborat. Bunda eng muhim masala fuqarolarimizni turli jinoiy tajovuzlardan himoya qilish hisoblanadi. Chunki har qaysi davrda hamda jamiyatda shaxsning erkin va farovon hayotiga, huquq va qonuniy manfaatlariga jinoyatchilik, shuningdek, boshqa tajovuzlar natijasida putur yetkazilgan. Shuning uchun, eng avvalo, qonun ustuvorligi va qonun oldida barchaning tengligiga erishish lozim. Shundagina sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha jazo muqarrarligini ta'minlash mumkin bo'ladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 7-moddasida “Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir”, – deb bejiz keltirib o'tilmagan.

Bugungi kunda respublikamizda sodir etilayotgan jami jinoyatlarning uchdan bir qismini tashkil qilayotgan inson hayoti va sog'lig'iga tajovuz qiluvchi jinoyatlar tendensiyasining har doim nazorat ostida bo'lishi, ularning ko'payib borishining oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan keskin choralar ko'rilishi lozim.

Sog'liq insonga genetik tomondan beriluvchi va inson uchun muhim bo'lgan tabiiy boylik hisoblanib, har bir davlatda jinoiy-huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi. Sog'liqni himoya qilish huquqi insonning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun normalari bilan mustahkamlangan va kafolatlangan asosiy huquqlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Inson, uning hayoti, shu bilan birga, sog'lig'i tabiiy huquqlar sanaladi. Shu bois mazkur huquqlar xalqaro hujjatlar bilan, jumladan, Inson huquqlari umumjahon

deklaratsiyasi [1] hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt [2] bilan mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa ega hamda davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, fuqarolar sog'lig'i saqlanishini kafolatlaydi.

Inson sog'lig'iga shikast yetkazilishi uning yo'qotilgan sog'lig'ini tiklash bilan shug'ullanishga, davolanishga, yangi, noqulay sharoitlarga moslashishga majbur qiladi. Shu boisdan ham davlat oliy qadriyat sifatida insonning huquq va erkinliklari ustuvorligini e'tirof etgan holda, jinoyat-huquqiy vositalar bilan ham inson sog'lig'i saqlanishiga qaratilgan qoidalarga fuqarolar tomonidan rioya etilishini ta'minlashi lozim.

Material va metodlar

Sog'liqqa qarshi jinoyatlar tushunchasi, mohiyati va ularning tasniflanishi mavzusini yoritishda tarixiylik, tizimli huquqiy tahlil, taqqoslash, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Amaldagi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining "Shaxsga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan 1-bo'limi II bobi "Sog'liqqa qarshi jinoyatlar" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda badanga yetkazilgan shikast darajasiga ko'ra quyidagi jinoyatlar og'iridan yengiliga qarab tasniflangan: qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (104-modda); qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (105-modda); kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (106-modda); zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (107-modda); ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zaruriy choralari chegarasidan chetga chiqib badanga qasddan og'ir shikast yetkazish (108-modda); qasddan badanga yengil shikast yetkazish (109-modda); qiynash (110-modda); ehtiyotsizlik orqasidan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish (111-modda).

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarni yuridik tahlil qiladigan bo'lsak, A.A. Otajonov sog'liqqa qarshi jinoyatlar deganda inson organlari yoki organizmi to'qimalari anatomik butunligi yoki ular fiziologik funksiyasining tashqi ta'sir oqibatida buzilishi yoxud insonga jismoniy jihatdan og'riq beruvchi, shuningdek, uning ruhiyati buzilishiga olib kelishda ifodalangan qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi huquqqa xilof qilmishlar tushunilishini ta'kidlab, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan sog'liqqa qarshi jinoyatlarni: 1) badanga turli darajada shikast yetkazish mumkin bo'lgan (JK, 104-109, 111-m.) va 2) qiynash bilan bog'liq bo'lgan sog'liqqa zarar yetkazish (JK, 110-m.) mumkin bo'lgan jinoyatlarga ajratishni taklif qilgan [3].

Tahlil qilinayotgan jinoyatlarning bevosita obyekti – boshqa shaxsning sog'lig'ini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar. Mazkur jinoyatlar sodir etilishi natijasida qanday bo'lmasin aniq bir shaxs organizmining muayyan fiziologik holati yoki ruhiyati buzilishi ro'y beradi.

Shuning uchun inson sog'lig'i buzilishiga olib kelgan har qanday sog'liqqa zarar yetkazishga sog'liqqa qarshi jinoyatlar deb qarash lozim. Bunda jabrlanuvchining yoshi

yoki holati hech qanday ahamiyat kasb etmaydi, balki uning u yoki bu biologik sifatleri va muayyan vaqtda jabrlanuvchining faktik sog'liq holati inobatga olinadi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarni har tomonlama chuqur tahlil qilish uchun birinchi navbatda "inson sog'lig'i" tushunchasiga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, sog'liq insonda faqatgina kasalliklar va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi emas, balki insonning to'liq jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy farovon holati hisoblanadi [4].

A.Y. Shalagin esa mazkur ta'rifni kengaytirgan holda "Individning sog'lig'i uning maksimal hayoti davomida biologik, jismoniy va ruhiy funksiyalarning, optimal darajadagi mehnat qobiliyati va ijtimoiy faolligi saqlanishi hamda rivojlanishi bilan belgilanadi" [5], – degan fikrni ilgari surgan.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlar obyektiv tomondan harakat yoki harakatsizlikda sodir etilishi mumkin. Sog'liqqa qarshi jinoyat tarkiblari moddiy tarkibli tuzilish xususiyatiga egadir. Bu esa sog'liqqa qarshi jinoyatlar obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida tahlil etilayotgan jinoyatlar uchun qonunda ko'rsatilgan sog'liqqa zarar yetkazish turidagi jinoiy oqibatlar va qilmish o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash shartligini anglatadi.

Inson sog'lig'i bilan bog'liq ayrim tushunchalar borki, ular sog'liqqa qarshi jinoyatlarni to'g'ri malakalashda ahamiyatga ega, xususan:

inson organlari – umumiy vazifani bajarish uchun strukturaviy birlikka birlashtirilgan to'qimalarning yig'indisi;

organizm to'qimalari – umumiy tuzilish va rivojlanishga ega hamda ma'lum funksiyalarni bajaradigan hujayralar va hujayralararo moddalar guruhi;

inson fiziologiyasi – organizm funksiyalari, tizimlari, a'zolari, to'qimalari, hujayralari va ularning boshqarish mexanizmlari tizimi;

sog'liqqa ziyon yetkazish – tashqi omillar ta'siri natijasida inson a'zo va to'qimalarining anatomik butunligi hamda (yoki) fiziologik faoliyati buzilishi.

Biroq "badanga shikast yetkazish" tushunchasi o'z mazmuni bilan inson fiziologiyasiga yetkazilgan ziyonni, ya'ni ko'rish, so'zlash, eshitish qobiliyatini yo'qotish yoxud ruhiy holati buzilishini qamrab ololmaydi. Shuning uchun ko'plab davlatlarning jinoyat qonunchiligida "badanga shikast yetkazish" tushunchasi o'rniga "sog'liqqa ziyon yetkazish" tushunchasi qo'llanib kelmoqda.

Xususan, biz kabi roman-german huquq tizimiga kiruvchi RF JK 111-moddasi – "Qasddan sog'liqqa og'ir ziyon(zarar) yetkazish", Qozog'iston Respublikasi JK 106-moddasi – "Qasddan sog'liqqa og'ir ziyon yetkazish", 107-moddasi – "Qasddan sog'liqqa o'rtacha og'ir ziyon yetkazish", Armaniston Respublikasi JK 112-moddasi – "Qasddan sog'liqqa og'ir shikast yetkazish", 113-moddasi – "Qasddan sog'liqqa o'rtacha og'ir ziyon yetkazish", Ozarbayjon Respublikasi JK 126-moddasi – "Qasddan sog'liqqa og'ir ziyon yetkazish", 127-moddasi "Qasddan badanga o'rtacha og'ir ziyon yetkazish" deb nomlangani ham yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Sog'liqqa qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik aybdorning qilmishi bilan kelib chiqqan (JK 104–110-m.) oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud

bo'lishini taqozo etadi. Agar mazkur oqibatlar, garchi ular aybdorning huquqqa xilof harakatlari bilan bog'liq bo'lsa-da, organizmning individual xususiyatlari yoki ko'rsatilgan tibbiy yordam tegishli bo'lmaganligi, jabrlanuvchining unga yetkazilgan ziyon og'irlashishiga sabab bo'lgan o'z harakatlari, aybdorning qasdi bilan qamrab olinmagan boshqa holatlar tufayli kelib chiqqan bo'lsa, qilmishni Jinoyat kodeksining ko'rsatilgan moddalari bo'yicha javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmaydi.

Qonunda ko'rsatilgan muayyan oqibatlarning yuz berganligi (mehnat qobiliyatining yo'qotilishi, biror-bir organni yoki shu organ faoliyatining yo'qotilishi, homilaning tushishi va h.k.) badanga og'ir, o'rtacha og'ir, yengil shikast yetkazishni tamom bo'lgan jinoyat deb topishning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Shu bilan birga, sport bellashuvlari vaqtida ushbu sport turi uchun o'rnatilgan qoidalar va xavfsizlik choralarini buzmagani holda boshqa shaxsning sog'lig'iga zarar yetkazilgan holat ham jinoiy javobgarlikni inkor etadi. Yuridik adabiyotlarda sport musobaqalari vaqtida sog'liqqa zarar yetkazish mumkin bo'lgan to'rtta vaziyat farqlanadi. Ular quyidagilar:

birinchi vaziyat – sport bellashuvi vaqtida o'yin qoidalarini buzilmagani holda sog'liqqa shikast yetkazilishi. Garchi bunday harakatlar natijasida zararli oqibatlar yuz bersa ham, shaxs sport qoidalarini buzish va shikast yetkazishga qasd qilmaydi. Shu bois uning harakatlari ijtimoiy xavfli va g'ayriqonuniy deb topilishi mumkin emas;

ikkinchi vaziyat – sportchining ehtiyotsizlikdan o'yin qoidalarini buzganligi natijasida sog'liqqa shikast yetkazilishi. Bunday hollarda ham sportchining harakatlarida jinoyat tarkibi bo'lmaydi va unga nisbatan musobaqa qoidalarida nazarda tutilgan jazolargina qo'llanishi mumkin;

uchinchi vaziyat – o'yin qoidalarini qasddan buzish natijasida sog'liqqa shikast yetkazilishi. Bunday hollarda masala ro'y bergan oqibatlarga qarab hal etiladi. Agar badanga yengil shikast yetkazish tarzidagi oqibat yuz bergan bo'lsa, aybdor jinoiy javobgarlikka tortilmasligi lozim. Jabrlanuvchiga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksi 111-moddasi (ehtiyotsizlikdan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazganlik uchun) bilan kvalifikatsiya qilinadi;

to'rtinchi vaziyat – raqibning sog'lig'iga sport bellashuviga bog'liq bo'lmagan holda shikast yetkazilishi. Bunday hollarda badanga qasddan u yoki bu darajada shikast yetkazganlik uchun aybdor jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sog'liqqa qarshi jinoyatlardan bir turi sifatida badanga shikast yetkazish mazmunidan kelib chiqib, inson badanida mavjud, o'ziga xos moddiy xususiyatlari va ko'rinishiga ega bo'lgan, sud-tibbiy ekspertizasi yordamida og'irligi hamda darajasini aniqlash imkonini beradigan zarar yetkazilganligini ifodalaydi. Biroq ushbu tushuncha faqatgina moddiylikka asoslangan bo'lib, u o'zida shaxsga shikast yetkazilishi natijasida uning ruhiyatiga yetkazilgan zarar va kechinmalarni qamrab olmaydi. Aslida yetkazilgan har qanday tan jarohati shaxsga jismoniy og'riq berishi bilan birga, ruhiyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda ziyon yetkazadi.

M.V. Avakyaning fikriga ko'ra, bir vaqtning o'zida kaltaklash maqsadi ruhiy zo'ravonlik ham bo'lishi mumkin, inson ikkita o'zaro bog'langan, lekin sifat jihatidan turli xil tuzilmalar birligi hisoblanadi [6].

Y.V. Bezruchko umumlashtirgan holatda quyidagicha xulosa qiladi: "Insonga qilinadigan har qanday zo'ravonlik ham jismoniy, ham ruhiy ta'sir doirasiga ega. Insonda ikkita ta'sir doirasi mavjud: biologik va psixologik [7]".

Ko'plab olimlar o'z izlanishlarida jismoniy va ruhiy zo'ravonliklarni alohida mustaqil jinoyat deb hisoblab, har ikkisi ham javobgarlikni taqozo etishini e'tirof etishgan [8, 9, 10].

Y.G. Saxarovaning yozishicha, kaltaklar yoki tana daxlsizligiga ta'sir qiluvchi xatti-harakatlar uning nafaqat jismoniy, balki ruhiy sog'lig'iga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yuzdagi jarohat izlari ko'p holatlarda insonning sog'lig'idan ko'ra nafsoniyatiga va qadriga putur yetkazadi [11]. Shuni ta'kidlash lozimki, gap faqat jismoniy og'riqda emas, xo'rlanganlik, o'ziga ishonchsizlik, qul sifatida bog'liqlik yuzaga kelishida nafaqat jism daxlsizligi buziladi, balki insonni erkinligi va qadr-qimmatining daxlsizligi toptaladi [12].

Jarohat yetkazayotgan odam harakatlari oqibatida turli og'irlik darajasidagi tan jarohatlari olinishini tushunishi darkor, u jabrlanuvchining nafaqat jismi, balki qadri poymol qilinishida aybdordir. Kaltaklanish ikki tomonlama bo'lmasa, bir insonning ikkinchisidan ustunligi, zo'ravon tomonda kuch, kaltaklangan tomonda esa zaiflik yoki bir tomonda hukmronlik, ikkinchi tomonda esa itoatkorlik bor. Shu tariqa zo'ravon birinchi o'rinda insonni sog'lig'iga, ikkinchi tomondan, jabrlanuvchining or-nomusi, qadr-qimmatiga tajovuz qiladi.

Bunday holatlarda jabrlanuvchiga ham jismoniy, ham psixologik (ruhiy) azob yetkaziladi. Agarda jismoniy iztirob faqat jismoniy zo'ravonlik orqali yetkazilsa, psixologik (ruhiy) iztirob har ikkala zo'ravonlik turi bilan yetkaziladi. Bunday holatda ruhiy iztirob jismoniy og'riqlar tufayli kuchayadi, jabrlanuvchining ruhiyatiga ikki barobar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, bizningcha, qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarida ham inson sog'lig'iga, ham ruhiyatiga ziyon yetkaziladi.

Yuridik adabiyotlarda avvaldan "badanga shikast yetkazish" va "sog'liqqa shikast yetkazish" tushunchalari haqidagi masalalar bahs-munozaraga sabab bo'lib kelgan. Ko'plab yuridik adabiyotlarda "sog'liqqa shikast yetkazish" emas, balki "badanga shikast yetkazish" tushunchasi keltirib o'tilgan bo'lib, lekin hanuzgacha ularning yagona ta'rifi to'liq tavsiflab berilmagan. Xususan, ayrim olimlar badanga shikast yetkazish tushunchasini urish, do'pposlash, qiynash atamalari bilan bog'lamaslik lozimligini ta'kidlasalar [13], boshqalar esa badanga shikast yetkazish tushunchasiga nafaqat urish, do'pposlash, qiynash harakatlarini, balki inson salomatligining umumiy buzilishiga olib kelmagan hamda qon ketish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa zo'ravonlik harakatlarini ham kiritmaslik lozimligini qayd etadi [14].

Shuningdek, boshqa guruh olimlar urish, do'pposlash va qiynash bilan bog'liq harakatlarni sog'liqqa zarar yetkazishga taalluqli deb hisoblaydilar, biroq bunday harakatlarni sud-tibbiy ekspertizasi tomonidan aniqlash imkoni bo'lmaganligi sababli ularni badanga shikast yetkazish tushunchasiga kiritmaganlar [15].

M.M. Gorshkov esa tan jarohati jinoyati tushunchasiga o'zga shaxs tomonidan nafaqat jiddiy va sezilarli darajada sog'liqqa ziyon yetkazish, balki bir lahzada izziz o'tib ketadigan og'riqni ham shu jinoyatlar toifasiga kiritadi [16].

A.A. Matchanovning ta'kidlashicha, jismoniy og'riq bilan bog'liq bo'lgan zarba, kaltak va boshqa zo'ravonliklar, har qanday jarohatlar kabi inson salomatligiga ziyon yetkazadi [17]. Uning tibbiyot adabiyotlariga asoslangan fikriga ko'ra, har qanday jismoniy og'riq tana va ichki organlarning odatiy faoliyatini buzadi. Bunday nuqtayi nazarni boshqa mualliflar ham qo'llab-quvvatlab, zarba, kaltak va boshqa zo'ravonlik harakatlarini tan jarohati yetkazish jinoyati deb hisoblaydilar [18, 19].

R.D. Musabirovning ta'kidlashicha, shaxs tanasiga yetkazilgan jarohat har qanday emas, balki sezilarli va ko'rinarli darajada ziyon keltiradigan sog'liq buzilishidir [20].

O.V. Bespechniy esa sog'liqqa sezilarli darajada jarohat yetkazilmasligining o'zi shubhalidir, chunki har qanday jarohat har doim va so'zsiz sog'liqning jiddiy buzilishi bilan bog'liq [21], deb ta'kidlaydi.

O.A. Kustovani ta'kidlashicha, tan jarohatlari yetkazilgan jinoyatlarning boshqa jinoyatlardan farqi keltirilgan ziyon namoyon bo'lishi va aniq ta'riflanishi hamda mutaxassislar bilan tasdiqlanadigan bo'lishi darkor [22].

Tahlil qiladigan bo'lsak, badanga shikast yetkazish deb topilishi mumkin bo'lgan sog'liqqa zarar yetkazilishi chegaralarini aniq belgilash va uni boshqa zo'ravonlik tajovuzlaridan farqlash (ajratish) imkonini beradigan ikkita obyektiv mezon asos qilib olingan ta'rif, bizningcha, ancha aniqroqdir. Bu mezonlar quyidagilar:

odam tanasi a'zolari va to'qimalarining anatomik butunligi yoki bir me'yorda ishlab turishning buzilganligi;

odam sog'lig'iga sud-tibbiy ekspertizasi yordamida yetkazilgan zararining og'irligi va darajasini aniqlash imkonini beradigan zararining yetkazilganligi [23].

Fikrimizcha, urish, do'pposlash va boshqa jismoniy og'riq beruvchi harakatlar sodir etilishini badanga shikast yetkazishlar jumlasiga kiritib bo'lmaydi. Chunki bunday harakatlar natijasida badanga yetkazilgan shikastlarning og'irlik darajasi sud-tibbiy ekspertizasi o'tkazish jarayonida obyektiv mezonlar asosida tasdiqlanishi mumkin bo'lgan darajada sog'liqni ishdan chiqarmaydi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarning subyektiv tomoni aksariyat jinoyat tarkiblari aybning qasd shaklida ifodalanadi, biroq ehtiyotsizlik oqibatida ham sodir etilishi mumkin. Bunda qasd to'g'ri yoki egri bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 104-moddasi 3-qismi "d" bandida nazarda tutilgan jinoyat aybning ikki shaklida (murakkab ayb) sodir etiladi, ya'ni qilmishga nisbatan qasd qonunda ko'rsatilgan oqibatga nisbatan aybning ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi.

Jinoyat kodeksi 104–110-moddalari bo'yicha javobgarlik aybdorda mazkur moddalar dispozitsiyasida ko'rsatilgan shikastni boshqa shaxsga huquqqa xilof ravishda yetkazishga nisbatan qasd (to'g'ri yoki egri) mavjud bo'lgandagina kelib chiqadi.

Agar aybdor o'z harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli ekanligini anglasa, jabrlanuvchi badaniga muayyan darajada shikast yetkazishi mumkinligiga ko'zi yetsa va shuni xohlasa yoki xohlamasa-da, bunga ongli ravishda yo'l qo'ysa yoki o'z

qilmishidan kelib chiqadigan oqibatlariga befarq qarasa, qilmish aslida kelib chiqqan oqibatlar bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Badanga shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun ayb shakli, badanga shikast yetkazish motivi, maqsadi va usuli, aybdorning qilmishi bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligi, shuningdek, ishning to'g'ri hal etilishi va aybdorga adolatli jazo belgilanishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlar batafsil aniqlanishi lozim.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarning subyekti qonunda belgilangan yoshga to'lgan aqli raso har qanday jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Jumladan, qasddan badanga og'ir (JK, 104-m.) yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK, 105-m.), shuningdek, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK, 106-m.) jinoyati *subyekti* 14 yosh va sog'liqqa qarshi boshqa jinoyatlarning *subyektlari* 16 yoshdan boshlanadi (JK, 104-modda 3-qism "b" va "v" bandi, 105-modda 2-qism "k" va "l" bandlarida nazarda tutilgan jinoyat tarkiblarida jinoyat subyektining maxsus belgilari ham qayd etilgan).

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib "badanga shikast yetkazish" tushunchasini "sog'liqqa ziyon yetkazish" tushunchasiga almashtirishni taklif etamiz va quyidagi jinoiy-huquqiy nuqtayi nazardan ishlab chiqilgan mualliflik ta'rifi beramiz.

Jumladan, *sog'liqqa ziyon yetkazish – qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan tashqi ta'sir ko'rsatilishi oqibatida inson organlari yoki organizmi to'qimalari anatomik to'kisligi yoki ularning fiziologik funksiyasining yoxud ruhiyati buzilishiga sabab bo'lgan sog'liqqa g'ayriqonuniy zarar yetkazish.*

Bundan tashqari, *sog'liqqa qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik va ularning profilaktikasiga oid ilmiy-nazariy xulosalarga to'xtaladigan bo'lsak, ular quyidagilardan iborat:*

inson organlari – umumiy vazifani bajarish uchun strukturaviy birlikka birlashtirilgan to'qimalar yig'indisidir;

organizm to'qimalari – umumiy tuzilish va rivojlanishga ega hamda ma'lum funksiyalarni bajaradigan hujayralar va hujayralararo moddalar guruhidir;

inson fiziologiyasi – organizm funksiyalari, tizimlari, a'zolarini, to'qimalari, hujayralari va ularning boshqarish mexanizmlari tizimidir.

Tana daxlsizligiga ta'sir qiluvchi xatti-harakatlar uning nafaqat jismoniy, balki inson ruhiy sog'lig'iga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. "Badanga shikast yetkazish" tushunchasi o'zining mazmuni bilan inson fiziologiyasiga yetkazilgan ziyonni, ya'ni ko'rish, so'zlash, eshitish qobiliyatini yo'qotish yoxud ruhiy holati buzilishini o'z ichiga qamrab olmaydi. Shu boisdan jinoyat qonunchiligida "badanga shikast yetkazish" tushunchasi o'rniga "sog'liqqa ziyon yetkazish" tushunchasini qo'llash maqsadga muvofiq. Unga quyidagicha ta'rif berish taklif qilinadi:

Sog'liqqa ziyon yetkazish – qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan tashqi ta'sir ko'rsatilishi oqibatida inson organlari yoki organizmi to'qimalari anatomik to'kisligi yoki ularning fiziologik funksiyasi yoxud ruhiyati buzilishiga sabab bo'ladi.

Amaldagi jinoyat qonunchiligida tan jarohati yetkazganlik uchun javobgarlik tan jarohatining og'irligiga (og'ir, o'rtacha og'ir va yengil) qarab ajratilib, ijtimoiy jihatdan



to'liq shartlangan. Tan jarohatining og'irlik darajasi tibbiy va iqtisodiy mezonlar asosida belgilanadi. Tibbiy mezonlarni hisobga olgan holda "sog'liqning umumiy buzilishi", "sog'liqning uzoq muddatli buzilishi", "sog'liqning qisqa muddatli buzilishi" farqlanadi.

Iqtisodiy mezon mehnatga layoqatlilik darajasini aks ettiradi, bu "umumiy mehnat qobiliyatining o'ttiz uch foizidan kam bo'lmagan qismini doimiy ravishda yo'qotish" (JK 104-modda), "umumiy mehnat qobiliyatini o'ndan o'ttiz uch foizgacha sezilarli darajada doimiy yo'qotish" (JK 105-modda) va "sog'lig'ining qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishi" (JK 109-modda) sifatida ifodalanadi.

REFERENCES

1. Universal Declaration of Human Rights. Available at: <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
2. International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights.
3. Otajonov A.A. Shaxsga qarshi jinoyatlar [Crimes against the person]. Tashkent, 2012, pp. 24–26.
4. Constitution of the World Health Organization (WHO). Available at: https://www.who.int/governance/eb/who_constitution_ru.pdf
5. Shalagin A.Ye. Prestupleniya protiv zdorov'ya naseleniya. Ponyatiye, vidy, obshchestvennaya opasnost' [Crimes against public health. Concept, types, public danger]. *Bulletin of the Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2011, vol. 3/5, p. 28.
6. Avak'yan M.V. Metodika rassledovaniya i podderzhaniya gosudarstvennogo obvineniya po delam ob umyshlennom prichinenii tyazhkogo vreda zdorov'yu [Methodology of investigation and support of state prosecution in cases of intentional causing of grievous bodily harm]. Kaliningrad, 2017, p. 124.
7. Bezruchko Ye.V. Prestupleniya, posyagayushchiye na bezopasnost' zdorov'ya cheloveka: teoretiko-pravovoye issledovaniye [Crimes encroaching on the safety of human health: theoretical and legal research]. Rostov-on-Don, 2018, p. 450.
8. Lyakh L.A. Pervonachal'nyy etap rassledovaniya umyshlennogo prichineniya tyazhkogo vreda zdorov'yu, opasnogo dlya zhizni [The initial stage of the investigation of intentional infliction of grave harm to health, dangerous to life]. Available at: <https://www.dissercat.com/content/pervonachalniy-etap-rassledovaniya-umyshlennogo-prichineniya-tyazhkogo-vreda-zdorovyu-opasno>
9. Makarov A.Yu. Ugolovno-pravovaya bor'ba s umyshlennymi meneye tyazhkimi (sredney tyazhesti) telesnymi povrezhdeniyami [Criminal-legal struggle with intentional less serious (moderate) bodily injuries]. Available at: <https://www.dissercat.com/content/ugolovno-pravovaya-borba-s-umyshlennymi-meneye-tyazhkimi-srednei-tyazhesti-telesnymi-povrezhd>

10. Niyozova S.S. Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi [The study of the impact of crime on victims]. Tashkent, 2020, p. 71.
11. Sakharova Ye.G. Rassledovaniye prichineniya vreda zdorov'yu [Investigation of damage to health]. Available at: <http://www.dslib.net/kriminal-process/rassledovanie-prichineniya-vreda-zdorovju.htm>
12. Tereshchenko T.G. Umyshlennoye prichineniye tyazhkogo telesnogo povrezhdeniya: ugolovno-pravovaya i kriminologicheskaya otsenka [Intentional infliction of grievous bodily harm: criminal-legal and criminological assessment]. Minsk, 2013. p. 20.
13. Avak'yan M. V. Metodika rassledovaniya i podderzhaniya gosudarstvennogo obvineniya po delam ob umyshlennom prichinenii tyazhkogo vreda zdorov'yu [Methodology of investigation and support of public prosecution in cases of intentional infliction of grievous bodily harm]. Kaliningrad, 2017, p. 251.
14. Popov A.N. Prestupleniya protiv lichnosti pri smyagchayushchikh obstoyatel'stvakh [Crimes against the person under mitigating circumstances]. Available at: <https://search.rsl.ru/ru/record/01000726663>
15. Yershov V.A. Metodika rassledovaniya prestupleniy protiv zhizni i zdorov'ya grazhdan, sovershayemykh chlenami neformal'nykh grupp (dvizheniy) [Methodology for investigating crimes against the life and health of citizens committed by members of informal groups (movements)]. Available at: <https://www.dissercat.com/content/metodika-rassledovaniya-prestuplenii-protiv-zhizni-i-zdorovya-grazhdan-sovershaemykh-chlenam>
16. Gorshkov M.M. Pervonachal'nyy etap rassledovaniya istyazaniy. Tipizatsiya kriminalisticheskoy znachimoy informatsii [Initial stage of investigation of torture. Typification of forensically significant information]. Available at: <http://www.dslib.net/kriminal-process/metodika-rassledovaniya-istyazaniy.html/>
17. Matchanov A.A. Metodika rassledovaniya prestupleniy (teoreticheskiye i prakticheskiye aspekty) [Methods of crime investigation (theoretical and practical aspects)]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2019, p.74.
18. Ganiyev O.T. Osobennosti rassledovaniya prestupleniy, svyazannykh s rasprostraneniym zabolevaniy, peredayushchikhsya polovym putem, i SPIDa [Features of the investigation of crimes related to the spread of venereal diseases and AIDS]. Tashkent, 2006, p. 21.
19. Turgunov I.T. Povysheniye kul'tury prav cheloveka v MVD [Raising the culture of human rights among employees of internal affairs agencies]. Tashkent, Uzb. Resp. MIA Academy, 2017, p. 78.
20. Musabirov R.D. Osobennosti pervonachal'nogo etapa rassledovaniya tyazhkikh nasil'stvennykh prestupleniy protiv zhizni i zdorov'ya, sovershennykh raneye sudimymi litsami [Features of the initial stage of the investigation of serious violent crimes against life and health committed by previously convicted persons: author's abstract]. Available at: <https://www.dissercat.com/content/>



osobennosti-pervonachalnogo-etapa-rassledovaniya-tyazhkikh-nasilstvennykh-prestuplenii-proti

21. Bespechnyy O.V. Teoreticheskiye i prakticheskiye problemy rassledovaniya prestupleniy, svyazannykh s prichineniyem tyazhkogo vreda zdorov'yu [Theoretical and practical problems of investigating crimes related to causing serious bodily harm]. Available at: <https://www.dissercat.com/content/teoreticheskie-i-prakticheskie-problemy-rassledovaniya-prestuplenii-svyazannykh-s-prichineni>

22. Kustova O.A. Metodika rassledovaniya prestupleniy, svyazannykh s iz'yatiyem organov i (ili) tkaney cheloveka dlya transplantatsii [Methodology investigation of crimes related to the removal of human organs and (or) tissues for transplantation]. Available at: <http://lawlibrary.ru/disser2015590.html>

23. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2018, p. 115.

24. Niyazova S.S. Pravovaya kharakteristika ubiystva v sostoyanii sil'nogo dushevno volneniya [Legal characteristics of murder in a state of strong emotional distress]. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2022, pp. 61–72.

25. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2020, vol. 29/3, pp. 3960–3969.

26. Niyozova S.S. Reasons for the Murder of a Newborn Child by a Mother and Criminal Liability for it. *Int J Semiot Law* 2024. DOI: 10.1007/s11196-024-10174-8

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.11.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 02.12.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.4./UXBS1084
UDC: 343.846(045)(575.1)

JAZONI O'TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILISH TUSHUNCHASI VA HUQUQIY AHAMIYATI

Kamalova Dildora G'ayratovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-6747-8883
e-mail: d.kamalova@tsul.uz

Ibroximov Saidakbar Ilxom o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti 4-bosqich talabasi
ORCID: 0009-0000-1175-2062
e-mail: ibrohimsaid010@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tushunchasi keng tahlil qilingan bo'lib, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishning muddatlari, qo'shimcha talablari va ushbu institutning tub mohiyati bayon etilgan. Shu bilan birga, jinoyat huquqida muddatidan ilgari jazodan shartli ozod qilish tushunchasining ijtimoiy-huquqiy mohiyati, tizimi hamda jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni nazarda tutuvchi jinoyat qonuni normalarining rivojlanish tarixiga ham e'tibor qaratilgan. Tadqiqot materiallari asosida bir qator o'zbek va xorij olimlarining fikr-mulohazalari va qarashlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqolada ilmiy tadqiqot metodlari sifatida bir qator ilmiy metodologik usullardan foydalanish orqali mavzuning mohiyatini tushuntirishga harakat qilingan. Mavzuni yanada keng tahlil qilish uchun bir qator xorijiy davlatlarning jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga taalluqli jinoyat-huquqiy normalari ham atroflicha yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga kiritilgan so'nggi qo'shimcha va o'zgartirishlar, statistik ma'lumotlar hamda amaliyot materiallari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada mavzuga oid xalqaro davlatlarning jinoyat qonunchiligiga tegishli normalariga tayangan holda muallif xulosalari ham bayon qilingan.

Kalit so'zlar: jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish, jazo, jazo muddatlari, Jinoyat kodeksi, jazoni ijro etish muassasasi, rejim, javobgarlik, qonun

ПОНЯТИЕ И ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ УСЛОВНО-ДОСРОЧНОГО ОСВОБОЖДЕНИЯ ОТ ОТБЫВАНИЯ НАКАЗАНИЯ

Камалова Дилдора Гайратовна,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
декан факультета уголовного правосудия
Ташкентского государственного
юридического университета

Иброхимов Саидакбар Ильхом угли,
студент 4-го курса факультета уголовного правосудия
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье подробно анализируется сущность условно-досрочного освобождения от отбывания наказания: понятие, сроки и дополнительные требования, установленные к данному институту. Наряду с этим обращается внимание на социально-правовую сущность, систему понятия условно-досрочного освобождения от наказания в уголовном праве, а также на историю развития норм уголовного права, предусматривающих его. На основе материалов исследования были проанализированы мнения и взгляды ряда узбекских и зарубежных учёных. Кроме того, в статье была сделана попытка объяснить сущность данного института с помощью ряда научно-методологических методов. Для более широкого анализа института условно-досрочного освобождения от наказания подробно рассмотрены уголовно-правовые нормы ряда зарубежных государств, касающиеся темы. В результате исследования были проанализированы последние дополнения и изменения, внесённые в законодательство об институте условно-досрочного освобождения от наказания, статистические данные и практические материалы. В статье также изложены выводы автора относительно данной темы, опирающиеся на нормы международного уголовного права.

Ключевые слова: условно-досрочное освобождение от отбывания наказания, наказание, сроки наказания, Уголовный кодекс, пенитенциарное учреждение, режим, ответственность, закон

CONCEPT AND LEGAL SIGNIFICANCE OF PAROLE

Kamalova Dildora Gayratovna,
Dean of the Faculty of Criminal Justice,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy in Law

Ibrokhimov Saidakbar Ilkhom ugli,
4th year student of the
Faculty of Criminal Justice,
Tashkent State University of Law

Abstract. *This article extensively analyzes the concept of parole, outlines the terms, additional requirements for parole, and the essence of this institution. At the same time, attention is paid to the socio-legal essence and system of the concept of conditional early release from punishment in criminal law, as well as the history of the development of criminal law norms that provide for conditional early release from punishment. Based on the research materials, the opinions and views of a number of Uzbek and foreign scientists were analyzed. In addition, the article attempts to explain the essence of the topic through the use of a number of scientific-methodological methods as research methods. For a more comprehensive analysis of the topic, the criminal law norms of a number of foreign countries concerning the institution of parole are also covered in detail. According to the research results, the latest additions and changes made to the institution of parole, statistical data, and practical materials were analyzed. The article also presents the author's conclusions on the topic, relying on the relevant norms of international criminal law.*

Keywords: *parole, punishment, terms of punishment, Criminal code, institution of punishment, regime, liability, law*

Kirish

Hammamizga ma'lumki, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida jamiyatimizning turli sohalarida yuz berayotgan keng qamrovli o'zgarish va islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad inson qadrini ulug'lash hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu islohotlar jinoyat qonunchiligi va jazoni ijro etish tizimiga ham tegishli hisoblanadi. Buning asosiy sababi, jinoyat qonunchiligidagi ma'lum bir institutlar inson va shaxs uchun ijobiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jazo qo'llash, tegishli jazo choralari belgilash, uni ijro etilishi yoki jazoni o'tash to'xtatilishi kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Jazoni to'xtatish jarayonidan biri bu, albatta, jazoni ijro etishdan shartli ravishda ozod qilish hisoblanadi.

E. Turg'unboyev fikriga ko'ra [1], O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalarida ta'kidlab o'tilgan insonparvarlik prinsipi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish institutida ham o'z aksini topadi. Ushbu fikrga tayanib shuni aytishimiz lozimki, amalga oshayotgan sud-huquq islohotlari bois jinoyat qonunchiligidagi huquqiy normalar yanada takomillashib bormoqda. Xususan, so'nggi yillarda javobgarlik va jazodan ozod qilish asoslari soddalashtirildi, ayrim turdagi jinoyatlar bo'yicha sanksiyalar yengillashtirildi va javobgarlikdan ozod etishga qaratilgan rag'batlantiruvchi normalar joriy etildi.

Shuningdek, insonparvarlik akti sifatida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan yengilroq jazo tayinlash, shu jumladan, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish amaliyoti yanada kengaytirildi. Bu esa yuqorida aytganimizdek, insonparvarlik prinsipining amalda mukammal ta'minlanishiga zamin yaratmoqda. Xususan [2], 2021-yilda 21 780 nafar, 2022-yilda esa 26 753 nafar shaxs muddatidan ilgari shartli ravishda jazoni o'tashdan ozod qilingan. Ushbu yuqoridagi barcha ijobiy raqamlar, jinoyat qonunchiligidagi

liberallashtirish jarayoni ildam odimlab borayotganini, jazoni ijro etish muassasalaridagi jazo o'tayotgan mahkumlar tuzalish yo'liga o'tganligini, huquqqa nisbatan itoatkorlik hissi shakllanib borayotganini, jinoyat qonunchiligining "insonparvarlik prinsipi", shu bilan birgalikda inson qadrini ulug'lashga qaratilgan islohotlar jinoyat qonunchiligini ham qamrab olganligini ifoda etadi.

Material va metodlar

Ushbu maqolada berilgan mavzuni tadqiq etish maqsadida analiz va sintez, deduksiya va induksiya, solishirish va taqqoslash kabi ilmiy metodlardan foydalanilgan.

Mazkur mavzu yuzasidan o'zbek olimlaridan R. Ikramov, M.X. Rustambayev, E. Turg'unboyev; xorijiy olimlardan D.J. Newman, P.R. Anderson, A.M. Плюснин ilmiy qarashlari tahlil qilingan, maqolani xorijiy ma'lumotlar bilan boyitish maqsadida Kanada, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy kabi davlatlarning jinoyat qonunchiligidan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tushunchasining tub ildizlari yurtimizning boy tarixidan o'rin olgan. Bunga misol qilib, qadimiy "Avesto"ni keltirishimiz mumkin. Chunki ushbu manba Markaziy Osiyo xalqlari tarixining yodgorligi bo'lib, unda hozirda shakllangan jinoyat huquqining aynan o'sha davrga monand ma'lum bir elementlari hamda jazo, jazoni qo'llash, jazodan ozod qilishga oid tushunchalar mavjud. Masalan, o'lim jazosiga hukm qilingan zinokorlar 14 ta ariqqa ko'priq solib berish bilan o'z gunohlarini yuvishi mumkin bo'lgan [3]. Bu ham jazodan shartli ravishda ozod qilishga tarixiy misollardan biri bo'lishi mumkin. Xalqaro davlatlar tajribasiga ko'ra, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish rasmiy birinchi marotaba XVIII asrda Avstriya davlati qonunchiligida qo'llangan. Unga ko'ra, "xulq-atvori yaxshi bo'lgan va qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan" mahkumlar jazo muddatining yarmidan ko'pini o'taganidan keyin jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan [4].

Mamlakatimizda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. Jinoyat huquqi nazariyasiga ko'ra, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish – sudlanuvchini jazoning o'talmagan vaqt davomida unga sud tomonidan yuklangan majburiyatlarni bajarishi hamda ijtimoiy tartibni saqlash va yangi jinoyatni sodir etmaslik sharti bilan jazoni o'tashni davom ettirishdan ozod qilishdir [5]. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash qonuniy ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda tarbiyaviy xususiyatga ega va ijobiy huquqiy harakatni samarali ravishda rag'batlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Jazo muddatining o'talmagan qismi uchun shaxs tomonidan o'z xulq-atvori bilan tarbiyasi va huquqqa bo'lgan itoatkorlik hissi ijobiy tomonga o'zgarganligi va davlat tomonidan bildirgan ishonchni oqlashi kerakligi kabi omillar talab etiladi.

M.X. Rustambayev [5] "jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish – sudlanuvchining jazoning o'talmagan vaqti mobaynida unga sud tomonidan yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi hamda ijtimoiy tartibni saqlash va yangi jinoyatni

sodir etmaslik sharti bilan jazoni o'tashni davom ettirishdan ozod qilishdir", deb tushuntiradi.

Jinoyat qonunchiligiga ko'ra, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanishi mumkin. Shaxs ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ham ozod qilinishi mumkin. Ushbu institutni qo'llash uchun shaxs (mahkum) jazo o'tash uchun belgilangan qoidalarga rioya etib, tartib-qoida talablarini bajarishi va mehnatga nisbatan halol munosabatda bo'lishi talab etiladi. Mehnatga halol munosabat deganda, mahkumlar mehnatga jalb qilinib, o'ziga yuklatilgan mehnat vazifasini va belgilangan normani muttasil, sidqidildan, halol bajarib kelayotganligi uning halol mehnat yo'liga o'tib olganligini ko'rsatuvchi mezon hisoblanib, uni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun taqdim qilishga asos bo'ladi [5]. Mehnatga halol munosabat, birinchi navbatda, mahkumning jazoni o'tash muassasalarida tashkil etilgan mehnat faoliyatida o'z xohishi bilan faol ishtirokida namoyon bo'ladi. Bunday munosabat mahkumning ishlab chiqarishda, qishloq xo'jaligida, xo'jalik ishida, koloniya hududidagi obodonchilik ishida va boshqa turli ijtimoiy foydali ishlarni halol bajarishida ifodalanadi. Mehnatga halol munosabati, shuningdek, mahkumning muayyan bir hunar o'rganishi, o'z malakasini oshirishi, ish tajribalarini boshqalarga o'rgatishi bilan ham yuzaga keladi.

Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holatda xorij olimlari [6] ham jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish xususiyatlarini quyidagicha tasniflaydilar:

- uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilishning og'irligini yengillashtiradi va jazoning muddatini qisqartiradi;
- mahkumni uzoq muddat jamiyatdan ajratib qo'yishga qaraganda mahkumning tuzalishiga erishishning samarali usuli;
- jazodan shartsiz ozod qilishga nisbatan xavfsizroq, chunki shaxs nazorat qiluvchi organlarning kuzatuvi yordamida asta-sekinlik bilan jamiyat hayotiga moslashib boradi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko'ra, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining bir qancha talablari mavjud. Xususan, shaxs tomonidan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan bo'lsa, muddatidan ilgari jazodan shartli ozod bo'lishi uchun sud tomonidan tayinlangan jazoni kamida uchdan bir qismini tegishli tartibda o'tagan bo'lishi lozim. Og'ir jinoyati uchun, shuningdek, ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini, o'ta og'ir jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida to'rttdan uch qismini o'tab bo'lganidan keyin qo'llanishi mumkin. Shu bilan birgalikda, agar shaxs jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan holatida jazoning o'talmay qolgan davriy qismida yangidan qasddan jinoyat sodir etsa va unga nisbatan qonuniy hukm tayinlangan bo'lsa, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod bo'lishi uchun belgilangan jazoning to'rttdan uch qismini o'tashi lozim.



O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 23-martdagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-ijroiya kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni orqali O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga o'zgartirish kiritildi. Unga ko'ra Jinoyat kodeksi 73-modda 3-qismining "b" bandidagi "yarmini" degan so'z "uchdan ikki qismini" degan so'zlar bilan, "v" bandidagi "uchdan ikki" degan so'zlar "to'rtidan uch" degan so'zlar bilan almashtirildi. Bunga mahkumlarning tuzalish jarayoni sekin davom etayotgan bo'lishi, manzil-koloniyalarda jazoni o'tash davrida ayrim mahkumlarning o'rnatilgan tartib-qoidalarini buzgan holda jazoni o'tash muassasasi hududini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi, eng achinarlisi, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga qayta qo'l urishi hollari va jazoni ijro etish muassasalarida o'rnatilgan qat'iy rejimning mahkumlar tomonidan buzilish holatlari sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga [7] ko'ra, 2023-yilda jinoyat ishlari bo'yicha birinchi instansiyasi sudlari tomonidan jami 73 797 ta ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan 58 418 ta jinoiy ish ko'rib chiqilgan. Shaxslarning sudlanganlik holati dinamikasi [8] esa 2021-yilda 45 010 ta, 2022-yilda 56 542 ta, 2023-yilda esa 55 763 tani tashkil etib turibdi.

Ushbu berilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, shuni aytishimiz mumkinki, albatta, kundan kunga raqamlarning ortib borishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 73-moddasi 3-qismiga yuqorida ta'kidlanib o'tilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi qanchalik zarur bo'lganligini ifodalaydi. Chunki jazo qo'llashdan ko'zlangan asosiy tarbiyaviy maqsadga erishmay turib jinoyat sodir etgan shaxslarni jazoning bir qismini o'tab ozodlikka chiqarilishi jamiyatda huquqqa hamda qonunlarga va adolatga nisbatan ishonchning kamayishiga, shu bilan birgalikda, insonlar orasida qayta jinoyat sodir etish holatlarining ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu qatorda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qoidalari qo'llanmaydigan asoslar ham mavjud. Xususan, umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsga, o'ta xavfli retsdivistga, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilari jazodan muddatidan ilgari ozod etilmaydi. Shu bilan birgalikda, javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganlik, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tekkanlik yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxsni jinsiy aloqada bo'lish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilganlik yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik, yoki unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilganlik, voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik, xuddi shuningdek, bunday mahsulotni tayyorlaganlik, tarqatganlik, reklama qilganlik, namoyish etganlik yoxud voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etganlik, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilganlik, fohishaxonalarni tashkil etganlik yoki saqlaganlik, O'zbekiston Respublikasiga,

tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etganlik, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg'in qurollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan material va uskunalarni, kontrabanda qilganlik uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanmaydi.

Shu o'rinda bir savol yuzaga keladi. Nega aynan yuqorida aytib o'tilgan shaxslarga nisbatan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qoidalari qo'llanmaydi? Ushbu savolga tanqidiy yondashadigan bo'lsak, umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etilgan shaxs – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga jiddiy zarar yetkazgan shaxs hisoblanadi va bunday shaxs ongida qonunga itoatkor fikr shakllantirish uchun boshqa jazo turlari tayinlash yetarli hisoblanmaydi. Agar bunday shaxs jazodan muddatidan ilgari ozod qilinsa, jazodan ko'zlangan maqsadlarga erishilmay qolishi mumkin. Keyingisi o'ta xavfli retsidivist hisoblangan shaxs. Nazarimizda o'ta xavfli retsidivist axloqan tuzalishi qiyin bo'lgan subyekt hisoblanadi. Agar o'ta xavfli retsidivistga ham shartli ozod qilish qoidalari qo'llansa, shaxs yana va yana qoidabuzarliklarni davom ettirib, jamiyatga ziyon keltirishi mumkin. Fikrimizcha, jamiyatda tartib qoidalarini yaxshilash, jinoyatlarning oldini olish maqsadida qonun chiqaruvchi jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti uchun yuqorida aytib o'tilgan cheklovlar belgilangan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilishdan ko'zlangan maqsadlardan ya'na biri mahkumlarni tarbiyalash, takroran jinoyatlar sodir etilishining oldini olishdir. Shu bilan birga, mahkum ham axloqan tuzalish yo'liga o'tganligini o'zida namoyon etishi talab etiladi. Mahkumning axloqan tuzalishi deganda, shaxs ongida qonunga itoatkor xulq-atvor hamda atrofdagi insonlarga nisbatan hurmatning shakllanishi, mehnatga, jamiyat turmushi qoidalari va an'alariga bo'lgan ijobiy munosabati tushuniladi. Bunda mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositalari jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi), ijtimoiy-foydali mehnat, tarbiyaviy ish, umumiy va hunar ta'limi, kasb tayyorgarligi va jamoat ta'siri hisoblanadi. Rejim – fransuz tilida *resime*, ingliz tilida *resimen*, boshqaruv degan ma'noni anglatadi. Rejim muayyan maqsadga erishish uchun qo'yiladigan qoidalar, normalar va tadbirlar yig'indisidir. Jazoni ijro etish muassasasida jazo o'tayotgan shaxs tomonidan muassasada o'rnatilgan tartib-qoidalariga vijdonan amal qilinishi, belgilangan jazo muddatlariga rioya etilishi unga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilishga oid qonun normalarini qo'llashiga asos bo'ladi.

Jinoyat qonunchiligiga binoan, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining taqdimnomasiga yoki mahkumning, uning himoyachisining iltimosnomasiga binoan sudya tomonidan qo'llanadi. Mahkum tomonidan belgilangan jazo muddatlari o'tab bo'lingandan keyin jazoni ijro etuvchi muassasa bir oylik muddat ichida shaxsni jazodan muddatidan oldin shartli ozod qilishga oid masalani ko'rib chiqadi, ushbu holat yuzasidan sud organiga taqdimnoma bilan murojaat qiladi. Aytish kerakki, muassasa tomonidan jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish masalasi rad etilishi mumkin. Bunday holatlarda mahkum yoki uning advokati sudga iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin. Chunki jazoni



o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish sud tomonidan amalga oshiriladi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligiga binoan, yuqoridagi masalaga oid taqdimnoma va iltimosnoma sud tomonidan rad etilsa, rad qilishga oid sud qarori chiqqan kundan boshlab 6 oy muddat o'tgandan so'ng sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Bundan ko'rib turibdiki, ushbu muddat mobaynida mahkum o'zida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishi mumkin va axloqan tuzalayotganini namoyon etishi mumkin.

Ushbu huquqiy institut turli xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida ham mavjud. Ammo davlatlarning jinoyat qonunchiligidagi jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish tushunchasining tuzilishi xilma-xil bo'lsa ham, undan ko'zlangan maqsad deyarli o'xshash xususiyatlarga ega.

Xususan, Janubiy Koreya Respublikasining Jinoyat kodeksi 72-moddasiga, ko'ra [9], o'g'ir mehnat yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxs, jazo o'tash qoidalariga to'liq rioya etgan va chin dildan pushaymon bo'lsa, belgilangan jazo muddatining uchdan bir qismini o'taganidan keyin ma'muriy organning tegishli akti bilan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod bo'lishi mumkin. Aytish kerakki, ushbu davlatning jinoyat qonunchiligida jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti umrbod ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Buning uchun shaxs tayinlangan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining yigirma yilini o'tagan bo'lishi lozim. Janubiy Koreya Jinoyat kodeksiga binoan, agar shartli ozod qilingan shaxs tomonidan qasddan jinoyat sodir etilsa, muddatidan ilgari shartli ozod qilish bekor bo'lishiga sabab bo'ladi, biroq ushbu qoida ehtiyotsizlik orqali sodir etiladigan qilmishlar uchun qo'llanmaydi.

Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat kodeksiga binoan [10], ozodlikdan mahrum qilish yoki intizomiy harbiy qismda saqlashga hukm qilingan shaxslar, sud tomonidan jazoni o'tashdan shartli ravishda ozod qilinishi mumkin. Qirg'iziston Respublikasi jinoyat qonunchiligining jazodan shartli ravishda ozod qilish normalari O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi normalari o'rtasida qisman o'xshashliklar mavjud. Masalan, shartli ravishda muddatidan oldin ozod qilish uchun mahkum tuzalish va qayta ijtimoiylashtirishning ijobiy natijalariga erishgan bo'lishi, zarar mavjud bo'lsa, jinoyat tufayli yetkazilgan zararining kamida yarmini qoplagan bo'lishi, jazoni o'tash vaqtida mehnatga va o'qishga vijdonan munosabatda bo'lishi va hokazo shartlar bajarilsagina qo'llanadi. Qirg'iziston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga binoan, jazodan muddatidan oldin shartli ozod qilish mahkum tomonidan uning shaxsiy arizasiga yoki jazoni ijro etish tizimi muassasasi ma'muriyatining taqdimiga binoan jazoni o'tash joyidagi sud tomonidan qo'llanadi. Jazodan muddatidan oldin shartli ozod qilish mahkumlar uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazoning kamida uchdan ikki qismini, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun tayinlangan jazoning kamida to'rttdan uch qismini, jabrlanuvchi bilan mediatsiya doirasida kelishuvga erishganlar – uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun tayinlangan jazoning kamida yarmini, umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanganda kamida yigirma besh yilini o'taganidan keyin qo'llanadi.

Kanadada shartli ravishda ozod qilish tizimi jinoiy huquqiy tizimining muhim jihati bo'lib, jinoyatchilarning jamiyatga qayta integratsiyalashuviga ko'maklashish va jamoat xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan muvozanatni saqlashga qaratilgan institut hisoblanadi. Kanadaning shartli ozod qilish tizimi, birinchi navbatda, 1992-yilgi "Tuzatishlar va shartli ozod qilish to'g'risida"gi Qonun [11] (Corrections and Conditional Release Act, 1992 (CCRA)), shuningdek, Kanada shartli ozod qilish kengashi (the Parole Board of Canada (PBC)) tomonidan o'rnatilgan qoidalar orqali tartibga solinadi.

Kanadada qamoq jazosini o'tayotgan shaxslar jazo turi va o'tagan muddatiga qarab jazodan shartli ravishda ozod qilinishi mumkin. Muvofiqlik mezonlari CCRAda ko'rsatilgan va jinoyatning tabiati, jazo muddati, huquqbuzarning xulq-atvori va reabilitatsiya yo'lidagi muvaffaqiyati kabi omillarni o'z ichiga oladi. Kanadaning shartli ravishda ozod qilish kengashi shartli ozodlikdan mahrum qilish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish uchun mas'ul bo'lgan mustaqil ma'muriy organ hisoblanadi. Kengash sodir etilgan huquqbuzarliklar orqali yuzaga keladigan xavfni baholaydi va ularni mahkumlarni shartli ravishda jamiyatga xavfsiz tarzda qo'yib yuborish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlaydi. Kengash, shuningdek, shartli ozod qilish shartlarini belgilaydi va ularga rioya etilishini ta'minlash uchun shartli ravishda ozod etilgan shaxslarni nazorat qiladi. Kanadada shartli ozod qilishning ikkita asosiy turi mavjud: kunlik shartli ozod qilish va to'liq shartli ozod qilish. Kunduzgi shartli ozodlik shaxsga kunning kech qismida uyga yoki muassasaga qaytib, kunduzi jamoat ishlarida ishtirok etish imkonini beradi. To'liq shartli ravishda ozod qilish shaxslarga jazoning qolgan qismini ma'lum shartlarga rioya qilgan holda nazorat ostida ochiq jamiyatda o'tash imkonini beradi. Agar shartli ravishda ozod etilgan shaxs shartli ravishda ozod qilish shartlarini buzsa, Kengash shartli ozodlikni bekor qilish va huquqbuzarni qamoqqa olish huquqiga ega. Umuman olganda, Kanadadagi shartli ozod qilish tizimi jamoat xavfsizligini ta'minlash, reabilitatsiya qilish va huquqbuzarlarning jamiyatga muvaffaqiyatli qayta integratsiyalashuvida muhim hisoblanadi. Mazkur huquqiy institut javobgarlik va xavflarni boshqarish tamoyillariga asoslanib, huquqbuzarlar, jabrlanuvchilar va jamiyat manfaatlarini muvozanatlashtiradigan faoliyatni qamrab oladi.

Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko'ra [12], jazoni o'tashdan shartli ravishda muddatidan oldin ozod qilish axloq tuzatish ishlari, harbiy xizmatni cheklash, ozodlikni cheklash, intizomiy harbiy qismda saqlash, muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tayotgan shaxsga jazoni o'tash shart emas degan xulosaga kelgan bo'lsa sud tomonidan qo'llanishi mumkin. Bunday holda, shaxs asosiy va qo'shimcha jazodan to'liq yoki qisman ozod qilinishi mumkin. Sud jazoni o'tashdan shartli ravishda muddatidan oldin ozod qilishni qo'llashda mahkumga jazoning o'talmagan qolgan qismi davomida bajarilishi lozim bo'lgan bir qator majburiyatlarni yuklashi mumkin.

Ozarbayjon jinoyat qonunchiligiga binoan, mahkum quyidagi muddatlarda jazoni amalda o'taganidan keyin unga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti qo'llanishi mumkin:

- katta ijtimoiy xavfli bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazoning yarmidan kam bo'lmagan miqdorda;

– og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismi;

– og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to‘rt dan uch qismi.

Ozarbajjon Respublikasi Jinoyat kodeksi 76-moddasiga binoan, agar shaxs ehtiyotsizlik oqibatida yoki qasddan katta jamoat xavfi bo‘lmagan jinoyat sodir etgan bo‘lsa, jazoni o‘tashdan shartli ravishda ozod etishni bekor qilish yoki saqlab qolish to‘g‘risidagi masala sud tomonidan hal qilinadi, agar shaxs qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan bo‘lsa, sud unga nisbatan shartli ravishda jazoni bekor qiladi va tegishli tartibda jazo tayinlaydi.

Yaponiya Jinoyat kodeksining 28-moddasiga ko‘ra [13], majburiy mehnat bilan yoki majburiy mehnatsiz ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsda ijobiy o‘zgarish belgilari aniqlangan va shaxs belgilangan muddatning uchdan bir qismini yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan taqdirda, ushbu jazoning kamida 10 yilini o‘taganidan keyin davlat organining qarori bilan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi mumkin.

Yana bir rivojlangan mamlakatlardan biri – Xitoy davlatining jinoyat qonunchiligiga ko‘ra [14], ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish chog‘ida tavba qilish dalillari mavjud bo‘lsa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining yigirma besh yilini yoki retsidivist uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosining uchdan ikki qismini yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosining yarim qismini o‘taganidan keyin jazoni o‘tashdan muddatidan oldin ozod bo‘lishi mumkin. Muddat qoidalariga rioya etilgandan keyin jazoni ijro etuvchi organ tegishli tartibda Adliya vazirligiga shaxsni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun ariza bilan murojaat qiladi.

Yuqorida keltirilgan misollarga tayangan holda jazo o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tushunchasining mohiyatini va huquqiy tabiatini tushunish mumkin.

Biroq masalaning ikkinchi jihati ham mavjud. Mahkumning tuzalish yo‘liga o‘tganligi va ijobiy xulq-atvori jazoni muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun dastlabki mezon bo‘lib xizmat qiladi. Yuqorida jazoni muddatidan ilgari shartli ozod qilish talablarini jinoyatlarning xavflilik darajasida ko‘ra belgilangan mezonlarini sanab o‘tdik. Albatta, bu yerda mahkum tomonidan o‘talgan jazo muddati ham asosiy ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, tabiiy savol paydo bo‘ladi, jazoning yengillashtirilishi jazodan ko‘zlangan maqsadga qay darajada erishilmoqda? Zero, jinoyat sodir etgan shaxs qilmishidan xulosa chiqarib, uning oqibatlarini tushunib, anglab yetmoqdami?

Xulosalar

Yuqoridagilar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 7-moddasida ta’kidlab o‘tilgan “insonparvarlik prinsipi”ni ta’minlovchi institut bo‘lib xizmat qiladi. Ammo ushbu qonun normalari amalga oshirilishi uchun mahkum tomonidan tegishli qoidalar bajarilishi zarur.

Darhaqiqat, ushbu institutning muddatiga oid qismlariga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar orqali mahkumning tuzalish yo‘liga o‘tishi, huquqqa nisbatan

ijobiy fikr shakllanishi uchun ma'lum bir vaqt va fursat talab etiladi. Shunday ekan, jazoni muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish tushunchasi – jazoni ijro etish muassasalarida belgilangan normalarni vijdonan bajarganligi tufayli jazo o'tayotgan mahkumlarga nisbatan rag'batlantiruvchi mezon bo'lib xizmat qiladi, deb aytishimiz mumkin.

Xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligini tahlil qilish natijasida bir qator davlatlarda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxslarga nisbatan ham jazodan muddatidan oldin shartli ozod qilish normalari qo'llanishini aytib o'tdik. Masalan: Xitoy, Koreya va Ozarbayjon. Biroq O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko'ra, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni istisno qiluvchi holatlar mavjudligini va ushbu normalar umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslarga va o'ta xavfli retsidivist deb topilgan shaxslarga nisbatan qo'llanmasligini yuqorida ta'kidlagan edik.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligiga binoan, jazoning ijro etilishi nazorati tegishli organ va jazoni ijro etuvchi tegishli muassasalar zimmasiga yuklatilgan. Har bir mahkumga ajratilgan oziq-ovqat, mavsumiy kiyim-kechaklar uchun davlat budjetidan mablag' ajratiladi. Shu bilan birgalikda, jazoni ijro etish muassasalarida ma'lum bir o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beriladi yoki mahkumlar ishlab chiqarish faoliyatiga oid bo'lgan kasblarga o'rgatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra [15], 2021-yilda 12 922 nafar, 2022-yilda 17 610 nafar, 2023-yilda esa 17 391 nafar shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlangan. Ushbu raqamlar albatta kichik sonlar emas va ushbu sonlar faqatgina jazoga tortilgan shaxslarnigina emas, balki davlat budjetidan sarflangan ortiqcha xarajatlarni o'zida aks ettiradi.

Agar qonunchiligimizda ham yuqoridagi xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligidagi kabi normalarni shakllantira olsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasi 4-qismi "a" bandida keltirilgan "umrbod ozodlikdan mahrum qilish" jazosiga oid normani dekriminalizatsiya qilish va 73-modda 3-qismi jazodan shartli ozod qilish asoslariga "umrbod ozodlikdan mahrum etish" jazo turining muddatlarini qamrab oluvchi normani kriminalizatsiya qilishimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra [16], 2023-yilda 33 612 nafar shaxs jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan. Qonunchilik talablariga binoan, shaxsni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tegishli tartibda sud tomonidan amalga oshiriladi. Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun shaxsning xulq-atvori, uning butun jazoni o'tash davrida mehnatga va o'qishga nisbatan bo'lgan munosabatini tavsiflovchi ma'lumotlar, uning jazo o'tashi uchun asos bo'lgan hujjatlar nusxalari, jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar to'liq yoki qisman qoplanganligi to'g'risida batafsil ma'lumotlar mavjud yoki mavjud emasligi sud organi tomonidan tekshirilishi lozim. Aytish kerakki, har bir jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish to'g'risida murojaat qilgan shaxsning masalasini hal etish uchun sud organidan alohida muddat va ortiqcha quvvat talab etiladi. Chunki



shaxsning haqiqatda tuzalganligiga, uning chin ko'ngildan pushaymonligiga sudya tomonidan xolisona, har taraflama va to'liq baho berilishi lozim.

Shu kabi masalani hal etish uchun qonunchiligimizga Kanada tajribasini qo'llashimiz lozim. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ushbu davlatda shaxsni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining ishlashini tashkil etish uchun "Kanada shartli ozod qilish kengashi" (the Parole Board of Canada (PBC)) faoliyat olib boradi. Ushbu kengash shaxslarning tuzalish holatlari qay darajada ekanligini, moddiy zararlar qoplanganligini, amalda shaxsni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash borasida faoliyat olib boradi.

Agar jinoiy-huquqiy tizimimizda shunday tuzilma tashkil etilsa, sud organlari faoliyatida yengillik yaratilishi va bu holatlar natijasi ushbu organ faoliyatining yanada yaxshilanishiga olib keladi. Agar har bir ma'muriy hududiy birlikda bittadan shunday kengash tashkil etilsa, ushbu kengash faoliyatini amalga oshirish uchun kuchli ekspertlar, xususan, professional psixologlarni jalb etish mumkin. Natijada jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid huquqiy normalar yanada adolatli, qonuniy qo'llanishiga erishish mumkin.

Umumiy ravishda xulosa qiladigan bo'lsak, muddatidan ilgari shartli ozod qilish – Jinoyat kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan jazolarga hukm qilinib, jazoning qonunda belgilangan qismini amalda o'tagan va talablarni bajargan shaxslarga nisbatan, ularni shartli ozod qilishni istisno qilish uchun asoslar mavjud bo'lmaganda, sudlar tomonidan qo'llanadigan jinoiy-huquqiy rag'batlantirish chorasi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Turg'unboyev E.O. Jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the institution of release from punishment]. Tashkent, 2023, p. 274.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. Shartli ozod qilingan shaxslar statistikasi [Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Statistics of persons released on parole]. 2021. Available at: <https://stat.sud.uz/index.html>
3. Ikramov R., Saparov B., Saparov A. "Avesto"da huquqiy qarashlar [Legal views in the Avesta]. *Academic Research in Educational Sciences*, 2021, vol. 2/5, p. 8.
4. Plyusnin A.M. Opyt uslovno-dosrochnogo osvobozhdeniya osuzhdennykh v zarubezhnykh stranakh (SSHA, Zapadnaya Yevropa, Yaponiya) [Experience of parole of convicts in foreign countries (USA, Western Europe, Japan)]. Kirov, 2008.
5. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi [Criminal Law Course of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018.

6. Newman D.J., Anderson P.R. Introduction to criminal justice. New York, 2019, p. 356.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. Jinoiy ishlarni ko'rib chiqish statistikasi [Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Statistics on the consideration of criminal cases]. 2023. Available at: <https://stat.sud.uz/index.html>
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. Sudlanganlik holati bo'yicha statistik ma'lumot [Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Statistical information on convictions]. Available at: <https://stat.sud.uz/index.html>
9. Criminal code of the Republic of South Korea. Available at: https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=28627&lang=ENG
10. Criminal code of the Kyrgyz Republic. Available at: https://cbd.minjust.gov.kg/112309_
11. Corrections and Conditional Release Act of Canada. Available at: <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/C-44.6/>
12. Criminal Code of the Republic of Azerbaijan Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30420353 (accessed 15.10.2024)
13. Penal Code of Japan. Available at: <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3581/en>
14. Criminal Code of China Available at: <https://law.moj.gov.tw/ENG/LawClass/LawAll.aspx?pcode=C0000001>
15. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlangan shaxslar statistikasi [Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Statistics of persons sentenced to imprisonment]. Available at: <https://stat.sud.uz/index.html>
16. The Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Statistics of parolees. Available at: <https://stat.sud.uz/index.html>



Kelib tushgan / Получено / Received: 14.11.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 22.11.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.4./WAE9212

UDC: [342+338.465.4]:[328.125+35.085](045)(575.1)

DAVLAT XIZMATLARI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH KORRUPSIYA VA BYUROKRATIYAGA TA'SIRCHAN CHORA SIFATIDA

Meliyev Xudoyor Xurramovich,
mustaqil izlanuvchi
ORCID: 0009-0003-9431-0172
e-mail: legaluz15@gmail.com

Annotatsiya. Ma'muriy tartib-taomillar, davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlari, umuman, davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan sohalaridir. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va qabul qilingan qonunchilik hujjatlarida bu omil hisobga olingan. Ya'ni korrupsiya xavfini minimallashtirish, jarayonlarda inson omilini kamaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Maqolada muallif ma'muriy ish yuritishda byurokrtiyani kamaytirish orqali davlat sektorida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari qanday hal qilinayotganini o'rgandi. Tadqiqot davomida bu borada ortiqcha va eskirgan tartib-taomillarni qisqartirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishni soddalashtirish bo'yicha bajarilgan ishlar ko'rib chiqildi. Davlat va aholi, biznes o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qonunlar, davlat xizmatlarini ko'rsatishni yengillashtirgan usullar, natijada tejalayotgan resurslar tahlil qilindi. Xususan, davlat xizmatlarini ko'rsatishga vakolatli organ Adliya vazirligining taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish borasidagi ishlari alohida qayd etildi. Xulosada davlat xizmatlari ko'rsatish sohasini yanada takomillashtirishga oid takliflar berildi.

Kalit so'zlar: davlat xizmatlari, byurokrtiya, korrupsiya, ma'muriy tartib-taomil, eksterritorial tamoyil, onlayn xizmat, kompozit, proaktiv xizmatlar

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ КАК ЭФФЕКТИВНАЯ МЕРА ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ И БЮРОКРАТИИ

Мелиев Худоёр Хуррамович,
самостоятельный соискатель

Аннотация. Административные процедуры, процессы предоставления государственных услуг, отношения между государством и гражданами в целом являются сферами, которые могут привести к коррупции. Этот фактор был учтён в проводимых в Узбекистане реформах по борьбе с коррупцией и принятых законодательных актах. Так, серьёзное внимание уделяется минимизации риска коррупции, снижению человеческого фактора в процессах. В статье автор исследовал решение вопросов борьбы с коррупцией в государственном секторе за счёт сокращения бюрократии в административном делопроизводстве. В ходе исследования была рассмотрена проделанная в этом направлении работа по сокращению избыточных и устаревших процедур, упрощению предоставления государственных услуг. Были проанализированы принятые законы, регулирующие отношения между государством и населением, бизнесом, способы, упрощающие предоставление государственных услуг и в итоге экономящие ресурсы. В частности, была отмечена работа Министерства юстиции, органа, уполномоченного на предоставление государственных услуг, по повышению качества предоставляемых услуг. В заключение были даны предложения по дальнейшему совершенствованию сферы государственных услуг.

Ключевые слова: государственные услуги, бюрократия, коррупция, административные процедуры, экстерриториальный принцип, онлайн-сервис, составные, проактивные услуги

DEVELOPMENT OF THE PUBLIC SERVICES SYSTEM AS AN EFFECTIVE MEASURE TO CORRUPTION AND BUREAUCRACY

Meliyev Khudoyor Khurramovich,
Independent researcher

Abstract. Administrative procedures, the process of providing public services, and relations between the state and citizens in general are areas that can lead to corruption. This factor is taken into account in the reforms being implemented in Uzbekistan to combat corruption and in the legislative acts adopted. In other words, serious attention is paid to minimizing the risk of corruption and reducing the human factor in processes. In the article, the author studied how the issues of combating corruption in the public sector are being addressed by reducing bureaucracy in administrative proceedings. During the study, the work done in this regard to reduce unnecessary and outdated procedures and simplify the provision of public services was considered. The laws adopted to regulate relations between the state and the population, business, and methods that facilitated the provision of public services, as a result of which the saved resources were analyzed. In particular, the work of the Ministry of Justice, the body authorized to provide public services, to improve the quality of services provided, was noted. In the conclusion, proposals were made to further improve the provision of public services.

Keywords: public services, bureaucracy, corruption, administrative procedures, extraterritorial principle, online service, composite, proactive services



Kirish

Jahon bankining tadqiqotiga ko'ra, O'zbekistonda yirik korxonalar rahbarlari vaqtining 31 foizi, kichik korxonalar rahbarlari vaqtining 26 foizi byurokratik masalalarni hal qilish, davlat organlari hamda hokimliklar bilan munosabatlarga kirishish uchun sarflanayotgani qayd etilgan edi [1]. Vaholanki, ushbu vaqt samaraliroq tarzda, masalan, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, ish samaradorligini oshirish va korxonalar tushumlarini oshirish masalalarini hal etishga sarflanishi mumkin edi.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, dunyo bo'yicha byurokratik qoidalarga rioya etishga sarflanadigan xarajatlar jahon YIMning 17–20 foizini tashkil etadi. Bu miqdor, xususan, AQSHda YIMning 17 foizi, ya'ni 3 trln dollarga teng.

Ma'muriy tartib-taomillar, davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlari, umuman davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar potensial korrupsiyani keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sohalar hisoblanadi. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha islohotlar va qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarida ushbu omil hisobga olinmoqda, ya'ni korrupsiyaviy risklarni minimallashtirish, inson omilini kamaytirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 22-moddasida qonuniylik va adolatlilik prinsiplarini ta'minlash, ma'muriy-boshqaruv jarayonining beg'arazligi kafolatlarini yaratish, ushbu jarayonning shaffofligi, tashqi va ichki nazorat uchun ochiqqligini oshirish; o'z ixtiyoricha harakat qilish vakolatlarini cheklagan holda, ma'muriy tartib-taomillarni batafsil tartibga solish, byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik; soddalashtirilgan ma'muriy tartib-taomillarni joriy etish; davlat organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilish va yetkazilgan zarar o'rnini qoplashning samarali mexanizmlarini belgilash kabilar ma'muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar sifatida belgilangan.

Material va metodlar

Maqolada aynan byurokratiya va korrupsiyaga qarshi chora sifatida rivojlantirilayotgan davlat xizmatlari tizimi faoliyati o'rganildi, bu sohada amaldagi qonunchilik normalari asosida yaratilayotgan yengilliklar tahlil qilindi. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Umumlashtirilgan fikrlar asosida takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari

Byurokratiyaning oldini olish, ortiqcha va eskirgan tartib-taomillarni qisqartirish, davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish bo'yicha qilingan ishlarni quyidagi fakt va raqamlarda ko'rish mumkin.

1. Davlat va aholi, biznes o'rtasidagi ma'muriy munosabatlarni tartibga soluvchi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bilan ma'muriy-huquqiy faoliyatda amal qiladigan muhim prinsiplar, jumladan, ma'muriy tartib-taomillarning ochiqqligi, shaffofligi va tushunarliqligi, byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi, ma'muriy ish yuritishning "bir darcha" orqali amalga oshirilishi, ishonchning himoya qilinishi singari prinsiplar belgilandi. Misol

uchun, byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi prinsipiga ko'ra, davlat tashkilotlariga aholi va tadbirkorlar bilan munosabatlarda ularga majburiyatlar orqali qiyinchilik tug'dirish, faqat rasmiy qoidalar va talablarga rioya etilishi maqsadidagina ularga huquqlar berishni rad etish yoki ularning huquqlarini boshqacha tarzda cheklash taqiqlanadi. Qonunni o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, byurokrtiyaga qarshi qonun deyishimiz mumkin.

2. O'ta byurokratik soha hisoblangan litsenziyalash, ruxsat berish tizimi butunlay isloh qilindi. Ushbu sohadagi islohot natijasida:

a) litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirishga oid "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonun va 2020-yil 24-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Qonun bilan ma'nan eskirgan va tarqoq holdagi amaldagi qonunchilik hujjatlari unifikatsiya qilindi va bu sohadagi mavjud barcha qonun va qonunosti hujjatlari bekor qilindi. Xususan, ushbu sohaga oid 2 ta qonun, Oliy Majlisning 2 ta qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta qarori, 100 ga yaqin hukumat qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb topildi.

b) litsenziyalar va ruxsat berish hujjatlari *50 foizgacha qisqartirildi*. Xususan, 160 turdagi litsenziya va ruxsatnomalar *bekor qilindi* hamda tartibga solishning muqobil usuliga o'tkazildi. Natijada qonun *bilan 58 ta litsenziya, 124 ta ruxsat berish hujjati* hamda *39 ta xabarnomaning* yakuniy ro'yxatlari tasdiqlandi;

d) shu kungacha mavjud bo'lmagan vakolatli organni xabardor etish orqali faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq mutlaqo yangi soddalashtirilgan mexanizm joriy etildi;

e) litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari "Litsenziya" axborot tizimi (*license.gov.uz*) orqali amalga oshiriladigan bo'ldi. Litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish bo'yicha murojaatlar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalangan holda, internet tarmog'i yoki maxsus mobil ilova orqali qabul qilinishi yo'lga qo'yildi. Bunda boshqa vakolatli organlardan qo'shimcha hujjatlar olish yoki ular bilan kelishish asosiy vakolatli organ tomonidan tadbirkorlik subyekting ishtirokisiz "Litsenziya" axborot tizimi orqali mustaqil ravishda, shu jumladan, javob berishni talab etmaydigan, to'g'ridan to'g'ri ma'lumot olishga imkon beruvchi integratsiyalashgan platformaga ulanish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu tizim orqali hozirga qadar 500 mingdan ortiq ruxsat beruvchi hujjatlar, jumladan, elektron litsenziyalar, ruxsatnomalar va xabarnomalar shakllantirilgan.

3. Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimi sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi. Davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida ularning sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini tubdan oshirish orqali "*Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak*" g'oyasini so'zsiz amalga oshirish ustuvor yo'nalish etib belgilandi. 2018-yilda respublikaning 208 ta tuman va shaharlarida davlat xizmatlari markazlari tashkil etildi. "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyiliga ko'ra, davlat xizmatlari ko'rsatish mexanizmi joriy qilindi.



Tadqiqot natijalari tahlili

1. Davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatilayotgan xizmat turlari 2018-yilda 37 tani tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 394 tani tashkil qilmoqda [2].

2. Har kuni o'rtacha 95-100 ming fuqaro Davlat xizmatlari markazlariga tashrif buyurib, xizmatlardan foydalanmoqda.

Hozirga qadar 70 milliondan ortiq davlat xizmatlari DXMlar tomonidan ko'rsatildi. 2023-yil davomida ko'rsatilgan xizmatlar esa 13,2 milliondan ortiqni tashkil etgan. Davlat xizmatlari ko'rsatishda talab etiladigan hujjatlar soni 255 tadan 129 taga (51 foizga) qisqartirildi.

3. Olis va chekka hududda yashovchi fuqarolarimizga yengillik yaratish, ularning vaqtini tejash maqsadida sayyor davlat xizmatlari ko'rsatilishi yo'lga qo'yilgan. Birgina 2023-yil davomida 800 mingga yaqin sayyor xizmatlar ko'rsatildi.

4. 2019-yildan davlat xizmatlari markazlari orqali barcha xizmatlarni "eksterritorial" tamoyil asosida ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Bu aholiga nima beradi? Bu tamoyil asosida ishlash aholiga davlat xizmatlari doimiy ro'yxatdan o'tgan joyidan (propiskaga) yoki yashash joyidan qat'i nazar ko'rsatilishini anglatadi. Ya'ni aholi va tadbirkorlar mamlakatning istalgan hududida, o'zlariga qulay joydagi davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilib, undan foydalanishi mumkin bo'ladi.

5. Biz bugungi kunda elektron hukumat tushunchasidan ko'ra, ko'proq raqamli hukumat haqida gapira boshladik. Zarur huquqiy baza, infratuzilma shakllantirilmogda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" Davlat dasturi qabul qilingan.

Bunda aholini davlat xizmatlaridan onlayn foydalanishga o'rgatish va ularning ko'nikmalarini oshirish muhim. Shu bois aholi va tadbirkorlik subyektlarining elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va bunda ularning madaniyatini oshirish maqsadida DXMlarda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish burchaklari tashkil etildi.

DXMlarda yaratilgan bu kabi qulayliklar davlat xizmatlarini onlayn tarzda olish darajasining ortishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Xususan, fuqarolar tomonidan onlayn tarzda foydalanilgan davlat xizmatlari 2021-yilda 8,4 milliontani, 2022-yilda 11,8 milliontani hamda 2023-yil davomida 15 milliondan ortiqni tashkil etgan.

6. Davlat idoralari tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonida byurokratiya va qog'ozbozlikni qisqartirish maqsadida aholidan 120 turdagi hujjat va ma'lumotnomalarning talab qilinishi bekor qilindi, 400 dan ortiq tartib-taomillar soddalashtirildi. Buning natijasida yiliga o'rtacha 20 milliondan ortiq aholi ortiqcha qog'ozbozlikdan ozod bo'ldi, idorama-idora sarson bo'lib yurishining oldi olindi va odamlarning birgina tashkilotga borib kelishi bilan bog'liq 300 mlrd so'mdan ortiq miqdordagi mablag'lari tejaldi [3].

7. Aholi ortiqcha ovora bo'lishining oldini olish hamda idorama-idora sarson bo'lib yurishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida xizmatlarni kompleks tarzda ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Bu fuqaroning bitta so'rovi asosida o'zaro bog'liq davlat xizmatlarini kompozit shaklda, ya'ni bir paytda taqdim etishdir.

Xususan, FHDY bo'limi tomonidan tug'ilganlikni qayd etish jarayonida:

- poliklinikaga hisobga qo'yish;
- bir martalik nafaqa pulini olish uchun ariza yuborish;
- bolani ota-onasi doimiy ro'yxatda turgan manzil bo'yicha ro'yxatga qo'yish;
- bolani davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga navbatga qo'yish xizmatlari *bir vaqtda* amalga oshiriladi.

Bu bilan 15 dan ortiq hujjatlar qisqartirildi.

Mamlakatimizda bir oyda o'rtacha 70 mingdan ortiq tug'ilish qayd etilayotgan bo'lib, ushbu xizmatning kompozit usulida ko'rsatilishi natijasida aholining yana 4 ta idoraga 280 ming marotaba o'vora bo'lib borishiga chek qo'yildi.

8. Davlat tashkilotlarining o'z tashabbusi bilan fuqarolarga muayyan vaziyatda kerakli xizmatdan foydalanishni taklif qilishini nazarda tutuvchi proaktiv davlat xizmatlari ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi. Misol uchun, 2022-yilning noyabr oyidan boshlab 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar va immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka chalingan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga to'lanadigan nafaqalar hamda parvarishlash nafaqasini fuqarolardan qo'shimcha hujjatlarni talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tizimi joriy etildi.

Bu borada soha mutaxassislardan biri – estoniyalik Marten Kayevatsning "Eng yaxshi xizmat hatto uni olganingizni bilmay qoladigan xizmatdir" [4], degan fikriga qo'shilamiz.

9. Ma'lumki, situatsion markazlar strategik boshqaruvda vaziyatli yondashuvni amalga oshirishning eng samarali vositalaridan biridir. Har kuni DXM va FHDYlarga 300 dan 1500 gacha murojaatchi tashrif buyuradi. Ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va tezkorligini monitoring qilib borish, muammolarni o'z vaqtida aniqlash maqsadida Adliya vazirligida Situatsion markaz tashkil etilgan [5].

Situatsion markazning integratsiyalashgan markazlashtirilgan ombori turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtiradi va menejmentni qiziqtiradigan vaziyatni bilishga ko'mak beradigan raqamlar, ma'lumotlar vizual va interaktiv panellarda namoyish etiladi, taqdim etilayotgan xizmatlarning masofaviy monitoringi, prognozi va tahlilini avtomatlashtirishga hissa qo'shadi. Ayni paytda ushbu markaz orqali xodimlar faoliyati samaradorligi, axloq qoidalariga rioya etilayotganligiga baho berib boriladi.

Bu dinamik rivojlanayotgan vaziyatlarni izchil, har tomonlama tahlil qilish asosida uning dinamikasini belgilaydigan asosiy muammolar va masalalarni aniqlash, uning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qarorlarni qabul qilish imkonini beradi.

10. O'zbekistonda davlat xizmatlari ko'rsatishga vakolatli organ – Adliya vazirligining ISO 27001, 37001 va 90001 xalqaro setrifikatlariga ega ekanligi [6], o'z navbatida, xizmatlar sifatiga ham ijobiy ta'sir etyapti, deyish mumkin. Adliya vazirligi tomonidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda doimiy ravishda fuqarolarning davlat xizmatlaridan qoniqish darajasi o'rganib borilmoqda.

Yevropa Ittifoqi hamda BMT Taraqqiyot dasturi loyihasi doirasida "PricewaterhouseCoopers" xalqaro kompaniyalar tarmog'i tomonidan Davlat xizmatlari markazlariga tashrif buyuruvchilar o'rtasida anonim so'rov o'tkazilgan.



So'rovnoma natijasiga ko'ra, fuqarolarning 90 foizi ko'rsatilayotgan xizmatlardan qoniqish hosil qilib, markaz xodimlari faoliyatini a'lo baholagan.

Shuni aytish kerakki, barcha DXMLar, davlat xizmatlari ko'rsatuvchi platformalarda Adliya vaziriligining korrupsiyaga qarshi kurash bo'limining ishonch telefonlari haqida ma'lumotlar, aholini korrupsiyaga qarshi kurashishga chorlovchi ma'lumotlar mavjud.

Xulosalar

Yuqorida qayd etilgan barcha ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda byurokratiyaga qarshi kurash, davlat xizmatlarini rivojlantirish choralari korrupsiyaning oldini olishda samarali va keng ko'lamli ijobiy ta'sirini namoyon etmoqda. Sohadagi islohotlarni jadal davom ettirish maqsadida ushbu ishlarga qo'shimcha ravishda quyidagi takliflarni berish mumkin:

1) aholini onlayn xizmatlardan foydalanishga o'rgatish bo'yicha strategiya ishlab chiqish;

2) ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarini proaktiv va kompozit shaklga o'tkazish bo'yicha inventarizatsiyadan o'tkazish va natijasiga ko'ra, ularning kamida 30 foizini shunday shakllarga o'tkazish bo'yicha dastur ishlab chiqish;

3) ko'rsatilayotgan xizmatlar, jumladan, *"back office"* faoliyatiga baho berish imkoniyatini qamrab oluvchi kompleks *"feedback"* tizimini ishga tushirish. Ushbu takliflar davlat va aholi munosabatlarida yanada yengillik yaratish, raqamli davrda aynan onlayn xizmatlardan foydalanish borasida savodxonlikni oshirishga hissa qo'shadi, degan umiddamiz.

REFERENCES

1. Uzbekistan Toward A New Economy. Country Economic Update Summer 2019. Available at: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/866501562572675697/pdf/Uzbekistan-Toward-a-New-Economy-Country-Economic-Update.pdf>

2. Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sonining 2017–2023-yillar kesimida o'sish diagrammasi [Growth chart of the number of public services provided by public service centers in 2017–2023]. Available at: <https://adliya.uz/uzb/posts/davlat-xizmatlari-markazlari-tomonidan-korsat-pzlw>

3. O'zgargan munosabatlar va xizmatlar jamiyatimizning yangi qiyofasini ochib beradi. Yangi O'zbekiston, 2023-yil 14 fevral, 30-son [Changed relationships and services reveal a new face of our society. New Uzbekistan, February 14, 2023, Issue 30].

4. Rohaidi N. Interview with National Digital Advisor Marten Kaevats. Exclusive: Estonia's vision for an invisible government. Available at: <https://govinsider.asia/intl-en/article/marten-kaevats-national-digital-advisor-estonias-vision-for-an-invisible-government>

5. A situational center has been established to monitor the provision of public services online. Available at: <https://old.adliya.uz/uz/press-center/news/104483/?print=Y>

6. The Uzarkhiv agency under the Ministry of Justice has received the international certificate for the ISO 9001:2015 quality standard and the international certificate for the fight against corruption ISO 37001:2016. Available at: <https://adliya.uz/posts/adliya-vazirligi-huzuridagi-o%CA%BBzarxiv-agentligi-iso>

7. Meliev H. The Necessity of Restricting the Participation of Public Officials in Entrepreneurial Activity for the Purposes of Counteracting Corruption. JIPHR, 2024, Jun. 28, vol. 3 (6), pp. 130-134. Available from: <https://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/3077>

8. Meliyev X.X. Korruptsiyaviy jinoyatchilikka imkon bergan shartsharoitlar [Conditions that enabled the corruption crime]. Jurist Newsletter, 2024, vol. 4, no. 4, 144-147. DOI: 10.26739/2181-9416

9. Meliev Kh.Kh. Korruptsiyaviy jinoyatchilikning sabablari, aholi huquqiy ongi va madaniyati darajasining korruptsiyaviy muhitga ta'siri [Causes of corruption crimes, the impact of the level of legal awareness and culture of the population on the corruption environment]. Proceedings of the Republican Scientific and Practical Conference "Young Scientists", 2024, vol. 8 (17), pp. 118-121. DOI: 10.5281/zenodo.134441911

10. Meliyev X.X. Korruptsiya unga qarshi kurashda xorijiy mamlakatlar tajribasi [Experience of foreign countries in the fight against corruption]. Right and Duty, 2017, no. 3, pp. 24-26.

11. Public Service history. Te Kawa Mataaho Public Service Commission. Available at: <https://www.publicservice.govt.nz/role-and-purpose/public-service-history>.

12. Wilson R., et al. New development: Relational public services — reform and research agenda. Public Money & Management, 2024, vol. 44 (6), pp. 553–558. DOI: 10.1080/09540962.2024.2344902

13. Bartels K. & Turnbull N. Relational public administration: A synthesis and heuristic classification of relational approaches. Public Management Review, 2020, vol. 22 (9), pp. 1324–1346. DOI: 10.1080/14719037.2019.1632921

14. Ionescu L., Lăzăroiu G., Iosif G. Corruption and bureaucracy in public services. *Amfiteatru Economic Journal*, The Bucharest University of Economic Studies, Bucharest, 2012, vol. 14, iss. special no. 6, pp. 665-679. Available at: <https://www.econstor.eu/bitstream/10419/168767/1/aej-v14-sn6-p665.pdf>

15. Mugellini G., Della Bella S., Colagrossi M., Isenring G.L., Killias M. Public sector reforms and their impact on the level of corruption: A systematic review. *Campbell Systematic Reviews*, 2021, vol. 17 (2), p. 1173. DOI: 10.1002/cl2.1173

Kelib tushgan / Получено / Received: 14.11.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 03.12.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.4./ETHT7265
UDC: 328.185(045)(575.1)

KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIK HAQIDA XABAR BERGAN SHAXSLARNING HUQUQLARINI BELGILASH ISTIQBOLLARI

Majidov Shahzod Abdixalil o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi tayanch doktoranti
ORCID: 0000-0002-0583-2266
e-mail: shohzod.majidov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023–2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi 3-bandida korrupsiyaga oid xabarlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish yuzasidan belgilangan chora-tadbirlardan kelib chiqib, korrupsiyaga oid xabarlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish yuzasidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarning asosiy, jumladan, xabar bergan shaxslarning himoya qiluvchi vakolatli davlat organlaridan shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlashni talab qilish, qo'llangan xavfsizlik choralarining qo'llanish tartibi va ularning xususiyati haqida ma'lumot olish, oshkor qilingan ma'lumot manbasi sir saqlanishini talab qilish, yaqin qarindoshlariga nisbatan himoya choralarini qo'llash yuzasidan murojaat qilish singari huquqlarini belgilash va ularni ro'yobga chiqarish istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarga birlamchi beg'araz yuridik yordam hamda bepul psixologik yordam ko'rsatish, xabar berganlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish maqsadida davlat boji to'lamasdan sudga murojaat qilishda davlat kafolatini taqdim etish yo'nalishlari xorijiy davlatlar qonunchiligida mazkur tajribaning normalarda mustahkamlanishi hamda qo'llanishi kabi masalalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: xabar bergan shaxslar, korrupsiyaga qarshi kurashish, yuridik yordam, psixologik ko'mak, davlat kafolati, ma'naviy zarar, murojaat, shaxsiy xavfsizlik

ПЕРСПЕКТИВЫ УСТАНОВЛЕНИЯ ПРАВ ЛИЦ, СООБЩИВШИХ О КОРРУПЦИОННЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЯХ

Мажидов Шахзод Абдихалил угли,
базовый докторант Правоохранительной академии
Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье проанализированы перспективы установления и реализации прав лиц, сообщивших о коррупционных нарушениях, в том числе требующих от уполномоченных государственных органов защиты и обеспечения их личной и имущественной безопасности, предоставления информации о порядке применения и характере мер безопасности, сохранения в тайне источника полученной информации, применения мер защиты к близким родственникам, исходя из мер, установленных пунктом 3 Государственной программы по противодействию коррупции на 2023–2024 годы, по совершенствованию системы обработки сообщений, касающихся коррупции, утверждённой Указом Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы противодействия коррупции и повышению эффективности системы общественного контроля за деятельностью государственных органов и организаций» от 27 ноября 2023 года № УП–200. Кроме того, в статье рассматриваются такие вопросы, как закрепление и применение в законодательстве иностранных государств норм в области оказания первичной безвозмездной юридической помощи и бесплатной психологической помощи лицам, сообщившим о коррупционных правонарушениях, предоставления государственных гарантий при обращении в суд без уплаты государственной пошлины с целью взыскания причинённого им материального и морального вреда.

Ключевые слова: сообщившие лица, противодействие коррупции, юридическая помощь, психологическая поддержка, государственная гарантия, моральный ущерб, апелляция, личная безопасность

PROSPECTS FOR ESTABLISHING THE RIGHTS OF PERSONS WHO HAVE REPORTED CORRUPTION OFFENSES

Majidov Shahzod Abdikhalil ugli,
Basic doctoral student of the Law Enforcement
Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the prospects of establishing and implementing the rights of individuals who report corruption violations, based on the measures outlined in paragraph 3 of the State Program for 2023–2024 on combating corruption, which was approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, No. PD-200, dated November 27, 2023, titled “On measures to further improve the system of combating corruption and enhance the effectiveness of public oversight over the



activities of state bodies and organizations.” The article discusses measures aimed at improving the system for handling corruption-related reports, particularly focusing on the rights of whistleblowers. These include the right to demand the protection of their personal and property security by competent state bodies, obtaining information about the procedures and specifics of security measures, requesting the confidentiality of the source of disclosed information, and applying protective measures to close relatives. The article also examines issues such as the provision of primary legal assistance and free psychological assistance to individuals who have reported corruption offenses, the provision of state guarantees when applying to the court without paying a state duty in order to recover material and moral damage caused by reporting, and the strengthening and application of this experience in the norms of the legislation of foreign countries.

Keywords: reporting persons, anti-corruption, legal assistance, psychological support, state guarantee, moral harm, appeal, personal safety

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023–2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturining 3-bandida korrupsiya to‘g‘risida xabar beruvchilarning (keyingi o‘rinlarda xabar beruvchi shaxslar deb yuritiladi) huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Ushbu chora-tadbirdan kelib chiqqan holda, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni fosh etishda xabar qilgan shaxslarning huquqlarini huquqiy jihatdan himoya qilish, shuningdek, xabar qilgan shaxslarni korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni himoya qilishning mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Joriy yilning 2024-yil 15-noyabr kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi hamda Koreya Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurash va fuqarolik huquqlari bo‘yicha komissiyasi hamkorligida “O‘zbekistonda korrupsiya holatlari haqida xabar berishning samarali mexanizmini yaratish” loyihasi doirasida korrupsiya haqida xabar beruvchilarni himoya qilish masalalari muhokama qilingan. Ushbu loyiha doirasida mamlakatimizda respondentlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 74 foizi korrupsiya holatlari haqida xabar berishga va 82,2 foizi elektron platforma yoki mobil ilova orqali xabar berishga tayyorligini bildirgan bo‘lsa-da, “*Nima sababdan korrupsiya haqida xabar bermaysiz?*” degan savolga 48,6 foiz respondent xabar berish ortidan sodir bo‘ladigan salbiy holatlardan cho‘chishini aytib izohlagan [1].

Shu sababli xabar berish tizimida xabar beruvchi shaxslar ongida xabar qilishga bo'lgan xavfsizlik va ishonch bilan oldinga chiqishni ta'minlash, ularni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish hamda ularning huquqlarini ishlab chiqish muhimdir. Mazkur huquqlar ta'minlanmasligi xabar qilgan shaxslarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchi pasayishiga, natijada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar qilish darajasi tushib ketishiga sabab bo'ladi. Shu sababli xabar beruvchi shaxslar huquqlarini belgilash orqali ularning xabar berishga bo'lgan ishonchini oshirish mumkin.

Xabar beruvchi shaxslar huquqlari sifatida ularga nisbatan birlamchi bepul yuridik hamda psixologik yordam taqdim etish dolzarbligi yuzasidan huquqshunos olimlar tomonidan ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bir qator ilmiy-nazariy xulosalar taqdim etilgan. Jumladan, Dr. Tanya M. Marcum, Jacob Young [2], Nick Thorpe [3], Mia Barnes [4] singari olimlar tomonidan xabar beruvchi shaxslarga psixologik ko'mak ko'rsatishning nazariy jihatlarini bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Material va metodlar

Tadqiqot davomida quyidagi masalalar tahlil qilindi: xabar beruvchi shaxslarning shaxsiga doir ma'lumotlari bilan ishlash, ularning davlat organlari qarorlari, mansabdor shaxslar harakatlari (harakatsizligi) va mehnat qonunchiligi buzilishi ustidan shikoyat qilish huquqini to'laqonli ta'minlash, ularning asosiy huquqlari sifatida xabar berganlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish maqsadida davlat boji to'lamasdan sudga murojaat qilish, xabar beruvchi shaxslarga nisbatan birlamchi bepul yuridik yordam berish tizimini joriy etish, shuningdek, ularga beg'araz psixologik yordam ko'rsatishning o'ziga xos jihatlarini, shuningdek, Ukraina, Sloveniya, Tunis, Koreya, GFR, JAR, AQSh, Niderlandiya, Avstraliya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda ushbu tajribaning normalarda mustahkamlanishi hamda qo'llanishi kabi masalalar o'rganildi.

Yuqorida sharhlanayotgan masalalar yuzasidan muallif pozitsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar qiluvchi shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasida xabar beruvchi shaxslar huquqlarini belgilash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan O'RQ-419-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 28-moddasiga ko'ra, xabar beruvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etishi hamda faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va shaxsning o'zining, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organ rahbarining yozma ruxsati asosida oshkor etilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar beruvchi shaxslarning hamda ularning yaqin qarindoshlarining hayotiga va sog'lig'iga haqiqiy tahdidni, ularga nisbatan zo'rlik ishlatilganini, ularning mol-mulki yo'q qilinganini yoki shikastlantirilganini tasdiqlovchi yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda korrupsiyaga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi organlar ularni himoya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rishi shartligi belgilangan.



Demak, xabar beruvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat sirini tashkil qiladi va oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Biroq xabar beruvchi shaxslar shaxsiga doir ma'lumotlar oshkor bo'lishi ularga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan ularning hayoti, sog'lig'iga nisbatan tazyiq, ta'qib va zo'ravonlik holatlari sodir etilishiga olib kelishi mumkin. Shu tufayli xabar beruvchi shaxslar huquqlari sifatida himoya qiluvchi vakolatli davlat organlaridan shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlashni talab qilish hamda himoya choralari qo'llash yoki ularni bekor qilish to'g'risida ariza bilan murojaat etish huquqini belgilash lozim. Masalan, xorij tajribasidan Tunis Respublikasining "Xabar beruvchi shaxslarning himoyasi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, xabar bergan shaxslarda xabar berganliklari orqali o'z shaxsiy xavfsizligini ta'minlash yuzasidan vakolatli organlarga to'g'ridan to'g'ri murojaat (og'zaki, yozma va elektron tarzda) qilish huquqi mavjudligi belgilangan [5]. Xabar beruvchi shaxslar tomonidan vakolatli davlat organlariga shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlashni talab qilish natijasida ularga nisbatan qo'llangan xavfsizlik choralari qo'llanish tartibi va ularning xususiyati haqida ma'lumot olishni ta'minlash lozim.

Ma'lumki, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun 28-moddasi ikkinchi qismida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etishi hamda faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va shaxsning o'zining, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organ rahbarining yozma ruxsati asosida oshkor etilishi belgilangan. Biroq xabar beruvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar qonunda nazarda tutilgan hollarda oshkor etilishi belgilangan bo'lsa-da qaysi holatlar ekanligi amaldagi qonunchilikda ko'rsatilmagan. Bu esa, o'z navbatida, xabar beruvchi shaxslarning shaxsiga doir ma'lumotlarni vakolatli davlat organlari tomonidan sir saqlash majburiyatini ayrim holatlarda so'roq ostida qoldirishi mumkin. Xalqaro standartlarda belgilangan qoidalardan kelib chiqqan holda xabar beruvchi shaxslarning xabar qilingan yoki oshkor qilingan ma'lumot manbasi va xabar beruvchi shaxsning shaxsiga doir manbalar oshkor etilmasligi xabar beruvchi shaxslar xavfsizligini ta'minlashning eng muhim omili hisoblanadi.

Jumladan, Yevropa Ittifoqining Xabar bergan shaxslarni himoya qilish to'g'risidagi direktivasida (EU 2019) korrupsiyaga oid jinoyat ishini tergov qilish jarayonida xabar beruvchi shaxsning shaxsiga doir ma'lumotlar maxfiylikni himoya qilish xabar beruvchi shaxslarni himoya qilishning muhim chorasi hisoblanadi. Faqatgina xabar beruvchi shaxsning shaxsiga doir ma'lumotlari ularning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan tergov organlari tomonidan milliy qonunchilikda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lsagina, oshkor etilishiga yo'l qo'yilishi nazarda tutilgan [6]. Shu sababli amaldagi qonunchilikda xabar beruvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor qilinishining aniq asoslarini ishlab chiqish hamda xabar bergan shaxs xabar qilingan yoki oshkor qilingan ma'lumot manbasi sir saqlanishini talab qilish huquqiga ega ekanligini belgilash lozim.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun 28-moddasi birinchi qismida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar beruvchi shaxslar va

ularning yaqin qarindoshlari davlat himoyasida bo'lishi qayd etilgan. Xabar beruvchi shaxslarga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan ularning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga xavf-xatar solinganida yoki ularga nisbatan tazyiq, zo'ravonlik hamda ta'qib nafaqat xabar beruvchi shaxslarga nisbatan, balki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan ham real xavfni yuzaga keltirishi mumkin.

Amaldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda xabar qilgan shaxslarning yaqin qarindoshlari ularga nisbatan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar qilgan shaxs natijasida o'zining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga nisbatan real xavf vujudga kelganida to'g'ridan to'g'ri himoya qiluvchi davlat organiga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi nazarda tutilmagan. Shu sababli xabar beruvchi shaxsning asosiy huquqi sifatida yaqin qarindoshlariga nisbatan himoya choralari qo'llashni talab qilish bilan bog'liq murojaat etish huquqini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari tahlili

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xabar beruvchi shaxsning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishga oid huquqlari, majburiyatlari va boshqa holatlar yuzasidan ularning xabardorligini oshirish, ularga huquqiy yordam ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Yevropa Ittifoqining Xabar bergan shaxslarni himoya qilish to'g'risidagi direktivasi (EU 2019) 20-moddasida har bir davlat o'z milliy qonunchiligida xabar bergan shaxslarga bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimini belgilashga haqli ekanligi nazarda tutilgan. Biroq O'zbekistonda xabar bergan shaxslarga yuridik yordam ko'rsatishning huquqiy asoslari va qaysi vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutilmagan. Xorij tajribasiga ko'ra, Koreya Respublikasining Korrupsiyaga qarshi va fuqarolik huquqlari bo'yicha komissiyasi Koreya Advokatlar assotsiatsiyasidan xabar qilgan shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha bepul yuridik yordam berishni talab qilishi mumkinligi [7], Niderlandiyada esa hukumat to'g'ridan to'g'ri xabar beruvchilarga huquqiy maslahat berishga ixtisoslashgan yuridik maslahat markaziga (Advice Centre for Whistleblowers) imkon va resurslarni taqdim etganligini ko'rish mumkin [8]. Maslahat markazi Ichki ishlar vazirligi hamda Ijtimoiy va bandlik vazirligi tomonidan tashkil etilgan va moliyalashtirilgan bo'lib, biroq ulardan mustaqil tarzda faoliyat yuritadi. Markaz tarkibiga xususiy sektor, davlat sektori va kasaba uyushmalarining vakili bo'lgan uch kishilik qo'mita va kichik xodimlar, shu jumladan, direktor, uchta katta yuridik maslahatchi, aloqa bo'yicha maslahatchi, ofis kotibi va ma'muriy yordamchi kiradi.

Bugungi kunda bir qator davlatlarning fuqarolik jamiyati institutlari ham xabar beruvchilarga huquqiy maslahat va ko'mak berib kelmoqda. Jumladan, xodimlarning kasaba uyushmalari, AQShning Hukumatning hisobdorligi loyihasi tashkiloti (GAP), Buyuk Britaniyaning Ishda jamoatchilik e'tibori (PCaW), Janubiy Afrika Respublikasining Ochiq demokratiya maslahat markazi (ODAC), Germaniyaning Xabar beruvchilar markazi (WBN), Avstraliyalik xabarchilar tashkiloti (WBA) shular jumlasidandir. Ushbu nodavlat tashkilotlari tomonidan xabar beruvchi shaxslarga nisbatan xabar berishga oid qonunchilik yuzasidan doimiy ravishda huquqiy maslahat berib kelinmoqda.



Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Transparency International (TI) tashkiloti dunyo bo'ylab ayrim davlatlarda advokatlik va yuridik maslahat markazlarini (ALACs) tashkil etmoqda. Ular 60 ta mamlakatda, shu jumladan, Irlandiya, Rossiya Federatsiyasi va Lotin Amerikasining ayrim davlatlarida, jumladan, Gvatemala va Gondurasda tashkil etilgan bo'lib, xabar beruvchi shaxslarga beg'araz tarzda bepul yuridik yordam ko'rsatib kelmoqda [9].

Tahlillarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida xodimlarga va fuqarolarga korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga to'g'ridan to'g'ri xabar berish imkonini beruvchi "e-antikor.uz" elektron platformasi, "1253" qisqa raqamli "Call-markaz" faoliyati tashkil etilgan. Mazkur tarmoqlar orqali fuqarolarning murojaatlari asosida ularga maslahat va tushuntirishlar berib boriladi. Biroq ushbu tezkor aloqa kanallarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad fuqarolarning o'zlari duch kelgan yoki xabar topgan korrupsiyaga oid faktlar to'g'risida zudlik bilan xabar berishidir.

Bundan tashqari, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularni himoya qilish to'g'risida ma'lumot beradigan shaxslarga maslahat berish uchun qonun hujjatlari va davlat organlarining ishi to'g'risidagi muayyan bilimlari talab etiladi, shuningdek, ushbu ish hujjatlari va holatlarini o'rganish, bu holatda qanday oqibatlarga olib kelganligini muhokama qilish va himoya choralari tanlash kerak. Qo'ng'iroqlarni qabul qilish markazi – "Call-markaz" umumiy telefon tarmog'idir. Ushbu turdagi huquqiy maslahatlarni umumiy telefon orqali taqdim etishning iloji yo'q.

Agarda xorij tajribasiga nazar tashlansa, ayrim davlatlar qonunchiligida xabar beruvchi shaxslarga to'g'ridan to'g'ri yuridik yordam olish huquqi davlat tomonidan kafolatlanganligini ko'rish mumkin. Jumladan, Ukraina Respublikasining "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi Qonuni 53-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, xabar beruvchi shaxslar xabar berish tufayli o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega [10]. Jumladan, Ukraina Respublikasining "Bepul huquqiy yordam to'g'risida"gi Qonuni 14-moddasiga ko'ra, korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarlik to'g'risidagi xabar berishlari munosabati bilan barcha turdagi yuridik yordamdan, jumladan:

- sudlar, davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida xabar beruvchi shaxslarning manfaatlarini himoya qilish;

- protsessual xarakterdagi hujjatlarni tayyorlab berish [11].

Shuningdek, Sloveniya Respublikasining "Xabar beruvchi shaxslarning himoyasi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, xabar beruvchi shaxslarga ijtimoiy himoya chorasi sifatida bepul yuridik yordam olish huquqi taqdim etilgan [12].

Fikrimizcha, "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasida xabar beruvchining huquqlari sifatida himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlaridan bepul birlamchi yuridik yordam olishni belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, birlamchi bepul yuridik yordam ko'rsatgan shaxslarga ma'lum bo'lib qolgan barcha shaxsga doir ma'lumotlar shaxsga

doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik bilan qo'riqlanishi va yuridik yordam olgan shaxsning shaxsiga doir ma'lumotlari ishonib topshirilgan hamda kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan bu ma'lumotlar o'ziga ma'lum bo'lib qolgan, ushbu ma'lumotlarni oshkor etishga yo'l qo'ygan shaxslar qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishini belgilash lozim.

Jumladan, shaxsning yuridik yordam ko'rsatishni so'rab qilgan murojaati, yuridik yordam natijalari va shaxsga ko'rsatilgan yuridik yordam to'g'risidagi ma'lumotlar bepul yuridik yordam ko'rsatgan shaxslarning xizmat sirini tashkil etishi, xizmat sirini yuridik yordam ko'rsatishni so'rab murojaat qilgan shaxs yoki uning qonuniy vakili roziligisiz oshkor etish taqiqlanishi lozim. Shu sababli xabar beruvchi shaxslarni himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlari xodimlariga shaxsga doir ma'lumotlari ishonib topshirilgan hamda kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan bu ma'lumotlar o'ziga ma'lum bo'lib qolgan taqdirda ushbu ma'lumotlarni oshkor etishga yo'l qo'ymasligi, agarda ushbu ma'lumotlarni oshkor qilgan taqdirda, mazkur shaxslar qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishini belgilash lozim.


Ma'lumki, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 28-moddasi to'rtinchi qismida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarning va ularning yaqin qarindoshlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qilganligi sababli tajovuz qilishga, shuningdek, ish beruvchi tomonidan ularning mehnatga oid huquqlari buzilishiga yo'l qo'yilmaydi hamda bu qonunga ko'ra javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xabar bergan shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berganligi tufayli ularga nisbatan ish beruvchi tomonidan mehnatga oid munosabatlarda ularning huquqlari buzilishi holatlari kuzatilmoqda. Jumladan, xabar qilgan xodimlarning keyingi mehnat faoliyatini ilmiy jihatdan tahlil qilgan Bradley universitetida faoliyat ko'rsatuvchi Dr.Tanya Marcum va Dr.Jacob Youngning tadqiqotiga ko'ra, xabar qilgan shaxslarning 69 foizi kelgusida o'z ishini yo'qotishi yoki ishdan ketishga majbur qilinishi, ayrim paytlarda 64 foiz xabar bergan shaxslar esa boshqa ishga o'tgan taqdirda ham "qora ro'yxat"ga kiritilishi aniqlangan. Shuningdek, huquqshunos Mia Barnes xabar beruvchilarning taxminan 5,5 foizi xabar berganliklari tufayli uchinchi shaxslar tomonidan tazyiqni boshidan kechirayotganini aniqlagan [4].

Jumladan, quyidagi jadvalda Jahon banki tomonidan AQShda o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki, xabar bergan shaxslarda xabar berish jarayonidan so'ng quyidagi holatlar sodir bo'lgan [13].

Fikrimizcha, AQShda o'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslar keyingi mehnat va turmush sharoitlarida ijtimoiy va ruhiy muammolarga duch kelishgan. Bu esa, o'z navbatida, ularning psixologiyasida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar berish ortidan sotsiofobiya¹ shakllanishiga olib kelishi mumkin.

¹ Sotsiofobiya – muayyan xatti-harakatlarni sodir etishi natijasida uchinchi shaxslarning negativ baholashlaridan paydo bo'ladigan kuchli qo'rquv.



1-rasm. AQShda shifoxonada maishiy korrupsiyaviy holatlar to'g'risida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni xabar bergan 233 nafarshaxsda o'tkazilgan tadqiqot natijalari: (foiz ko'rsatkichida)

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 174-moddasiga ko'ra, mehnat shartnomasini bekor qilish yoki boshqa ishga o'tkazishning asosliligini isbotlash yuki ish beruvchiga yuklangan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi "Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishni tartibga soluvchi qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 26-son qarori 62-bandida ushbu toifadagi nizolarni ko'rib chiqishda shuni yodda tutish kerakki, mehnat shartnomasini bekor qilish yoki boshqa ishga o'tkazishning asosliligini isbotlash ish beruvchiga yuklanadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish munosabati bilan mehnat shartnomasini bekor qilish yoki boshqa ishga o'tkazish holatlari bo'yicha 2024-yilga qadar birorta sud ishi ko'rib chiqilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 4-moddasida mehnat va (yoki) mashg'ulotlar sohasida kamsitilgan deb hisoblagan shaxs diskriminatsiya faktiga belgilangan tartibda shikoyat qilishi, shu jumladan, kamsitishni bartaraf etish va unga yetkazilgan moddiy zararni qoplash hamda ma'naviy zararni qoplash to'g'risida sudga murojaat qilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, Mehnat kodeksining 137-moddasi va Oliy Sud Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi "Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishni tartibga soluvchi qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 26-son qarorining 45-bandiga muvofiq, xodim ish beruvchining mehnat sharoitlarini o'zgartirishi ustidan shikoyat qilishga haqlidir. Shaxsiy mehnat nizosini ko'rib chiqishda isbotlash yuki ish beruvchiga yuklanadi.

Agar sud ishni ko'rib chiqayotganda ish beruvchining mehnat sharoitlarini o'zgartirishi, shuningdek, boshqa ishga o'tkazilishi yoki mehnat shartnomasini bekor qilish xodimga uning huquqlari buzilishi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish munosabati bilan qabul qilingan choralar ekanligi aniqlansa, u holda ish beruvchining xatti-harakatlari noqonuniy deb topiladi va xodim avvalgi ish joyi (lavozimi) tiklanadi. Bunda amaldagi qonunchilikda ish beruvchi va xodim o'rtasidagi nizolarni sudda ko'rish davrida ish beruvchiga quyidagi masalalar bo'yicha isbotlash majburiyati yuklangan:

- 1) mehnat shartnomasini bekor qilish (MK 174-moddasi);
- 2) muddatli mehnat shartnomasini tuzishning asosiligi (MK 111-moddasi);
- 3) ishga qabul qilishni rad etishning qonuniyligi (MK 120-moddasi);
- 4) xodimning ish beruvchi bilan boshqa joyga ko'chib o'tishni rad etganligi (MK 146-moddasi);
- 5) xodimni ishdan chetlashtirishning qonuniyligi (MK 154-moddasi);
- 6) ikki yoshga to'lmagan bola parvarishini amalga oshirayotgan xodimni boshqa ishga o'tkazish mumkin emasligi (MK 395-moddasi).


Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xabar beruvchi shaxsga nisbatan ish beruvchi tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan mehnatga oid tazyiqlarning boshqa turlari: *intizomiy jazo qo'llash, ish haqini pasaytirish, boshqa turdagi shartnomaning bekor qilinishi* va boshqa holatlarni isbotlash majburiyati ish beruvchiga yuklanganligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Mehnat kodeksida tartibga solinmagan.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, quyida keltirilgan jadvaldan ko'rish mumkinki, tadqiqot ishi so'rovnomasida "*Mehnat va turmush faoliyatingiz davomida sodir etilgan yoki sodir etilishga tayyorgarlik ko'rilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida muhofaza qiluvchi organlarga xabar berganmisiz?*" degan mazmundagi savolga respondentlar quyidagicha ovoz berishgan [14].

Bizningcha, O'zbekistonda ham ehtimoliy ushbu xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida xabar bergan shaxslarning ish joyida mehnat huquqlarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish, davlat organlarining qarorlari, mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) va mehnat qonunchiligi buzilishi ustidan shikoyat qilish huquqini uzluksiz ta'minlash muhimdir.

Ma'lumki, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarning shaxsiga doir ma'lumotlari sir saqlanishi xabar berish institutining eng muhim elementi hisoblanadi. Biroq xabar bergan shaxsning shaxsiga doir ma'lumotlari qonunda nazarda tutilgan hollarda va shaxsning o'zining, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organ rahbarining yozma ruxsati asosida oshkor etilishi mumkin. Mazkur holatda xabar qilgan shaxsga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan ruhiy tazyiq, zo'ravonlik sodir etish ehtimoli vujudga kelishi mumkin. Shu tufayli xabar bergan shaxslarga psixologik yordam ko'rsatish muhimdir. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrda qabul qilingan, 2025-yil 6-fevraldan kuchga kiradigan "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni 9-moddasiga ko'ra, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga bepul psixologik yordam ko'rsatish davlat tomonidan kafolatlanishi belgilangan.

So‘rovnoma natijasi foiz (%) hisobida



2-rasm. Fuqarolar o‘rtasida “Mehnat va turmush faoliyatingiz davomida sodir etilgan yoki sodir etilishga tayyorgarlik ko‘rilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida muhofaza qiluvchi organlarga xabar berganmisiz?” mavzusida o‘tkazilgan so‘rovnoma

Bizningcha, xabar beruvchi shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yilmasa, bu ayrim salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan:

- xabar beruvchi shaxs va ish beruvchi o‘rtasida mojaroning kuchayishi (xabar beruvchi va tashkilot o‘rtasida yoki tashkilot va huquqbuzarlikda ayblanayotganlar o‘rtasida);

- davlat organi, tashkiloti va muassasasining tashkiliy samarali ko‘rsatkichlari pasayishi, chunki xabar beruvchi shaxslarga o‘z vaqtida psixologik yordam ko‘rsatilmaslari ularni samarali mehnat faoliyatidan chalg‘itadi, bu esa, o‘z navbatida, mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlari tushib ketishi;

- xabar beruvchi shaxsning ruhiy azoblanishi natijasida ularning sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatishga sabab bo‘ladi.

Psixolog, huquqshunos Nick Thorpening fikriga ko‘ra, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni psixologik qo‘llab-quvvatlash xabar beruvchining yuqori bo‘lgan hissiyotlarni tinchitadi. Bu esa, o‘z navbatida, xabar qilishda ishtirok etganlarning barchasi o‘rtasida konstruktiv va ijodiy muloqotni osonlashtiradi. Ushbu yondashuv mojaro kuchayishining oldini olishda juda muhimdir [15].

Fikrimizcha, xabar beruvchi shaxslarni psixologik qo‘llab-quvvatlash, ularda xabar qilish orqali uyg‘ongan tashvish, depressiya va moslashish buzilishi kabi ruhiy salomatlik muammolari rivojlanish xavfini kamaytiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, xabar beruvchi shaxslarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularga bepul psixologik xizmat turlarini tashkil qilish xabar qiluvchilarning psixologiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Sababi xabar beruvchi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar qilganidan so‘ng ularga nisbatan

tazyiq o'tkazilishi, qonunga xilof tarzda ishdan bo'shatilishi va har qanday turdagi zo'ravonliklar sodir etilishi ularning tushkunlikka tushishiga, ma'naviy zarar ko'rishiga ayrim hollarda o'z joniga qasd qilishiga olib kelishi mumkin.

Xorij tajribasiga ko'ra, Sloveniya Respublikasining "Xabar beruvchi shaxslar himoyasi to'g'risida"gi Qonunida xabar beruvchi shaxslarga davlat tomonidan bepul psixologik yordam ko'rsatish belgilangan bo'lsa, Ukraina Respublikasining "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi Qonuni 53³-moddasida psixologik yordam olish xabar beruvchining huquqi sifatida e'tirof etilgan.

Shu tufayli xabar beruvchi shaxslarning asosiy huquqlari sifatida xabar berganlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish maqsadida davlat boji to'lamasdan sudga murojaat qilish va himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlarida maxsus markazni (psixologik tarmoq, bo'lim) tashkil etish orqali bepul psixologik yordam olishni belgilash maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Yuqorida olib borilgan tahlillarga ko'ra, quyidagi takliflar ilgari surildi.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar qiluvchi shaxslarni himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish va qonunni qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish hamda ushbu loyihada quyidagilarni belgilash lozim:

birinchidan, mazkur loyihada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar beruvchi shaxslar huquqlari sifatida himoya qiluvchi vakolatli davlat organlaridan shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlashni talab qilish hamda himoya choralari qo'llash yoki ularni bekor qilish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etish huquqini belgilash;

ikkinchidan, loyihada xabar beruvchi shaxslar tomonidan vakolatli davlat organlariga shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlashni talab qilish natijasida ularga nisbatan qo'llangan xavfsizlik choralari qo'llanishi tartibi va ularning xususiyati haqida ma'lumot olishni ta'minlash;

uchinchidan, loyihada xabar beruvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor qilinishining aniq asoslarini ishlab chiqish hamda xabar bergan shaxs xabar qilingan yoki oshkor qilingan ma'lumot manbasining sir saqlanishini talab qilish huquqiga ega ekanligini belgilash;

to'rtinchidan, loyihada xabar beruvchi shaxsning huquqi sifatida yaqin qarindoshlariga nisbatan himoya choralari qo'llanishini talab qilish bilan bog'liq murojaat qilish huquqini berish;

beshinchidan, xabar beruvchining huquqlari sifatida himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlaridan birlamchi bepul yuridik yordam olishni belgilash;

oltinchidan, xabar beruvchi shaxslarning davlat organlari qarorlari, mansabdor shaxslar harakatlari (harakatsizligi) va mehnat qonunchiligi buzilishi ustidan shikoyat qilish huquqini to'laqonli ta'minlash;

yettinchidan, xabar beruvchi shaxslarning asosiy huquqlari sifatida xabar berganlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish maqsadida davlat boji to'lamasdan sudga murojaat qilish va bepul psixologik yordam olish huquqini belgilash maqsadga muvofiq.



REFERENCES

1. Corruption whistleblower protection issues. 2024. Available at: <https://www.aca.uz/uz/article/korrupciia-aqida-xabar-beruvchilarni-imoia-qilis-masalalari-muokama-qilindi>
2. Tanya M., Marcum J.D., Jacob Y.D.B.A. Blowing the Whistle in the digital age. Are you really anonymous? the perils and pitfalls of anonymity in whistleblowing law. *Narrowed by: Secondary Materials Sources: DePaul Business & Commercial Law Journal. Content Type: Law Reviews and Journals*. Available at: <https://www.whistleblowers.org/wp-content/uploads/2019/10/Marcum-Young-2019-Blowing-the-Whistle-in-the-Digital-Age.pdf>
3. Nick Th. "The role of psychological support in a whistleblowing incident. Available at: <https://www.fieldfisher.com/en/insights/the-role-of-psychological-support-in-a-whistleblow>
4. Barnes M. How Employers Can Support and Protect Whistleblowers Mental Health. Available at: <https://ohsonline.com/articles/2023/09/19/how-employers-can-support-and-protect-whistleblowers-mental-health.aspx>
5. Loi sur la protection des dénonciateurs: Il est urgent de publier les textes d'application [Law on the protection of whistleblowers: It is urgent to publish the texts of application]. *La Presse*, 2017.
6. Directive (EU) 2019/1937 of the European parliament and of the council of 23 October 2019. "On the protection of persons who report breaches of Union law". 2019.
7. Republic of Korea, Act on Anti-Corruption (as amended in 2012), section 39.
8. United nations office on drugs and crime. The United Nations Convention against Corruption. Resource guide on good practices in the protection of reporting persons. United Nations, August 2015. Pp. 75–76.
9. For a list of TI ALACs, see Available at: <http://www.transparency.org/getinvolved/report>
10. Law of Ukraine On prevention of corruption. The Official Bulletin of the Verkhovna Rada of Ukraine (VVR), 2014, No. 49, Article 2056. Available at: <https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/1700-18?lang=en#Text>
11. On Free Legal Aid. Law of Ukraine. *Vedomosti Verkhovna Rada of Ukraine (VVR)*, 2011, no. 51, p. 577. Available at: <https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/3460-17#n80>
12. The Reporting Persons Protection Act. *Official Gazette of the Republic of Slovenia*, vol. 16/23. Available at: <https://www.uradni-list.si/glasilo-uradni-list-rs/vsebina/2023-01-0301/zakon-o-zasciti-prijaviteljev-zzpri>
13. Mia B. How Employers Can Support and Protect Whistleblowers Mental Health. Available at: <https://ohsonline.com/articles/2023/09/19/how-employers-can-support-and-protect-whistleblowers-mental-health.aspx>
14. World Bank. Whistleblowing: Recent developments and implementation issues. Available at: <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/bdaca439-5989-52c7-b820-929303194de3/content>
15. Majidov Sh.A. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslar huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish masalalari [Issues of improving the protection of the rights of persons reporting corruption-related offenses]. P. 87.
16. Nick Th. The role of psychological support in a whistleblowing incident". Available at: <https://www.fieldfisher.com/en/insights/the-role-of-psychological-support-in-a-whistleblow>

Kelib tushgan / Получено / Received: 11.10.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 28.11.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.4./JVLG5511

UDC: 343.352.93(045)(575.1)

O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ETYUDLARI: AMIR TEMURNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI

Oblakulov Davlat Oltinboyevich,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni
muhofaza qilish akademiyasi
o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi
ORCID: 0009-0008-3047-9995
e-mail: davlatkinglaw7777@gmail.com

Annotatsiya. Tarixiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiya tarixi aslida davlatchilik tarixidan kam emas, bundan tashqari, u har qanday davlatda mavjud bo'lgan. Mamlakatimizda korrupsiya qarshi kurash XXI asrga kelib O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu bilan bir qatorda, o'zbek davlatchiligi tarixida korrupsiyaga qarshi kurash deyarli o'rganilmagan bo'lsa ham, korrupsiyaviy jinoyatlarning alohida turlari darajasida javobgarliklar belgilangan. Jumladan, qadimgi Turon, Turkiston, Movarounnahrda yozilgan huquqiy asarlar va ular asosida tuzilgan hujjatlarda bir qancha huquqbuzarliklar singari poraxo'rlik qattiq qoralangan va bunday xatti-harakatlar sodir qilgan shaxslarga nisbatan qattiq jazo choralari qo'llash belgilangan. Mazkur maqolada Amir Temurning korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashish siyosati yoritilgan. Bu borada "Temur tuzuklari" bilan bir qatorda Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy, zamonaviy olimlardan fransuz temurshunosi professor L. Keren, akademiklar Bo'riboy Ahmedov, Ibrohim Mo'minov, Akmal Saidov, Azamat Ziyo, O'zbekiston Respublikasi fan arboblari, professorlar Temur Shirinov, Halim Boboyev, professor Shohistaxon O'ljayeva va boshqa olimlarning temuriylar tarixiga yoki mavzuni ochib berishga xizmat qiladigan asarlari, ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilib, Amir Temurning davlatda korrupsiyaga qarshi kurashishda olib borgan huquqiy tadbirlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "Temur tuzuklari", tuzuk, to'ra, arzbegi, qozi, qozi askar, devonbegi, korrupsiya, poraxo'rlik, mansabni suiiste'mol qilish, talon-toroj, jazo



ЭТЮДЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В ИСТОРИИ УЗБЕКСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ: АНТИКОРРУПЦИОННАЯ ПОЛИТИКА АМИРА ТЕМУРА

Облакулов Давлат Олтинбоевич,
самостоятельный соискатель, преподаватель
Правоохранительной академии Республики Узбекистан

Аннотация. Изучение исторических источников показывает, что появление такого явления, как коррупция, совпадает с периодом становления государственности, к тому же она существовала в любом государстве. К XXI веку борьба с коррупцией в нашей стране поднялась до уровня государственной политики. Вместе с тем борьба с коррупцией в истории узбекской государственности почти не изучена, но известно, что существовала ответственность на уровне отдельных видов коррупционных преступлений. Например, в юридических трудах, написанных в древнем Туране, Мавераннахре, Туркестанском крае, и составленных на их основе документах, взяточничество, как и другие правонарушения, решительно осуждается и предписываются строгие наказания для тех, кто совершает подобные деяния. В статье освещается политика Амира Темура по борьбе с коррупцией и взяточничеством. Наряду с «Уложениями Темура», были изучены труды и научно-исследовательские работы учёных, посвящённые истории Темуридов или раскрывающие изучаемую тему: Шарафиддина Али Язди, Низамиддина Шами, Ибн Арабшаха, Абдураззака Самарканди, Давлетшаха Самарканди; современных учёных – французского темуроведа, профессора Л. Керена; академиков Борибоя Ахмедова, Ибрагима Муминова, Акмаля Саидова, Азамата Зия, деятелей науки Республики Узбекистан, профессоров Темура Ширинова, Халима Бобоева, Шахистахон Ульжаевой и др., также проанализированы правовые меры, предпринятые Амиром Темуром в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова: «Уложения Темура», уложение, чиновник, арзбеги, казий, казий-аскар, девонбеги, коррупция, взяточничество, злоупотребление служебным положением, хищение, наказание.

ANTI-CORRUPTION STUDIES IN THE HISTORY OF UZBEK STATEHOOD: AMIR TEMUR'S ANTI-CORRUPTION POLICY

Oblakulov Davlat Oltinboyevich,
Lecturer of the Law Enforcement
Academy of the Republic of Uzbekistan,
Independent researcher

Abstract. The study of historical sources shows that the history of corruption is in fact no less than the history of statehood; moreover, it existed in any state. The fight against corruption in our country has risen to the level of state policy in Uzbekistan by the 21st

century. At the same time, although the fight against corruption has been practically unstudied in the history of Uzbek statehood, liability has been established at the level of individual types of corruption crimes. In particular, legal works written in ancient Turan, Turkestan, and Mawarannahr, as well as documents based on them, strongly condemned bribery, as well as a number of offenses, and imposed severe punishments on individuals who committed such actions. This article highlights Amir Timur's policy in combating corruption and bribery. In this regard, alongside "Temur tuzuklari (the Code of Temur)," the works of Sharafuddin Ali Yazdi, Nizamiddin Shami, Ibn Arabshah, Abdurazzaq Samarqandi, and Davlatshah Samarqandi were studied, as well as the works of the French Timurid scholar Professor L.Keren, Academicians Buriboy Akhmedov, Ibragim Muminov, Akmal Saidov, and Azamat Ziyov, scholars of the Republic of Uzbekistan professors Temur Shirinov, Halim Boboyev, and Professor Shohistakhon Uljaeva, and other scholars contributing to the exploration of Timurid history. Additionally, works exploring the topic, scientific research papers, and Amir Timur's legal activities in combating corruption in the state were analyzed.

Keywords: "The Code of Temur", regulation, tora, arzbegi, judge, military judge, devonbegi, corruption, bribery, abuse of office, plunder, punishment

Kirish

O'zbekiston fan arbobi, tarix fanlari doktori, professor Temur Shirinovning "Tariximiz etyudlari" nomli kitobi nomida "etyud" so'zi qo'llangan, odatda tarixda etyud bo'lmaydi, lavhalar bo'ladi. Biroq taniqli professor Temur Shirinov "etyud" so'zini tarixga oid ishlarda qo'llash mumkinligini izohli lug'atlar orqali isbotlagan [34, 4-b.].

Ma'lumki, korrupsiya har qanday davlatning siyosiy tuzilishi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar butun dunyoda global muammo hisoblanib, unga qarshi kurashish dunyo davlatlari uchun dolzarb, ayni vaqtda, ustuvor vazifa hisoblanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir" [1].

Bashariyat tarixiga nazar solinsa, korrupsiya illati hatto eng qudratli va eng kuchli davlatlarni ham jar yoqasiga olib kelganiga va to'liq parokanda qilganiga amin bo'lish mumkin [1]. Haqiqatan, ilmiy tadqiqot ishlari va tarixiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiya tarixi aslida davlatchilik tarixidan kam emas, bundan tashqari, u har qanday davlatda mavjud bo'lgan. Xususan, qadimgi davrlarda mansabdorlik jinoyatlari – mansabni suiiste'mol qilish, poraxo'rlik uchun ham jazo borligi haqida ma'lumotlar bor. Masalan, yangi podsholik davrida Misrda Xoremxeb (mil. avv. 1342–1338-yillar) bir necha ma'muriy reformalar o'tkazganligi, jumladan, soliq sistemasini qayta tuzgan hamda askarlarning talovchiligiga va amaldorlarning poraxo'rlikiga qarshi tadbirlar ko'rganligi, qadimgi fors shohi Kambiz davrida (mil. avv. 529–523-yillar) umrbod lavozimga tayinlangan (ba'zan otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tgan) sudyalarning jinoyat qilib qo'ysa yoki poraxo'rlikda ayblansa, ularni o'rnidan



olib tashlab, ularga nisbatan shafqatsiz jazo choralari qo'llagani haqida Gerodotning hikoyalarida va manbalarda keltiriladi [55]. Qadimgi Afina sudida sud qilinadigan hech bir fuqaro uning ishi qaysi dikasteriyada ko'rilishini bilmagan. Buni u sud bo'ladigan kuni yoki undan bir kun oldin bilgan xolos. Da'vogar pora berolmasligi uchun shunday qoida joriy qilingan [2].

Davlat xizmati tizimidagi korrupsiya haqidagi birinchi bitiklar Bobil arxivlaridan topilgan. O'sha paytdagi shahar-davlatlardan biri Lagashda mansabdor va sudyalarning o'z vazifalarini suiiste'mol qilishining oldini olish maqsadida davlat boshqaruvi isloh qilinadi. Bobilning podsho Xammurapi davrida (mil. avv. 1792–1750) qabul qilingan Xammurapi qonunlarida sudyalarning javobgarligi (5-modda) masalasi ko'rsatilgan [3]. Shuningdek, pora olish va berish qadimgi Rimda amal qilgan XII jadval qonunlarida tilga olingan. Mazkur qonunlarga ko'ra, sudyalarning poraxo'rliigi uchun o'lim jazosi qo'llangan. Shu bilan bir qatorda, Rim huquqida "korrupsiya" atamasi huquqiy shaklga ega bo'ldi. "corrumpire" so'zi sindirish, buzish, zarar yetkazish, soxtalashtirish, sotib olish ma'nolarini bildirib, muayyan qonunga xilof harakatni anglatgan [4].

Korrupsiya muhokama qilingan dastlabki asar – Maurya imperiyasi (mil. avv. IV–II asrlar) asoschisi Chandraguptaning maslahatchisi Kautila tomonidan yozilgan "Arthashastra" yetib kelgan. Qayd qilish lozimki, korrupsiya hodisasi kishilik jamiyatidagi o'zgarishlarga bog'liq holda o'zgarib, mukammallashib, shaklan o'zgarib borgan. Biroq bu korrupsiya hamma joyda bir xil degan ma'noni anglatmaydi. Korrupsiyaning vujudga kelishi sabablari har bir mamlakatlarda turlicha bo'lib, tarixiy bosqich va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Shu bois korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda uni tarixiy-huquqiy jihatdan o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

G.V.F. Gegel "Fanning nazariy tomonini tushunish uchun uning tarixini yaxshi bilish kerak", – deb yozgan edi [5]. Darhaqiqat, korrupsiya muammosini tarixiy-huquqiy jihatdan o'rganish ham uning mohiyatini anglash va unga qarshi kurashda alohida dolzarblik kasb etadi.

Aytish lozimki, Temuriylar davrida ham biz bugungi kunda "korrupsiya" va "poraxo'rlik" deb ataydigan illatning har qanday ko'rinishlari qoralanib, unga qarshi kurashilgan va uning uchun javobgarlik belgilangan.

Material va metodlar

Tadqiqot obyekti Amir Temurning markazlashgan davlatida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashish siyosatini yoritishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanib, tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash va tarixiy-qiyosiy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

"Tarixda o'tgan buyuk shaxslar haqida biron so'z aytish, kattami-kichikmi ilmiy yoki adabiy asar yozish o'ta mushkul", – deb yozadi akademik B. Ahmedov [6, 4-b.]. Darhaqiqat bugungi kunda Amir Temur hayoti va temuriylar davriga oid juda ko'plab tarixiy-huquqiy asarlar yozilgan hamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Biz esa aynan Amir Temurning bugungi kunda "korrupsiya" va "poraxo'rlik" deb ataluvchi

illatga qarshi kurashda qanday siyosat yuritganligini yoritishga harakat qildik. Quyida bu tarixiy-huquqiy adabiyotlarni o'rganish orqali yoritib berilgan.

XIV asrda vujudga kelgan Temur davlatida adolat va qonun ustuvorligi hukm surgan. Qariyb 150 yil davom etgan mo'g'ul istibdodidan so'ng Turonda mustaqil davlat yaratishga erishgan Temur tez orada bu davlatda adolatli, mukammal qonun-qoidalar joriy qilib, markazlashgan saltanatni ma'muriy, harbiy va mahkama tizimlarini yaratish orqali boshqargan. "Temur tuzuklari"da ham davlat ishlari qonun-qoidalariga asoslangan holda to'ra va tuzukka tayanib boshqarilgani qayd qilingan [7, 74-b.].

Amir Temur davlatida qonun barchaga: vazirlar, amirlar, hokimlar, shahzodalar va raiyat uchun barobar bo'lgan. Amir Temur sodir etilgan barcha jinoyatchilarni, hattoki jinoyatga qo'l urgan qarindosh-urug'lari va farzandlarini ham xolis turib, jazolashni talab qilgan. Akademik I. Mo'minovning qayd qilishicha, Temur yozishmalariga muvofiq, vaqti-vaqti bilan so'roqpursish, reviziya va tekshirish-taftish, tergov o'tkazilib turgan. O'z amalini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik kabilar og'ir gunoh hisoblanib, qattiq jazolangan [8, 443-444-b.; 9, 25-b.].

Tarixchi A.J. Badirov ham mazkur masala yuzasidan to'xtalib, Amir Temur davlatida amaldorlar ishini tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan so'roq, tekshirish, taftish, tergov o'tkazib turilganini, amalni suiiste'mol qilish, poraxo'rlikka yo'l qo'ygan kishilar qattiq jazolanganini bildiradi [10, 67-68-b.]. Xuddi shunga o'xshash fikrlarni professor Ziyodulla Muqimovning ishlarida ham ko'rish mumkin [11, 215-216-b.; 12, 92-b.].

Amir Temur raiyat (oddiy xalq) hol-ahvolidan doim ogoh bo'lgan, ularning ulug'-u kichiklarini o'zlariga munosib o'rinda ko'rgan, har shahar va qishloqning urf-odatiga, qonun-qoidalariga hurmat bilan qaragan, ulardan xabardor bo'lish uchun tarixchi-xabarchilarni yozma ravishda turli xalqlar hayotidan xabardor qilib turishlarini talab qilgan, hokimlar, sipohlar tomonidan raiyatga jabr-u sitam yetkazilgan bo'lsa, ularni adolat, insof yuzasidan jazolagan, – deydi O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, professor H. Boboyev [13, 39-, 44-b.].

Qayd qilish lozimki, Amir Temur korrupsiyaga qarshi kurashishda o'ziga xos tadbirlar ishlab chiqqan [14, 65-77-b.; 15, 23-b.]. Xususan, temuriylar tarixiga oid manbalar va ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish jarayonida aniqlanishicha, u jarchilar¹ vositasida shaharda adolat o'rnatadigani elga ma'lum qilgan. Amir Temur safardaligidan foydalanib, o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylab ish tutgan, davlat mulkini talon-toraj qilgan amaldorlar mansabi, mol-u dunyosi va saroy ahli bilan qarindoshligidan qat'i nazar so'roq qilinib, hibsga olingan va qattiq jazolangan. Hatto bosh vazir ham o'z vazifasini sovuqqonlik bilan ado etib, talon-torajlikka yo'l qo'yganligi uchun xalq ko'z o'ngida jinoiy javobgarlikka tortilib, unga nisbatan o'lim jazosi qo'llangan. Shu bilan bir qatorda, davlat mablag'ini va davlatga tegishli otlarni talon-toraj qilgan qator yuqori martabali amaldorlar, firibgar va muttahamlar ham jinoiy javobgarlikka tortilib, ularga nisbatan jinoiy jazo tayinlangan. Shuningdek, soliq yig'ish vaqtida qonunga xilof ish qilgan bir necha zakotchi, molini ortiq bahoda

¹ Jarchi – odamlar ko'p to'planadigan joylarda baland ovoz bilan rasmiy e'lonlarni eshittirib turuvchi kishi, podshohning farmonlari va buyruqlarini aholiga yetkazib turuvchi mansabdor shaxs.



pullagan kosiblar ham tegishli tartibda javobgarlikka tortilgan. Ayni vaqtda Amir Temur qonuniy ishlagan hunarmand-savdogarlarni himoya qilgan [6, 561-b.; 16, 16-b.; 17, 84-, 99-b.; 18, 205-b.; 19, 10-, 365-b.; 20, 167-b.; 21, 142-, 152-b.; 22, 392-b.; 23, 91-b. 24, 277-b.; 25, 186-, 289-290-b.; 26, 28-b.; 27, 122-, 115-b.; 28, 153-155-b.; 29, 241-b.]. Bundan anglash mumkinki, Amir Temur jinoyatga qo'l urgan har qanday kishini jazosiz qoldirmagan va aybsiz kishini himoya qilib, uni jazolashga yo'l qo'ymagan.

Yuqoridagi misollarni biz ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning "Kundalik" idagi [30, 288-313-b.] qaydlarda ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, Klavixo Amir Temur Samarqand saltanatida boshliq hisoblangan dina, ya'ni dorug'a², ya'ni bosh vazirni Temur safardaligida uning ishonchidan foydalanib, o'z lavozimini suiiste'mol qilganligi uchun (masjid qurishda talon-torojlikka yo'l qo'ygan, mansabiga sovuqqonlik bilan qaragan) mol-mulki musodara qilinib unga nisbatan o'lim jazosi qo'llanganini qayd qiladi [31, 126-, 127-b.; 32, 174-175-b.].

Bundan tashqari, Klavixo kundaligida dorug'aning gunohini to'rt yuz kumush tanga evaziga kechishni so'ragan podshoh a'yonlaridan biri ham o'lim jazosiga hukm qilingani keltiriladi [31, 127-b.; 32, 174-, 175-b.]. Shuningdek, Temur uzoq safarga jo'nashdan oldin uch ming otni ishonib topshirib ketgan, ammo qaytgach saltanat mulkning bir donasini ham qoldirmagan, tugal saqlay olmagan yana bir nufuzli shaxs, shuningdek, shu kabi jinoyatlar va boshqa turli-tuman kirdikorlarga qo'l urganlar ham javobgarlikka tortilganini Klavixo ma'lum qiladi [31, 127-b.; 32, 175-, 53, 132-b.]. Amir Temurning adolatpeshaligi, saltanat va xalq mulkiga ko'z olaytirgan o'g'rilikda ayblangan bosh vazir va otlarni o'zlashtirgan otxona boshlig'iga nisbatan shafqatsiz jazo chorasi qo'llagani haqida boshqa mualliflar ham qayd etib o'tgan [33]. Xususan, angliyalik yozuvchi Hilda Hukhem o'zining Amir Temurga bag'ishlangan "Yetti iqlim sultoni" qissasida yozishicha, Temur harbiy yurishdan keyin Samarqandga qaytib kelgach, egallab turgan vazifasini suiiste'mol qilgani uchun shahar hokimini jazoga hukm qilgan hamda hokimlik davrida to'plangan boyliklarini saltanat xazinasiga o'tkazgan [34, 286-b.].

Demak, Temur davlatda qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shartligini, ya'ni javobgarlik muqarrarligi prinsipini joriy qilgan. Davlatda sudlarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmagan va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lgan, xususan, Klavixo kundaligidan pora taklif qilgan shaxs ham tegishli tartibda jinoiy javobgarlikka tortilganligini ko'rish mumkin.

Amir Temur davlatida ishlab chiqarish va savdo munosabatlaridagi ijtimoiy adolat masalasi muhim hisoblanganini ham eslatib o'tish joiz. Yaratilgan shart-sharoitga, mavjud tartiblarga rioya qilmay tekin daromad ketidan quvganlar jazoga tortilishi hech gap emasdi [35, 211-b.].

Chunonchi, Klavixo guvohlik berishicha, navbatdagi harbiy yurishdan qaytgach Amir Temur o'zi yo'qligida shaharda ahvol qanday bo'lganini tekshirgan. Shunda

² Dorug'a – shahar yoki viloyat hokimi, soqchilar boshlig'i.

Temur yo'qligida go'sht narxini oshirib sotgan qassoblar, shuningdek, mollarga ortiqcha narx qo'yib sotishda ayblangan kavushdo'z javobgarlikka tortilib jazolangan [31, 127-b.; 32, 175-b.; 36, 14-16-b.]. Bundan qonun talablarini buzib noqonuniy boylik orttirish payida bo'lganlar javobgarlikka tortilgan degan xulosa qilish mumkin.

Bu borada Ibn Arabshoh "Amir Temur davrida xalq manfaatlarini ko'zlab bozor, narx-navoni maxsus tekshiruvchilar bo'lib, ular vazirlar (tosh-tarozi), narx-navo to'g'risida unga (Temurga) zikr qilib, manzil-u shaharlarni tavsiflardilar", – deb qayd qiladi [37, 71-b.].

Ayni vaqtda Temur savdogarlarni himoya qilgan va davlatning rivojida savdoning ahamiyati juda kuchli ekanligini juda yaxshi tushungan hamda savdo-sotiqqa katta e'tibor bergan. Zero, u: "Dunyo savdo ahli ila oboddir", – degan [38].

Bu borada Klavixo Samarqandda kecha-yu kunduz savdo-sotiq uzluksiz davom etadi deb qayd qilgan [32, 200-b.]. Shuningdek, "Temur tuzuklari"da: "Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir", – deyilganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi [7, 14-b.].

Qayd etib o'tganimizdek, Temur davlatida qonun barcha uchun teng bo'lgan, mansabni suiiste'mol qilish Temur avlodlariga taalluqli bo'lgan vaqtda ham, ular tegishli jazolarini olganlarini, chunonchi, uning o'g'li Mironshoh Mirzo, nevarasi amirzoda Pirmuhammadlar mansabiga sovuqqonlik bilan qaraganliklari uchun devoni mulozimda qattiq so'roq qilinib, aybi aniqlangach, egallab turgan mansabidan olib tashlagani, bu haqda shaxsan Amir Temurning o'zi farmon berganini Sharafiddin Ali Yazdiy, Davlatshoh Samarqandiy asarlari va boshqa manbalar tasdiqlaydi [39, 56-b.; 40, 181-b.; 18, 194-b.; 41, 129-b.; 23, 91-b.; 25, 221-222-b.; 38, 443-444-b.; 42, 143-144-b.; 43, 88-89-b.; 44, 17-18-b.]. Bu esa qonun barcha uchun tengligi, jinoyat sodir etgan har qanday shaxs qonun oldida javobgar bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Temur davlatning obro'si, sharafi, manfaati sohasida g'oyat qattiqqo'l edi: u bunday paytlarda o'zini ham, o'g'il va nevaralarini ham, qarindosh-urug'larini ham harbiy boshliqlarni ham ayamas edi. U o'z davlat ishlarida g'oyat mustahkam, tebranmas, barqaror turardi [45, 434-435-b.; 35, 25-b.].

Yuqoridagilarga ko'ra, Amir Temurning davlat hokimiyati bosh qoidasi "Kuch adolatda" barchaning qonun oldida tengligi prinsipiga asoslanganini ko'rish mumkin. Qayd etish lozimki, ayni paytda Sohibqironning o'zi ham qonunlarga qattiq amal qilgan. Bu haqda Amir Temur: "Men o'zimga adolatli va rahmdil to'rt vazirni tanladim deyiladi. Ulardan ikkisi Mahmud Shahob Xurosoniy va Nosiriddin Mahmud al-Oromiy edi. Bu ikki vaziringa doimo meni kuzatib turishlarini va agar men adolatsizlik qiladurg'on bo'lsam, darhol meni to'xtatishlarini, kimningdir yolg'on so'zlariga inonsam yoki begona kimsa mulkiga xiyonat qiladurg'on bo'lsam, darhol meni ogohlantirishlarini ta'kidlab qo'ydim", – deb aytgan [46].

Amir Temur yana shunday deydi: "Men o'z saltanatim mangu barqaror qolishi uchun adolatni bir qo'limga va insofni yana bir qo'limga oldim. Bu ikki chiroq shu'lasidan saltanatim sulolasi chirog'ini yondirdim. Ularga (vazirlarga) aytdimki, menga adolatli so'zdan o'zgasini aytmanglar, yomon bo'lmanglar, yomonlikni yaxshilik



bilan uzatinglar, odamlarning ahvolini tekshirib turinglar va kishi molidan tama qilmanglar, rost so'zlanglar, yolg'on demanglar" [45, 23-b].

Davlat xizmati haqida gap ketganda, aytish mumkinki, Amir Temur vazir lavozimiga adolatli, oqil, halol, bilimli, fozil odamlarni munosib deb bilgan hamda u vazirlarni tanlashda to'rt sifatga e'tibor qaratib, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim deb hisoblagan, jumladan, birinchisi – asillik, toza nasllilik, ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchi – sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lishlik, to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik [7, 106–107-b.].

"Tuzuklar"da "Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda boshqaradi", – deyiladi [7, 107-b.]

Amir Temur davlatni yetti vazir yordamida boshqargan. Vazirlar devonbegiga bo'ysunganlar va ular devonbegiga o'ziga xos ravishda hisobot berib turganlar. Bu oliy tashkilot Oliy devon³ deyilgan. Unga devonbegi boshchilik qilgan. Devonbegi ba'zan Vaziri A'zam deb atalgan hamda u vazirlar faoliyatiga, ish yuritishiga adolat va talabchanlik bilan qaragan. Ayniqsa, moliya vazirlari nihoyatda pok va adolatli bo'lishi talab qilingan.

Sohibqiron moliya vazirining ustomonliklarini juda chuqur va aniq bilgan, ularga qilmishlariga yarasha iqtisodiy jazo belgilagan [47, 80-b.].

Xususan, "Temur tuzuklari"da "Sarf-xarajatlar ila shug'ullanuvchi, mamlakat xazinachilari bo'lmish moliya vazirlari, moliya ishlarida xiyonat qilib, (boyliklarning bir qismini) o'zlashtirib olg'on bo'lsalar, (tekshirib ko'rilsin). Agar o'zlashtirib olg'on mablag'i o'ziga tegishli ulufa miqdoriga teng bo'lsa, mazkur mablag' unga sovg'a-in'om o'rnida berilsin. Agar o'zlashtirib olg'on mablag'i maoshidan ikki barobar ortiq bo'lsa, ortig'i oladig'on maoshidan ushlab qolinsin. Agar maoshidin uch barobar ko'p mablag' olg'on bo'lsa, hammasi (o'zlashtirgan pullari) saltanat xazinasiga tortiq sifatida olinsin", – deyiladi. "Temur tuzuklari"dan anglashiladiki, moliya vazirlari suiiste'mol qilish faktlari avvalo har tomonlama tekshirilib, aybi isbotlangandan so'ng ularga nisbatan tegishli choralar ko'rilgan. Ya'ni shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'lgan. Shu bilan bir qatorda, aybi isbotlanmagan, yolg'on xabar, tuhmat yoxud g'iybat asosida biror shaxs javobgarlikka tortilishiga yo'l qo'yilmagan.

Ayni vaqtda "Temur tuzuklari"da "Qaysi vazir soflik, to'g'rilik bilan ishga kirishib, davlatni moliya-mulkiga ishlarini diyonat, savob bilan, nafsi buzuqliq qilmay, omonatga xiyonat etmay bajarar ekan, unday vazirni eng oliy martabalarga yetkazsinlar. Qaysi vazir buzuqlik qilib, yomonlik yo'li bilan mamlakat ishlarini yurgizar ekan, ko'p o'tmay unday saltanatda xayr-u barakot ko'tariladi", – deyiladi [7, 108-b.].

"Temur tuzuklari"da keltirilishicha, "qishloq jamoa oqsoqoli va shahar hukmdorlaridan biri kichikroq darajadagi odamga zulm qilsalar, o'sha zulmga yarasha, har kimning ko'tarishicha jarima solsinlar. Agar dorug'alar va hokimlar xalqqa

³ Devon – oliy amaldorlar majlisi, davlat yoki vazirlik mahkamasi idorasi. Davlat bosh idorasi kotibi ham devon deb atalgan. Devoni oliy – oliy devon, devonlar boshlig'i, bosh devon.

jabr-zulm etib, ularni xarob qilgan bo'lsalar, ishlariga loyiq jazo berilsin. Agar biror kimsaning gunohi isbotlangandan keyin undan jarima olsalar, boshqa yana darra bilan urilmasinlar. Agar darra urish bilan jazolansalar, undan jarima olmasinlar" [2, 106-b.].

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Amir Temur raiyatni himoya qilishni qonun bilan mustahkamlagan, agarda dorug'alar va hokimlar xalqqa zulm qilgan bo'lsa, qilgan ishlariga loyiq jazo berilgan. Ayni vaqtda mansabdorlar tomonidan sodir etilgan ma'muriy yoki jinoiy huquqbuzarlikka jazo tayinlash alohida nazoratga olingan.

Amir Temur davlatida sud-huquq tizimi ixtisoslashgan bo'lib, qozilik mansabi saltanatdagi eng nufuzli va mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblangan. "Temur tuzuklari"da lashkarlar uchun maxsus qozi raiyat uchun alohida qozi tayinlagani keltiriladi [7, 80-b.]. Mazkur davrda davlatda sudlar ixtisoslashgan bo'lib, ularning uch xil turi mavjud edi.

Birinchisi, lashkar qozisi. Bu qozilik harbiylar masalalarga oid jinoyat va nizoli masalalarni ko'rgan.

Ikkinchisi, shariat qozisi, u shariat bilan bog'liq jinoyat va nizolarni ko'rib chiqqan.

Uchinchi qozilik dunyoviy-fuqarolik va davlatga tegishli bo'lgan masalalarni, masalan, o'g'rilik, moliyaviy va ma'muriy sohalarga oid ishlarini ko'rgan [27, 146-b.].

Qayd etganimizdek, sudlov ishlari qozilar tomonidan amalga oshirilib, sud tizimi shariat, fuqarolik, harbiy sudlarga bo'lingan. Harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar qozi askar deb atalgan harbiy sud tomonidan ko'rilgan. Aybdor harbiylarning ishlarini ko'rish taniqli va ilm-ma'rifatli beklar, amirlardan iborat harbiy kengash zimmasida bo'lgan [48, 15-b.]. Urf-odat ishlarini esa ahdos qozisi ko'rib chiqqan.

Butun davlat bo'yicha odil sudlov holatiga qozikalon (oliy sudya) javob berib, raiyat qozilari faoliyati ustidan nazorat qilgan. Sohibqiron davlatda qozilar adolatli va qonuniy hukmlar chiqarishini talab etgan. Agar tomonlardan biri qozining chiqargan qarori yoki hukmidan norozi bo'lsa, davlat boshlig'iga shikoyat qilishga haqli bo'lgan.

Sud jarayoni tortishuv xarakteriga ega bo'lib, tomonlarning o'zlari ayblovchi va oqlovchi xarakteridagi dalillar to'plab, guvohlar keltirgan. "Temur tuzuklari"da: "Yana buyurdimki, g'arazgo'y, nafi buzuvchi kimsalarning tuhmati bilan katta va kichik shaharlar aholisidan hech kimni jazolamasinlar. Faqat gunohi to'rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa, gunohiga yarasha jazolasinlar", – deyiladi [7, 138-b.].

Professor Shohistaxon O'ljayevaning qayd qilishiga ko'ra, shahzodalar, Chig'atoy amirlari va zodagonlarning qonunga xilof ishlarini ko'ruvchi amaldor yarg'uchi deb atalgan. U oliy tribunal sudida faoliyat yuritgan [49, 24–26-b.; 28, 134-b.].

Yana bir manbada asilzodalar bilan bog'liq ishlarni ko'ruvchi maxsus sud – ixdom qozisi bo'lgani keltiriladi [50, 178-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Qozilar davlatning sud, huquq-tartibot ishlarini muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynagan hamda qonun ustuvorligi, uning barchaga barobarligini ta'minlashda katta ta'sirga ega bo'lgan.

Professor Ubaydulla Tadjixanov va akademik Akmal Saidovlarning bildirishicha, Amir Temur davlatida alohida muassasa – adolat devoni bo'lgan. U asosan davlatga



qarshi jinoyatlar, boshqarish tartibiga qarshi jinoyatlar va mansabdorlik jinoyatlarini ko'rib, tegishli jazo tayinlagan [50, 178-b.].

Bundan tashqari, har bir viloyat va shaharlarda adolat amiri bo'lib, u shu hududning adliya ishlarini nazorat qilib turgan.

“Temur tuzuklari”da “Hukm qildimki, bir kishini arzbegi qilib tayinlasinlar. U sipoh, raiyat va arz-dod qilib (huzurimga keluvchilarning) ahvolini, mamlakatning obod-xarobligini, muhim ishlardan qaysi biri bitgan-bitmaganini mening arzinga yetkazib tursin”, – deyiladi [7, 124-b.].

Temur raiyatining ariza va takliflarini e'tiborsiz qoldirmaslik ularning ahvolidan doimo xabardor bo'lib turish maqsadida arizalar bilan shug'ullanuvchi maxsus mansabdor arzbegi (dodxoh) tayin etgan. Dodxohning davlat kengashida alohida o'rni bo'lgan. Uning vazifasi arz bilan kelganlarni tinglab, masalani odilona hal qilishdan, ularni ba'zi bir o'ta muhimlarini Sohirqiron huzurida adolatli hal etishdan iborat bo'lgan.

Kelib tushgan murojaatlar tegishli tartibda o'rganilib, qonunbuzilishlar o'z vaqtida bartaraf qilingan, qolaversa, murojaatchining huquqlari tiklangan. Chunonchi, biror kishiga zulm, adolatsizlik qilingan bo'lsa, maxsus vakillar-aminlar (ya'ni ishonchli vakillar)⁴ tomonidan joylarga borib o'rganilib, tegishli chora ko'rganini hamda adolat tiklanib, o'sha yer xazinasidan ularga to'lov ajratib qaytganini, aminlar o'zlari taftish qilgan ishlari, ko'rilgan choralar haqida keyin yozma hisobot bergani manbalarda keltiriladi [35, 192-b.].

Bundan tashqari, Amir Temur har gal safardan qaytganda Samarqand aholisining ahvolidan xabar olgan va ma'lum kunlarda murojaatchilarni qabul qilgan. Ariza, shikoyat, taklif bilan kelganlarni qabullari arzbegi tomonidan tashkillashtirilgan. Shu orqali qabul vaqtida shahar hokimi va amaldorlar oddiy xalqqa nisbatan qanday muomala qilayotganini bilib olgan.

Sohirqiron o'tkazgan qabullardan biri to'g'risidagi ma'lumotlar bugungi kungacha saqlanib qolgan. Unda yozilishicha, dehqonlardan bir guruhi miroblar ishidan norozi bo'lgan. Negaki miroblar ariqlarni to'sib, kim pora bersa, shunga suv ochib bergan, porasiz hech kimga suv bermay qo'yishgan. Amir Temur bu qing'irlikni odam o'ldirish kabi og'ir jinoyat bilan teng deb hisoblagan. Shu sabab bu og'ir jinoyatni ko'rib chiqishda xolis kishilarni – sayyidlarni chaqirib, ular bilan maslahatlashgan. Ular ishtirokida o'z nafsiga qul bo'lgan miroblarga odil hukm chiqarib, aybdorlarni Zarafshon daryosiga tashlab yuborishga farmon bergan ekan [51].

Umuman olganda, “Temur tuzuklari”dan anglashiladiki, davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlik muhim bo'lgan. Ichki ishlar organlari mansabdorlari yasag'lik deb atalgan, ular davlat va jamiyatning tinchligini saqlashga mas'ul bo'lib, jinoyatlarni ochishga muhim ahamiyat kasb etgan.

Amir Temur davlatida voqeanavislarning mavqeyi katta bo'lgan. Ular har bir mamlakat, viloyat, shahar, qishloqlarda bo'lib, u yerda bo'layotgan voqealar haqida davlat boshlig'ini xabardor qilib turgan [50, 178-b.]. Shu bilan birga, xabargirlar

⁴ Amin – lug'aviy ma'nosi ishonchli kishilar; asosan moliya-qishloq xo'jaligini boshqarish ishlari bilan shug'ullanuvchi davlat devoni (idorasi) tomonidan belgilanadigan amaldor.

jinoyatlarning sodir etilgani va adolatli jazolar qo'llanayotgani haqida saltanatning eng chekka yerlaridan ham muttasil yozma ravishda xabar berib turishi shart edi. Agar xabargir biror sipohiy yoki amaldorning ishini yashirsa, yoxud yolg'on xabar yozsa, qilmishi isbotlangach, uning qo'llari kesilgan. Voqealarni ataylab yozmasa, xabargirning barmoqlari kesilgan. Agarda xabarchi yolg'on xabarni tuhmat yoki g'araz bilan yozgan bo'lsa, u qatl etilgan. Xabarlar kunma-kun, haftama-hafta oyma-oyma Amir Temurga yetkazib turilgan. Xabar yozuvchisi (xabarnavis)lar har bir sarhad, viloyat va lashkarlarda tayin qilinganlar hamda ulardan rostlik-to'g'rilik talab qilingan.

Bundan shuni anglash mumkinki, Amir Temur davri sud-huquq tizimi qat'iy qonuniylik va adolat tamoyiliga asoslangan, shu bilan bir qatorda, davlatning mansabdor shaxslari va davlat xizmatchilaridan qonunga qat'iy amal qilishi talab qilingan.

Sohibqiron nafaqat o'z xalqi, balki fath etilgan mamlakatlar xalqini ham qonun himoyasiga olgan edi. Jumladan, Amir Temur o'z nabirasi amirzoda Umar nomiga Mavlono Shamsiddin Munshiy qalami bilan bitilgan farmonida uning zimmasiga yuklatilgan davlat boshqaruvida adolat va qonunga so'zsiz amal qilishi lozimligi ta'kidlangan [22, 383–386-b.].

Shunisi qiziqki, sohibqiron adolat tartibni o'rnatishda, ayni paytda korrupsiyaga qarshi kurashishda ziyolilar ko'magidan ham foydalangan. Xususan, Amir Temur ulamolar bilan suhbatlaridan birida ulardan dorug'a va devonda faoliyati yuzasidan xolislik bilan ma'lumot berishni so'raydi [22, 369–371-b.; 25, 279-b.]. "Zafarnoma"da keltirilishicha, Amir Temur bir guruh taniqli va diyonatli olimlardan tanlab, ularning har birini devoni a'lo tomonidan bir amin bilan mamlakat chekkalaridan biriga yuborishga farmon beradi "... toki ular tayin etilgan tomonga jo'nab, mamlakat ishlarining tagiga yetsinlar, agarda biron-bir mazlumga zulm yetgan bo'lsa, yoki biron o'jizga zo'ravonlik ravo ko'rilgan bo'lsa, zarar tikanini mazlumlar oyog'idan chiqarib, ulardan zo'rlik bilan olingan narsa isbot qilinsa, o'sha tomondan bo'lgan xazina molidan ularga qaytarib berilsin, bo'lgan ahvolni yozib qaytsinlar va arz izzatgohiga yetkazsinlar, toki bundan keyin u (zulm) qoidalarini ulardan yiroqlashtirsinlar [22, 370–371-b.; 25, 278–279-b.; 52, 12-b.].

Amir Temur ulardan har kim nimani bilsa bexavotir yetkazishini, olingan ma'lumotlarni to'la ishonch bilan ochiq ko'rsatishni va beparvolik qilmaslikni so'ragan [22, 370–371-b.; 25, 278–279-b.; 52, 12-b.].

Bu bilan Amir Temur korrupsiyaga qarshi kurashda ilm ahlining faolligi muhim o'ringa ega deb hisoblagan hamda oshkoralik va jamoatchilik nazoratiga keng yo'l ochib berishni maqsadga muvofiq, deb bilgan. Shu bilan bir qatorda, korrupsiya bo'yicha "xabar beruvchi"lar xavfsizligini ta'minlagan degan xulosaga kelish mumkin.

Amir Temur mamlakatda soliq yig'ishda suiiste'mollik bo'lishini yaxshi anglab, bu yo'nalishda suiiste'molliklarning oldini olishda nazorat tizimini joriy qilgan, jumladan, bekor qilingan soliq turlari hamda soliq to'lovchidan qo'shimcha tarzda soliq yig'ish taqiqlangan, yig'ilgan soliqlar hisob-kitob qilinib yozib borilgan.



“Temur tuzuklari”da “Yana har o’lkaga uch vazir tayinlashni buyurdim. Bularning biri raiyat uchun bo’lib, undan olinadigan oliq-soliqlarning undirilishini kuzatib, hisobotini olib borsin. Oliq soliq miqdori, soliq to’lovchilarning nomlarini yozib borsin va raiyatdan yig’ilgan mablag’larni saqlasin”, – deyiladi [7, 123–124-b.].

Amir Temur davlatda davlat xizmatchilariga tegishli tartibda maosh belgilab, maoshlar devonbegi va vazirlarning tasdig’i bilan berilgan. Jumladan, “Temur tuzuklari”da “Sipohiylarning har biriga maosh olish yorlig’i topshirilsin. Ularga berilgan mablag’ miqdori shu yorliqning orqasiga yozib qo’yilsin”, – deyiladi.

Amir Temur davlatda mulozimlar maoshini qat’iy belgilagan va ulardan suiiste’mollikka yo’l qo’ymasligi talab qilingan. Jumladan, davlat xizmatchilari raiyatdan ortiqcha soliqlar, xarajatlar yig’ishi, bundan tashqari, ulardan sovg’a-salomlar olishi taqiqlangan.

Bu borada O’zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov ilmiy badia shaklida yozilgan “Amir Temur siymosi” romanida shunday yozadi: “Soliqlar chingiziylar davrida ot mingan amaldor kelsa, unga sovg’a berish, elchilar, choparlar kelsa, ularni xalq hisobiga mehmon qilish, hatto podshohlar beradigan ziyofatlar uchun aholidan pul yig’ish odatlarini ba’zi amaldorlar Turonda mustaqillik davrida ham qo’ymas edilar. Shuning uchun Amir Temur mo’g’ullardan qolgan bu sarqit urf-odatlardan qutulish haqida o’z amaldorlariga qayta-qayta buyruq berar va uni bajarmaganlarni jazoga tortardi. Ayniqsa, raiyatni haqorat qiladigan, kaltaklaydigan amaldorlarga Amir Temur ayovsiz jazo berardi”. Bu haqda “Temur tuzuklari”da “Raiyat bilan bo’lgan muomalada ularga nisbatan xolis bilan ish tutilsin”, – deyiladi [7, 138-b.]. “Temur tuzuklari”da yana shunday deyiladi: “Yana hukm qildimki, (vazirlarni) ortiqcha siylanmasinlar, chunki alohida izzat-ikrom ko’rsatib, o’zlarini obro’sizlantirib qo’yishlari mumkin. Bu esa saltanatga ziyon yetishiga sabab bo’lur”.

Shuningdek, “Sipohiylardan biron kishi raiyatning xonadoniga zo’rlik bilan kelib tushmasin, raiyatning ot-ulovlarini tortib olmasin” deb belgilangan va bunga yo’l qo’yilmagan [7, 128-b.].

Fransuz temurshunosi Marsel Brion esa o’zining “Menkim, Sohibqiron – Jahongir Temur” asarida Amir Temurning saltanat boshqaruvidagi mansabdor shaxslar qo’l ostidagi xodimlar va xalqqa nisbatan tamagirlik qilmasliklari uchun ularning moliyaviy ta’minotiga alohida e’tibor berib turganini qayd etadi. Mazkur asarda yozilishicha, 1369-yil Choch (Toshkent) uchun jangda Amir Temur Choch hokimi O’lja Toy Muhammadni yengadi va qattiq yaralanadi. Yarador bo’lib yotgan vaqtida nasihat tarzidagi o’z esdaliklarini yozadi. Unda shunday satrlar bor:

“... agar askar, soqchi yoki mirshab fuqarolardan bir nima olsa-yu, el qatori pulini to’lamasa, vakolatini suiiste’mol qilsa, nafaqat bosh kiyimi, balki boshidan ham ajraladi. ...Soliq sohasida soliqchilarim tomonidan sodir qilingan har qanday suiiste’molchilikka nisbatan shafqat qilmadim” [53, 71-b.; 54].

Amir Temur yana o’tkinchi yo’lovchilar mol-mulkларini talon-toraj qilishning oldini olish maqsadida navkar tayinlatgan. Bu borada “Temur tuzuklari”da “Har bir shahar va qishloqqa kutvol tayinlansinlarki, sipoh-u raiyatga soqchilik qilsin, kimning biron narsasi o’g’irlansa, buning mas’uliyati uning zimmasida bo’lsin”, – deyiladi. Davlatdagi

asaslar⁵ esa tunda fuqarolar tinchlik-xotirjamligini saqlashga mas'ul bo'lgan. Bu tadbirlar, o'z navbatida, jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qilgan.

Xulosalar

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, Amir Temur davlati adolatli, qonun ustuvorligiga asoslangan, adolat mezonlari, to'ra va tuzuklar asosida qurilgan. "Temur tuzuklari"da mansabdorlar suiiste'molligining oldini olishda quyidagi qoidalarni o'rnatgan:

1) Amir Temur davlatda qonun ustuvorligi va qonun oldida barchaning tengligi, jazo muqarrarliligi, odillik ta'minlangan. Shuningdek, har bir mansabdor shaxsning huquq va burchlari qat'iy, aniq belgilab qo'yilgan. Jinoyatga qo'l urgan har qanday kishi jazosiz qoldirilmagan, ayni paytda aybsiz kishini himoya qilib, uni jazolashga yo'l qo'yilmagan;

2) davlat xizmatchilariga tegishli tartibda maosh berilgan, o'z navbatida, suiiste'mollikka yo'l qo'ymagan. Jumladan, sipohiylardan biron kishi zo'rlik bilan fuqarolarning uylariga ko'chib o'tishga va ularning mollari va otlarini olib ketishiga yo'l qo'yilmagan va bu taqiqlangan;

3) soliq siyosatini tartibga solish, jumladan, xalqdan qo'shimcha yoki bekor qilingan soliq yig'ish taqiqlangan hamda to'langan soliq miqdorlari yozib borilgan;

4) g'azna mablag'larini suiiste'mol qilish yoki qisman o'zlashtirish holatlarida Moliya vaziriga alohida sanksiyalar qo'llangan;

5) sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan xabargirlar tomonidan xabar berib turish institutini yo'lga qo'yan, bu esa, korrupsiyaviy jinoyatlarning ochishda ham jazo muqarrarliligini ta'minlashda muhim bo'lgan;

6) "Temur tuzuklari"da jinoyatchilarga nisbatan chora qo'llashda o'ta adolatli yondashganini, aybi isbotlangach, javobgarlikka tortilganini ko'rishimiz mumkin;

7) Amir Temur qat'iy choralarni yirik mansabdorlarga nisbatan ham qo'llagan va mansabdorlar tomonidan jinoyatlarga jazo tayinlash alohida nazoratga olingan. Davlat amaldorlarining suiiste'molliigi va poraxo'rliigi eng xavfli jinoyat hisoblangan va mansabidan qat'i nazar qonun oldida javobgarlikka tortilgan. Bunday jinoyatlar uchun hatto o'lim jazosi qo'llangan. Temur lavozimini suiiste'mol qilib, davlat va xalq haqiga xiyonat qilgan shaxslarni qanday mansab egasi bo'lishidan qat'i nazar, jazosiz qoldirmagan;

8) shu bilan birga "Tuzuklar"dan anglashiladiki, ba'zi bir jinoyatlar uchun (*masalan, o'g'rilik*) "Yaso" qonunlari bo'yicha jazo berilgan.

Amir Temur davlatda huquq-tartibotni mustahkamlash, undagi ijtimoiy munosabatlarni qat'iylik bilan, qonun-qoidalar asosida tartibga solganini, barcha mansabdorlarning hisobdorligi hamda ularning faoliyatlari ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilganini, davlat xizmatlarining barcha uchun ochiqqligini ko'rib chiqdik. Shuningdek, Amir Temur davlatda korrupsiya va poraxo'rlikning ildizini qirqish maqsadida o'ziga xos tadbirlar ishlab chiqqaniga guvoh bo'ldik.

⁵ Asaslar – kecha qorovullari, qidiruv ishlari boshliqlari.



REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutqi [Speech of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, at the Ceremony of Awarding a High International Award in the Field of Combating Corruption]. *Xalq So'zi Newspaper*, 2023, vol. 271/8614.
2. Qadimgi dunyo tarixi II qism [History of the Ancient World, Part II] Tashkent, O'qituvchi Publ., 1975, p. 103
3. Muqimov Z. Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi [History of the State and Law of Foreign Countries] Tashkent, Akademnashr Publ., 2012, p. 36.
4. Abdurasulova Q.R. Korruptsiya jinoyatchiligining umumiy tavsifi, sabablari va oldini olish [General Characteristics, Causes, and Prevention of Corruption Crime]. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Axborotnomasi*, 2018, vol. 4/36, pp. 5–8.
5. Kosmin A.D., Kuznetsova O.P. Korruptsiya kak forma preobrazovaniya sotsial'no znachimyykh personifitsirovannykh statusnykh pozitsiy i moduley sovokupnogo sotsial'nogo kapitala [Corruption as a Conversion Form of Socially Significant Personalized Status Positions and Modules of Aggregate Social Capital]. Moscow, 2015, p. 7.
6. Ahmedov B. Amir Temur: Tarixiy roman [A Historical Novel]. Tashkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, Publ., 1995, p. 640.
7. Temur tuzuklari [Temur's Codes]. Tashkent, "Uzbekistan", Publ., 2019, p. 184.
8. Mo'minov I.M. Tanlangan asarlar [Selected Works]. Tashkent, Fan Publ., 1969, vol. 1, p. 469.
9. Mo'minov I.M. Amir Temur O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli [The Role and Position of Amir Temur in Central Asian History]. Tashkent, Fan Publ., 1993.
10. Amir Temur saboqlari "Amir Temur va inson manfaatlari" [Lessons of Amir Temur "Amir Temur and Human Interests"]. Tashkent, 1998.
11. Muqimov Z.Y. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi [History of the State and Law of Uzbekistan]. Tashkent, Navro'z Publ., 2013, p. 476.
12. Muqimov Z.Y. Amir Temur tuzuklari [Amir Temur's Codes]. Samarqand, SamDU Publ., 2008, p. 131.
13. Boboyev H. Temur Tuzuklari va undagi siyosiy-huquqiy ta'limotlar [Temur's Codes and Its Political-Legal Teachings]. Tashkent, Fan Publ., 1996.
14. Kolenko Ye.V., Malikova G.R. Gde tonko, tam i revetsya, ili Retrospektivniy analiz istorii korruptsii [Where It Is Thin, There It Breaks, or Retrospective Analysis of the History of Corruption]. *Journal of Foreign Legislation and Comparative Law*, 2021, vol. 17, no. 6.
15. Turaxonov D. Pora berish uchun javobgarlikning tarixiy tahlili [Historical Analysis of Liability for Bribery]. *O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi Axborotnomasi*, 2024, vol. 1/57, pp. 20–26.
16. Ahmedov B. Amir Temur saboqlari: Amir Temur va uning markazlashgan davlat tuzish yo'lidagi buyuk xizmatlari [Lessons of Amir Temur: Amir Temur and His Great Service in Creating a Centralized State]. Tashkent, 2001, p. 16.

17. Ahmedov A., Ahmedov B. Amir Temur jahon tarixida [Amir Temur in World History]. Tashkent, Sharq Publ., 2006, p. 336.
18. Ermatov B.S. G'arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotlarida Amir Temur siymosi (Sarchashmalar, tasavvur va talqinlar) [The Image Of Amir Temur in The Literatures of Western European Countries (Origins, Perception and Interpretations)]. Tashkent, 2019, p. 232.
19. Keren L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya [Amir Temur and France]. Tashkent, Adolat Publ., 2016, p. 560.
20. Keren L. Amir Temur saltanati [Empire of Amir Temur]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2018, p. 248.
21. Keren L. Amir Temur saltanati [Empire of Amir Temur]. Tashkent, Ma'naviyat Publ., 1999, p. 224.
22. Nizomiddin S. Zafarnoma [Zafarnama]. Tashkent, O'zbekiston Publ., 1996, p. 527.
23. Raxmatullayeva A. O'zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi [Historiography of the Life and Activity of Amir Temur in Uzbekistan]. Tashkent, 2010, p. 175.
24. Rahimov J. Adolat va qudrat timsoli [Symbol of Justice and Power]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 2017, p. 384.
25. Sharafuddin A.Y. Zafarnoma [Zafarnama]. Tashkent, Sharq Publ., 1997, p. 384.
26. O'ljayeva Sh. XX asrning 50-60-yillarida Amir Temur va Temuriylar davlati tarixshunosligi [Historiography of the State of Amir Temur and the Timurids in the 1950s-60s]. Tashkent, 1999, p. 154.
27. O'ljayeva Sh. Amir Temur davlat boshqaruvi [State Governance in the State of Amir Temur] Tashkent, Akademnashr Publ., 2017, p. 248.
28. O'ljayeva Sh. Amir Temur saltanatida milliy davlatchilikni rivojlanishi. [Development of National Statehood in the State of Amir Temur]. Tashkent, 2008, p. 297.
29. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi [History of Uzbek Statehood and Governance] Tashkent, 2012.
30. Shirinov T. Tariximiz etyudlari-Etyudi nashey istorii [Studies of Our History]. Tashkent, Sharq Publ, 2014, p. 336.
31. Rui de G.K. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. Buyuk Amir Temur tarixi (1403-1406) [Amir Temur in the Eyes of European Ambassadors. The History of Great Amir Temur (1403-1406)]. Gafur G'ulom Publ., 2007, p. 208.
32. Rui G.K. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi [Diary of a Journey to Samarkand – to the Court of Amir Temur]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2010, p. 264.
33. Nokovitch M. Pluie d'or sur Samarkand. Paris, Delville Publ., 1993, p. 323, p. 16, p. 214.
34. Hilda H. Yetti iqlim sultoni [The Sultan of Seven Climates] Tashkent, Adolat Publ., 1999, p. 320.
35. Azamat Z.H. O'zbek davlatchiligi tarixidan. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar [From the History of Uzbek Statehood. From Ancient Times to the Russian Invasion]. Tashkent, 1999, p. 339.



36. Sindarov K. Amir Temur davlatida tadbirkorlik rivoji [Development of Entrepreneurship in the State of Amir Temur]. *Huquq va burch*, 2008, vol. 4, pp. 14–16.
37. Arabshoh. Ajoib al makdur-fi tarixi Taymur [Aja'ib al-Maqdur fi Tarikh-i Taymur]. Tashkent, Mehnat, Publ, 1992, p. 192.
38. Asnod va makotib [Asnod va Makotib] Tehran, Abdulhusayn Navoiy Publishing, 1370, p. 128.
39. Ahmedov B. Amir Temur darslari [Lessons of Amir Temur]. Tashkent, Sharq Publ., 2001, p. 144.
40. Azamat Z. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar [History of Uzbek Statehood. From Ancient Times to the Russian Invasion]. Ahmedov B. (Ed) Tashkent, Sharq Publ., 2001, p. 368.
41. Davlatshoh S. Shoirlar bo'stoni [Garden of Poets]. Tashkent, Adabiyot va san'at Publ., 1981, p. 224.
42. Muhammad Ali. Amir Temur chamani [Amir Temur's Garden]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2006, p. 216.
43. Rui G.K. Amir Temur Ispaniya elchisi nigohida [Amir Temur Through the Eyes of the Spanish Ambassador]. Tashkent, Zamin nashr Publ., 2019, p. 176.
44. O'ljayeva Sh. Kuch adolatda [Justice in Strength]. *Huquq va burch*, 2008, vol. 4.
45. Amir Temur Ko'ragon. Temur qissasi [Amir Temur Koragon. The Story of Temur]. Tashkent, Fan Publ., 2004. Available at: www.ziyouz.com
46. Qissai Temur (Malfuzoti Temuriy) [The Story of Temur (Malfuzoti Temuriy)]. Tashkent, 2000, p. 38. p. 46. p. 103
47. Xidirov S. Amir Temur davlatining tashkil topishi va davlat tuzumi. [Formation of the State of Amir Temur and its Governance]. Tashkent, 2002, p. 192.
48. Juzjoniy A. Amir Temurning huquqiy qarashlari [Legal Views of Amir Temur]. *Hayot va Qonun*, 1997, vol. 7.
49. O'ljayeva Sh. Saltanatning xos tuzugi [Special Codes of the State]. *Huquq va burch*, 2014, vol. 4.
50. Tadjixanov U, Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi [Theory of Legal Culture]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 1998, vol. 2, p. 316.
51. Yo'ldoshev I. Amir Temur poraxo'rlarni qanday jazolagan? [How Amir Temur Punished the Corrupt?]. Available at: <https://hidoyat.uz/53692>
52. Ziyoyev H. Tarixning ochilmagan sahifalari [Unrevealed Pages of History]. Tashkent, Mehnat Publ., 2003, p. 232.
53. Marsel B. Menkim, Sohibqiron – Jahongir Temur [I am Sahibqiron – The World Conqueror Temur] Tashkent, Yangi Asr Avlodi Publ., 2013, p. 572.
54. Umarov T. Korruptsiyaviy tavsifdagi jinoyatlarga qarshi kurashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: milliy va xorijiy tajriba [Improving the Organizational-Legal Framework for Combating Corruption Crimes: National and Foreign Experience]. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari Axborotnomasi*, 2013, vol. 1/13, pp. 1–4.

55. Ahmedov B. Amir Temur haqida hikoyalar [Stories about Amir Temur]. Tashkent, Yozuvchi Publ., 1998, p. 96.
56. Badirov A.J. Amir Temur davlatida qonunchilik [Legislation in the State of Amir Temur]. Samarqand, 1996.
57. Ermatov B. Amir Temur G'arbiy Yevropa adiblari nigohida [Amir Temur in the Eyes of Western European Writers]. Tashkent, Navro'z Publ., 2019, p. 256.
58. Qodirov P. Amir Temur siymosi [The Image of Amir Temur]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2007, p. 248.
59. Boboyev H. O'zbek davlatchiligi tarixi [History of Uzbek Statehood]. Tashkent, Fan Publ., 2004, vol. 1.
60. Mamatov X.T. Temur tuzuklarida davlat va huquq masalalari [State and Law Issues in Temur's Codes]. Tashkent, 2002.
61. Muhammad A. Amir Temur solnomasi [Chronicles of Amir Temur]. Tashkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi Publ., 2009, p. 56.
62. Avdiev V.I. Qadimgi Sharq tarixi [History of the Ancient East]. Tashkent, 1964, p. 298.

Kelib tushgan / Получено / Received: 14.11.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 28.11.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.4./VLSD9552
UDC: 349.2(045)(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHGA QABUL QILISH JARAYONIGA KORRUPSIYANING SALBIY TA'SIRI

Yusupov Nodirbek Abdujalilovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Mehnat huquqi kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0003-2352-7254
e-mail: nadir.3341426@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ishga qabul qilish jarayonida kuzatiladigan korrupsiyaning salbiy ta'sirlari batafsil yoritilgan. Xususan, korrupsiyaning mehnat bozori, ijtimoiy adolat tamoyillari va iqtisodiy rivojlanishga zararli ta'siri atroflicha tahlil qilingan. Ishga qabul qilish jarayonida korrupsiya sodir etilganda, malakasiz xodimlarning yollanishi yuzaga keladi. Bu esa ish unumdorligining pasayishiga olib kelib, davlat tashkilotlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada jamiyatda adolatsizlik va norozilik darajasi oshadi. Korrupsiya davlat va xalq o'rtasidagi ishonchning suiiste'mol bo'lishiga sabab bo'ladi hamda davlat tashkilotlari obro'siga putur yetkazadi. O'zbekiston Respublikasida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini kuchaytirish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur maqolada korrupsiyaning oldini olish uchun qonunchilikni kuchaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali nazoratni kuchaytirish kabi choralar taklif etiladi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonda ishga qabul qilish jarayonida korrupsiyani kamaytirish va tizimni yanada adolatli qilishga erishiladi. Shuningdek, maqolada respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar, ushbu sohadagi davlatimiz siyosati hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlatimiz qonunchiligi va xalqaro qonun hujjatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ishga qabul qilish, jamiyat, korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, konvensiya, normativ-huquqiy hujjatlar, jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati institutlari

НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ КОРРУПЦИИ НА ПРОЦЕСС ПРИЁМА НА РАБОТУ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Юсупов Нодирбек Абдужалилович,
преподаватель кафедры «Трудовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье подробно описаны негативные последствия коррупции, наблюдаемые в процессе приёма на работу в Республике Узбекистан. В частности, детально проанализировано пагубное влияние коррупции на рынок труда, принципы социальной справедливости и экономическое развитие. Если в процессе приёма на работу возникает коррупция, как следствие – наём неквалифицированных сотрудников. Это негативно сказывается на деятельности государственных организаций, приводя к снижению производительности труда. В результате в обществе растёт чувство несправедливости и недовольства. Коррупция способствует злоупотреблению доверием между государством и народом, а также наносит ущерб репутации государственных организаций. В Республике Узбекистан создаются необходимые условия для установления эффективного и действенного общественного контроля в государственном управлении путём обеспечения открытости, гласности и прозрачности деятельности государственных органов и организаций, а также усиления подотчётности должностных лиц перед населением. В результате этих мер будет достигнуто снижение коррупции при приёме на работу в Узбекистане и повышение справедливости системы. В статье также рассмотрена работа, проводимая в республике в сфере противодействия коррупции, политика нашего государства в этой области, а также национальное и международное законодательство в области противодействия коррупции.

Ключевые слова: наём, общество, коррупция, противодействие коррупции, конвенция, нормативные акты, общественный контроль, институты гражданского общества

THE NEGATIVE IMPACT OF CORRUPTION IN THE RECRUITMENT PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Yusupov Nodirbek Abdujalilovich,
Teacher of the Department of Labor Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article provides a detailed account of the negative effects of corruption in the recruitment process in the Republic of Uzbekistan. In particular, the harmful impact of corruption on the labor market, the principles of social justice, and economic development has been thoroughly analyzed. When corruption is committed



during the recruitment process, the recruitment of unqualified employees occurs. This leads to a decrease in labor productivity and negatively impacts the activities of state organizations. As a result, the level of injustice and discontent in society increases. Corruption causes abuse of trust between the state and the people and undermines the reputation of state organizations. The necessary conditions in the Republic of Uzbekistan are being created for establishing effective public control in public administration by ensuring openness, transparency, and accountability of officials to the population in the activities of state bodies and organizations. This article proposes measures to strengthen legislation to prevent corruption, ensure openness and transparency, and strengthen control through the use of information technologies. As a result of these measures, it will be possible to reduce corruption in the recruitment process in Uzbekistan and make the system more equitable. The article also examines the work carried out in the republic in the field of combating corruption, the state policy in this area, as well as the legislation of our country and international legislation in the field of combating corruption.

Keywords: *recruitment, society, corruption, fight against corruption, convention, legal documents, public control, civil society institutions*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Biroq mamlakatda korrupsiya hali ham dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Korrupsiya iqtisodiy o'sish, davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotini sekinlashtiruvchi eng jiddiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lib, uning ko'lami turli sohalarda sezilarli darajada oshib bormoqda. Xususan, davlat tashkilotlariga ishga qabul qilish jarayonida uchraydigan korrupsiya mamlakatning adolat tamoyillariga asoslangan rivojlanish maqsadlariga putur yetkazmoqda [1].

Korrupsiya muammosi ishga qabul qilish tizimiga ta'sir ko'rsatganda, jamiyatda bir qator salbiy oqibatlar yuzaga keladi. Agar ishga qabul qilish jarayonida malaka va qobiliyat emas, balki tanish-bilishchilik yoki pora kabi omillar ustun qo'yilsa, malakasiz, tajribasiz yoki lavozimga mos kelmaydigan shaxslar ishga olinishi mumkin. Bu holat ish joyidagi samaradorlik va sifatning pasayishiga olib keladi hamda davlat tashkilotlarining samarali faoliyatiga jiddiy zarar yetkazadi. Natijada aholining teng imkoniyatlar tamoyiliga bo'lgan ishonchi susayadi va jamiyatda norozilik kayfiyati kuchayadi.

2003-yilda qabul qilingan BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi ko'plab davlatlarda, jumladan, Daniya, Norvegiya, Islandiya, Latviya, Gruziya, Buyuk Britaniya, Birlashgan Arab Amirliklarida ommaviy va ichki idoraviy korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni shakllantirishga turtki bo'ldi. Biroq xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha reytingi past davlatlarda ushbu mexanizmlar makro va mikro darajada qabul qilinmagan yoki ba'zi davlatlarda qabul qilingan bo'lsa-da, samarali yo'lga qo'yilmagan. Bu esa sohaga oid tadqiqotlar o'tkazish va mavjud muammolarni bartaraf etishni dolzarb masalaga aylantirmoqda [2].

Jahonda korrupsiyani cheklash va uni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy va idoraviy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishda hukumatlar faqat ba'zi elitalar manfaatlarini emas, balki butun jamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi zarurligi ta'kidlanmoqda. Shu bilan birga, davlat sektorida korrupsiya jinoyatlarining o'sish tendensiyalarini tahlil qilish va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish masalalari ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda [3].

O'zbekiston Respublikasi davlat tashkilotlariga yuqori malakali va bilimli kadrlarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Ammo ishga qabul qilish jarayonida korrupsion amaliyotlarning mavjudligi nafaqat davlat tizimi samaradorligi, balki fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa uzoq muddatda davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchli munosabatlarga putur yetkazishi mumkin [4].

Ishga qabul qilish jarayonidagi korrupsiya, ayniqsa, yoshlar uchun katta muammo tug'dirmoqda. Mamlakat kelajagi bo'lgan yosh avlod o'z bilimi va salohiyati bilan davlat xizmatiga kirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Ammo davlat xizmatiga yollashda adolatsizlik va tanish-bilishchilik kuzatilmoqda, bu esa yoshlarning qobiliyati va salohiyati e'tiborsiz qolishiga olib kelmoqda. Natijada ko'plab yoshlar o'z imkoniyatlarini chet elda sinab ko'rishga majbur bo'lmoqda [5].

Bundan tashqari, ishga yollashdagi korrupsiya ijtimoiy adolatni poymol qilib, jamiyatda norozilik kayfiyatini kuchaytiradi. Odamlar davlat idoralarida yuqori lavozimlarda ishlayotganlarning aksariyati o'z qobiliyatiga emas, balki korrupsion yo'llar bilan ishga kirganini ko'rganda, davlat va qonunlarga bo'lgan ishonchi yo'qoladi. Natijada bu holat ijtimoiy barqarorlikka jiddiy tahdid soladi.

Korrupsiyaning ishga qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida davlat miqyosida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bular orasida davlat tashkilotlariga ishga qabul qilishda shaffoflikni oshirish, ochiq tanlov va test tizimlari joriy etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish kabi amaliy ishlar mavjud. Lekin ushbu islohotlar faqat qog'ozda qolib ketmasligi, balki amaliyotda ham real va jiddiy o'zgarishlarga olib kelishi muhimdir [6].

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa davlatlarda qo'llangan chora-tadbirlar ishga qabul qilish jarayonidagi korrupsiyaga qarshi samarali yechimlar topishga yordam beradi. Masalan, ba'zi mamlakatlarda davlat xizmatiga ishga qabul qilish jarayonida mustaqil nazorat tizimlarini joriy qilish yoki onlayn ariza topshirish tizimlarini tatbiq etish orqali korrupsiyani sezilarli darajada kamaytirishga erishilgan.

Material va metodlar

Tadqiqot davomida mehnat huquqi sohasidagi korrupsion omillar, ayniqsa, ularning raqamlashtirish davrida ishga qabul qilish jarayonidagi o'rni tahlil qilindi. Ishga qabul qilish jarayonidan korrupsiyani bartaraf etish masalasi xorijiy davlatlar



qonunchiligi tahlili asosida o'rganildi. Shuningdek, ishga qabul qilishda korrupsiyani kamaytirish bo'yicha olimlarning fikrlari qiyosiy tahlil qilinib, asosiy yondashuvlar o'zaro taqqoslandi.

Mazkur tahlil asosida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ilgari surildi. Tadqiqotda tahlil qilish, xolislik, qiyoslash, taqqoslash, tizimlilik va umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar jarayonida mehnat bozori ham muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarda ishga qabul qilish jarayoni shaffofligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Afsuski, bugungi kunda ishga qabul qilish jarayonida tanish-bilishchilik, poraxo'rlik va boshqa korrupsion harakatlar keng tarqalgan. Bu kabi holatlar mehnat bozoridagi adolat tamoyillariga putur yetkazib, ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korrupsiya natijasida malakasiz kadrlarning ishga olinishi, iste'dodli yoshlarning imkoniyatlari cheklanishi va jamiyatda davlatga bo'lgan ishonchning pasayishi kabi jiddiy holatlar yuzaga kelmoqda [7].

Tahlillarga ko'ra, ishga qabul qilish jarayonidagi korrupsiya uzoq muddatli rivojlanishga jiddiy tahdid soladi. Masalan, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasida mehnat bozoridagi shaffoflik darajasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar tahlil qilingan tadqiqotda shu narsa ma'lum bo'ldiki, korrupsiya ko'plab iste'dodli yoshlarning davlat xizmatiga kirish imkoniyatlarini cheklaydi. Iqtisodchi olim Akmal Burxanov bu haqda shunday deydi: "Korrupsiya darajasi mamlakat taraqqiyoti va demokratiyasining ko'rsatkichi hisoblanadi" [8].

Bu borada xalqaro tajriba ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Jahon banki tomonidan o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi qat'iy choralar ko'rilmagan davlatlarda ishga yollash jarayonida adolat va shaffoflikka putur yetishi isbotlangan. Xususan, Jahon banki ekspertlari ishga qabul qilish jarayonidagi korrupsiya jamiyatda ijtimoiy norozilikni oshirishi mumkinligini ta'kidlashgan. Ularning fikricha, davlat xizmatiga xodimlar tanlashda korrupsiyaga qarshi samarali tizimlarning yo'qligi jamiyatda korrupsiyaning yuqori darajada saqlanishiga olib keladi. Bu esa uzoq muddatda davlat institutlariga bo'lgan ishonchni pasaytiradi [9].

O'zbekiston Respublikasida olib borilgan yana bir tadqiqotda davlat xizmatidagi kadrlar malakasi va davlatga bo'lgan ishonch darajasiga korrupsiyaning ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishga qabul qilish jarayonidagi korrupsiya ko'plab sohalarda samaradorlik pasayishi va davlat xizmatlari sifatining tushib ketishiga olib kelmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat xizmatida ishga qabul qilishda korrupsiya ijtimoiy adolat tamoyillariga putur yetkazadi. Aksariyat iste'dodli yoshlar va malakali kadrlar adolatsizlik sababli o'z sohasida rivojlanish imkoniyatidan mahrum bo'lmoqda. Xususan, 2023-yilda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki,

35 foiz respondent ishga yollashda tanish-bilishchilik va poraxoʻrlik tufayli davlat xizmatiga kirish imkoniyatini past deb hisoblagan. Shu bilan birga, 47 foiz respondent davlat xizmatiga yollashda shaffoflik va adolat yetishmasligini taʼkidlagan. Ushbu koʻrsatkichlar jamiyatdagi ishonch darajasining pasayishiga olib kelib, davlat tizimlariga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi [10].

Olimlar davlat tizimiga ishga qabul qilishda shaffoflikni taʼminlash zarurligini taʼkidlaydi. Fikrimizcha, “davlat xizmatiga yollashda shaffoflikni oshirish orqali davlat boshqaruvi tizimini samarali qilish mumkin. Shuningdek, korrupsiya orqali ishga qabul qilinadigan malakasiz xodimlar oʻrniga oʻz sohasining yetuk mutaxassislar tanlansa, davlat tizimlari samaradorligi oshadi va aholi orasida davlatga boʻlgan ishonch ortadi” [11].

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish boʻyicha ishlarni jadallashtirishni nazarda tutuvchi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonun (2017), “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi (2023), Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-5177-sonli qarori hamda 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-200-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturida belgilangan vazifalar maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Ishga qabul qilish jarayonidagi korrupsiyaning salbiy taʼsiri haqida xorijlik bir qator olimlar oʻz fikrlarini bildirishgan. Ular ishga yollashdagi korrupsiya davlat boshqaruvi, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligini taʼkidlashgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish idoraviy mexanizmlarining asosiy yoʻnalishlaridan biri norvegiyalik iqtisodchi T. Sereyde tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hisoblanadi. U korrupsiyaning ichki nazorati xodimning qonuniy manfaatlariga zid boʻlmagan qonunchilik normalariga asoslanishi kerakligini taʼkidlagan. Huquq va iqtisod professori S. Rose-Ackermannning fikricha, poraxoʻrlikka qarshi kurashish boʻyicha boshqaruvni yaxshilash oʻrniga qatʼiy jazolar bilan cheklanish qonunbuzarlarning jazolanmasligiga olib kelishi mumkin. Biroq ichki islohotlar va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqish haqiqatda bunday holatlarning oldini olishga yordam berishi mumkin [12].

Donatella Della Porta (Italiya) oʻz tadqiqotlarida ishga qabul qilish jarayonidagi korrupsiya mehnat bozori samaradorligini pasaytirishi va davlat boshqaruvi sifatiga putur yetkazishini taʼkidlaydi. Uning fikricha, korrupsiya tufayli davlat idoralariga malakasiz kadrlar ishga qabul qilinishi jamiyatda adolatsizlikka sabab boʻladi. Bu esa oxir-oqibat davlatga nisbatan ishonchning pasayishiga olib keladi [13].

AQShda Korrupsiya va davlat boshqaruvi boʻyicha yetakchi olimlardan biri Rose-Ackermannning taʼkidlashicha, ishga qabul qilish jarayonida korrupsiya



kuchaygan mamlakatlarda samaradorlik past bo'lib, ijtimoiy adolat tamoyillari buziladi. Davlat xizmatiga malakasiz xodimlar kirishi korrupsiyaning yangi avlodi shakllanishiga olib keladi. Bu esa davlat boshqaruvi tizimini yanada zaiflashtiradi va davlatning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [14].

Bu borada Xalqaro Mehnat Tashkilotida faoliyat yuritayotgan Daniel Kaufmann korrupsiyaning davlat boshqaruvidagi salbiy oqibatlarini tahlil qilib, ishga yollashda adolat va shaffoflik tamoyillari buzilishi natijasida iqtisodiy o'sish sekinlashishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, korrupsiya nafaqat mehnat bozorida adolatsizlikni kuchaytiradi, balki davlat xizmatlariga bo'lgan ishonchni ham pasaytiradi [15].

Buyuk Britaniya korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yetakchi olim Paul Collierning ta'kidlashicha, korrupsiyaga asoslangan ishga qabul qilish davlat boshqaruvi samaradorligini zaiflashtiradi va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi. Adolat tamoyillari asosida tanlov o'tkazish va shaffof yondashuv bo'lmasa, davlat xizmatlari sifati pasayadi. Bu holat, ayniqsa, davlat tashkilotlari orqali iqtisodiyotga ta'sir qiluvchi sohalarda sezilarli bo'ladi [16].

Yuqoridagi fikrlar va tadqiqot natijalari ishga yollash jarayonidagi korrupsiyaning salbiy oqibatlarini chuqur tahlil etishga imkon beradi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatida shaffoflikni oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, malakali kadrlarni ishga qabul qilish jarayonini optimallashtirish maqsadida chora-tadbirlarni kuchaytirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirish lozim. Xalqaro tajribalar va olimlarning fikr-mulohazalari asosida O'zbekiston hukumati bu borada aniq siyosiy strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasida ishga qabul qilish jarayonidagi korrupsiyaning salbiy ta'siri sohalarda o'z aksini topishi mumkin. Yuqorida tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, korrupsiyaning ishga kirish jarayoniga salbiy ta'siri quyidagilarda ko'rinadi.

Birinchidan, iqtisodiyotga zarari, chunki ishga qabul qilish jarayonida korrupsiyaning keng tarqalishi natijasida malakasiz yoki lavozimga mos bo'lmagan shaxslarning davlat xizmatiga qabul qilinishi kuzatiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, malakali va bilimli kadrlarning ishga qabul qilinmasligi davlat tizimi samaradorligini jiddiy ravishda pasaytiradi. Korrupsiya tufayli davlat idoralarida ish sifati pasayib, bu qabul qilinayotgan qarorlar sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi [17]. Masalan, 2020-yilda O'zbekistonda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, davlat xizmatchilari orasida ishga kirish jarayonida korrupsiya bo'lmagan idoralarda samaradorlik 10 foizga yuqori bo'lgan.

Ikkinchidan, ishga qabul qilish jarayonida korrupsiyaning mavjudligi aholining davlatga bo'lgan ishonchini pasaytiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining 45 foizi davlat idoralarida ishga yollash jarayonida korrupsiyaning mavjudligiga ishonadi, bu esa ularda norozilik kayfiyatini oshiradi. Shu bilan birga, 30 foiz respondent davlat idoralarida lavozimlar malakali mutaxassislarga emas, balki tanish-bilishchilik va poraxo'rlik orqali olinayotganiga ishonishini bildirgan [18]. Ushbu ishonchsizlik jamiyatdagi ijtimoiy

adolat tamoyillarini zaiflashtiradi va aholining davlat siyosatiga nisbatan salbiy munosabatini shakllantiradi.

Uchinchidan, korrupsiyaga asoslangan ishga qabul qilish jarayoni yoshlar uchun qiyinchiliklar tug'diradi. Ular oliy o'quv yurtlarida ta'lim olgan bo'lsa-da, davlat xizmatiga kirish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korrupsiya mavjudligi tufayli 25 foiz yuqori malakali yoshlar davlat xizmatidan voz kechib, xususiy sektor yoki xorijda ishlashni afzal ko'rmoqda [19]. Bu esa mamlakatdan aqlli boshlarning chiqib ketishini (brain drain) jadallashtiradi va davlat tizimida yuqori malakali kadrlarga ehtiyojni kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari va xorijiy olimlar fikriga ko'ra, korrupsiyaning oldini olish uchun davlat boshqaruviga kadrlar tanlovini shaffoflashtirish va adolat tamoyillariga asoslangan tanlov tizimlarini joriy qilish muhimdir. Shu o'rinda xalqaro tajribadan foydalanish davlat xizmatlarida korrupsiyani kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Masalan, xalqaro tajribalarga ko'ra, ochiq tanlov va shaffof onlayn tizimlar orqali ishga qabul qilish korrupsiya darajasini pasaytirishda samarali vosita hisoblanadi.

Xulosalar

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rildi.

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligi, jamoat va parlament nazoratini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi [17].

O'zbekiston Respublikasida ishga qabul qilish jarayonidagi korrupsiya nafaqat davlat xizmati samaradorligi, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy adolat tamoyillarini ham zaiflashtiradi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashishda qat'iy choralar ko'rish, shaffof tanlov tizimlarini joriy qilish va davlat xizmatlariga malakali kadrlarni yollash orqali davlat boshqaruv tizimini isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ishga qabul qilish jarayonidagi korrupsiyaga qarshi kurashish uchun quyidagi asosiy qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur. Bu o'zgarishlar davlat xizmatlari tizimida shaffoflikni ta'minlash, korrupsion harakatlarning oldini olish va kadrlarni tanlashda adolat hamda tenglik tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan.

2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunga kadrlar tanlash va ishga qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta'minlash bo'yicha aniq qoidalar kiritish kerak. Ishga qabul qilishda korrupsion holatlarning oldini olish maqsadida davlat idoralarida kadrlar tanlovini nazorat qiluvchi mustaqil komissiyalar tashkil etish shartlarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Davlat xizmatiga kirishda test sinovlari hamda boshqa tanlov jarayonlarini ochiq va kuzatuv ostida o'tkazish talablarini qonuniy asosda mustahkamlash zarur.

2022-yil 8-avgustda qabul qilingan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunga davlat xizmatiga kirishda nomzodlarning malaka, qobiliyat va tajribasini sinchkovlik

bilan baholash tartibini joriy etish hamda har bir jarayonning shaffofligini ta'minlash uchun zarur choralar kiritish zarur. Davlat xizmatiga kirish bo'yicha har qanday tanlovda onlayn monitoring va jamoatchilik nazorati tizimlarini kiritish tartibini qonunda belgilash muhimdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va ishga qabul qilish jarayonida adolatni ta'minlash maqsadida yuqoridagi qonunchilik hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirishlar davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish, adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlashda muhim qadam bo'ladi. Bu, o'z navbatida, davlat tizimiga malakali kadrlarni jalb etadi va davlat xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Ruziyev X. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish davr talabi [Strengthening public oversight in the fight against corruption is a need of the hour].
2. Omonov B. Korrupsiya va milliy taraqqiyot: muammo va yechim [Corruption and National Development: Problem and Solution]. Available at: <https://tuit.uz/post/korrupsiya-va-milliy-taraqqiyot-muammo-va-yechim>
3. Shoyev I.H. Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti [The fight against corruption is a priority for the development of civil society].
4. Safarov T.U. Davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash [Identifying corruption risks in government organizations]. *Right and Duty*, 2022, vol. 7, pp. 16–19.
5. Safarov T.U. Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashning maqsad va natijalari [Objectives and results of identifying corruption risks in public administration]. Specialized branch of Tashkent State Law University, Tashkent, 2022, pp. 90–94.
6. Safarov T.U. Prerequisites for the emergence of departmental anti-corruption mechanisms. *World Bulletin of Management and Law*, 2022, vol. 17, pp. 71–73.
7. Jalilov N. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi institutining nazariy asoslari [Theoretical foundations of the Institute for Individual Prevention of Crimes]. *Society and Innovation*, 2022, vol. 3/4, pp. 397–403. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp397-403>
8. Jalilov N. Profilaktika inspektori ma'muriy ish yuritish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari [Specific features of the administrative work of a prevention inspector]. *Society and Innovation*, 2022, vol. 2/12, pp. 348–352. DOI: [10.47689/2181-1415-vol2-iss12/S-pp348-352](https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss12/S-pp348-352)
9. Eshova H.X. The dynamics of institutionalization of sociopolitical activity of youth in Uzbekistan. International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey, 2023, pp. 86–94.

10. Klitgaard R. Controlling Corruption. Berkeley: University of California Press.
11. Xudoyberdiyev O. Korruptsiya va uning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirining ilmiy-asosiy jihatlari [Scientific and fundamental aspects of corruption and its impact on social development]. *Society and Innovation*, 2022, vol. 4/1, pp. 180–189.
12. Mahmudov R. Korruptsiya: sabablari va oqibatlari – davlat boshqaruvida yangi yondashuvlar [Corruption: Causes and Consequences – New Approaches to Public Administration]. *Journal of Social Research of Uzbekistan*, 2021, vol. 3/4, pp. 101–109.
13. Donatella D.P. Governance Matters VIII: Aggregate and Individual Governance Indicators. World Bank Policy Research Working Paper.
14. Rose A. Corruption and Criminal Justice: Bridging Economic and Legal Perspectives. Cheltenham, Edward Elgar Publ.
15. Daniel K.A. The Quest for Good Governance: How Societies Develop Control of Corruption. Cambridge, Cambridge University Press.
16. Lambsdorff J.G. The Institutional Economics of Corruption and Reform: Theory, Evidence, and Policy. Cambridge, Cambridge University Press.
17. Convention on combating bribery of foreign public officials in International business transactions. Available at: http://www.oecd.org/daf/anti-bribery/convcombatbribery_eng.pdf
18. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2020. Berlin, Transparency International. 2020.
19. Hellman J.S., Jones G., Kaufmann D. Seize the State, Seize the Day: State Capture, Corruption, and Influence in Transition Economies. *World Bank Policy Research Working Paper*, 2020.



Kelib tushgan / Получено / Received: 14.11.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 10.12.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.4./ZWKM2428
UDC: 343.5(045)(575.1)

OILADA ZO'RLIK ISHLATISH SABABLARI

O'razaliyev Murod Qorayevich,
Toshkent davlat yuridik
universiteti professori
ORCID: 0009-0003-8665-950X
e-mail: u.murodbek_78@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola oiladagi zo'ravonlik, kelishmovchiliklar, ularning sabablari, obyektiv salbiy jihatlari hamda oldini olish yo'llariga bag'ishlangan. Maqolada inson tajovuzkorligining psixologik mexanizmlari, jumladan, Zigmund Freyding tajovuzkorlik quvvati konsepsiyasi, Freyd izdoshlarining tajovuzkorlikning psixologik nazariyasi, Yel universiteti tadqiqot guruhi (Miller, Maurer, Sire va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan va ko'plab yangi tadqiqotlarni o'z ichiga olgan tajovuz frustrasiyasi doktrinasini, coercive power nazariyalari alohida o'rganilgan. Ushbu nazariyada inson zo'ravonligi va tajovuzkorligi paydo bo'lishining barcha (shaxslar o'rtasidagi, davlatlar o'rtasidagi) ko'rinishlari tushuntirib berilib, mazkur nazariyaning mohiyati oddiy: jismoniy zo'ravonlik (majburlash kuchi)dan istalgan natijaga erishishning barcha boshqa usullari (masalan, ishontirish kuchi) foyda bermaganida (yoki mavjud bo'lmaganida) vosita sifatida foydalanilishi, umuman, zo'ravonlik yoki zo'rlik biron-bir shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, majburlash orqali ta'sir ko'rsatish ekanligi tadqiq etilgan. Muallif oiladagi zo'ravonlik asosini tashkil etuvchi jinoyatlar sabablarini o'rganish kriminologlar oldida turgan muhim vazifa ekanini, garchi ushbu ijtimoiy hodisa asosiy determinantlarining kriminologik tavsifi uni to'liq bartaraf etishga qodir bo'lmasa-da, xavfsiz darajagacha kamaytirish uchun zarur bo'lgan choralarni aniqlash imkonini berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar subyektlarida jamiyatga qarshi xulq-atvorning paydo bo'lishi va rivojlanishiga qator shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatishi, shaxsga oid determinantlarga ijtimoiy, ruhiy, biologik va boshqa ko'p qirrali hamda keng qamrovli omillar kiritilishini ilmiy asoslab beradi. Xulosada esa bu borada o'z takliflarini keltiradi.

Kalit so'zlar: oiladagi zo'ravonlik, oiladagi kelishmovchiliklar, oiladagi zo'ravonlik sabablari, oiladagi zo'ravonlikning oldini olish

ПРИЧИНЫ СЕМЕЙНОГО НАСИЛИЯ

Уразалиев Мурод Кораевич,
профессор Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. Данная статья посвящена теме семейного насилия, разногласиям, их причинам, объективным негативным аспектам, а также способам профилактики. В статье отдельно рассматриваются психологические механизмы человеческой агрессии, в том числе концепция силы агрессии Зигмунда Фрейда, психологическая теория агрессии последователей Фрейда, доктрина фрустрации агрессии и теория силы принуждения, разработанные исследовательской группой Йельского университета (Миллером, Маурером, Сиром и др.) и содержащие множество новых исследований. В этих теориях объясняются все проявления человеческого насилия и агрессии (между отдельными лицами, между государствами), при этом их суть проста: использование физического насилия (силы принуждения) в качестве инструмента, когда все другие способы достижения желаемого результата (например, сила убеждения) не приносят пользы (или не существуют), тогда как в целом насилие или агрессия – это воздействие на человека посредством применения физической силы, принуждения. Автор подчёркивает, что изучение причин преступлений, лежащих в основе семейного насилия, является важной задачей, стоящей перед криминологами, хотя криминологическая характеристика основных детерминант этого социального явления не способна полностью устранить его, но позволяет определить меры, необходимые для его снижения до безопасного уровня. Он также даёт научное обоснование тому, что на возникновение и развитие антиобщественного поведения у субъектов преступлений, совершаемых с применением семейного насилия, влияет ряд условий, в том числе включение в личностные детерминанты социальных, психических, биологических и других многогранных и всеобъемлющих факторов. И в заключении автор приводит свои предложения по этому поводу.

Ключевые слова: семейное насилие, семейные разногласия, причины семейного насилия, профилактика семейного насилия

CAUSES OF DOMESTIC VIOLENCE

Urazaliev Murod Korayevich,
Professor of Tashkent State University of Law

Abstract. This article is dedicated to domestic violence, conflicts, their causes, objective negative aspects, and ways to prevent them. The article separately examines the psychological mechanisms of human aggression, including Sigmund Freud's concept of aggressive power, the psychological theory of aggression of Freud's followers, the

doctrine of aggressive frustration, coercive power theories, developed by the Yale University research group (Miller, Maurer, Sire, etc.), and including many new studies. This theory explains all (between individuals, between states) manifestations of human violence and aggression; the essence of this theory is simple: it is studied that all other methods of achieving desired results (for example, persuasion) are used as a tool when they are useless (or do not exist); in general, violence or violence is the use of physical force or coercion against a person. The author emphasizes that the study of the causes of crimes that form the basis of domestic violence is an important task facing criminologists, and although the criminological description of the main determinants of this social phenomenon is not capable of fully eliminating it, it allows for the identification of measures necessary to reduce it to a safe level. He also scientifically substantiates the influence of a number of conditions on the emergence and development of antisocial behavior in the subjects of violent crimes committed in the family, including social, psychological, biological, and other multifaceted and comprehensive factors in the determinants of personality. In conclusion, he gives his suggestions on this matter.

Keywords: domestic violence, domestic conflicts, causes of domestic violence, prevention of domestic violence

Kirish

Ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, jinoyatlarning oldini olish O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan jinoyat-huquqiy siyosatining maqsadlari tizimida yetakchi o'rin tutadi. Xususan, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligi tufayli bu masalaga jiddiy yondashishga undaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, oilada sodir etiladigan zo'ravonlik zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning asosiy qismini tashkil etadi. Jinoyatning mazkur turi, birinchi navbatda, fuqarolarning himoyaga muhtoj toifasi – ayollar, bolalar va qariyalarga nisbatan sodir etiladi. Shu sababli ham fuqarolarni oiladagi zo'ravonlikdan himoya qilish huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, tibbiy va boshqa bir qator muammolarning o'z vaqtida hal etilishini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Jinoyat kodeksi 126¹-modda (*oilaviy (maishiy) zo'ravonlik*) va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 59²-modda (*oilaviy (maishiy) zo'ravonlik*) bilan to'ldirildi. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yil davomida ushbu moddalar bo'yicha 9 131 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan. 2024-yilning birinchi choragida esa O'zbekistonda sudlar 4 477 nafar shaxsni oiladagi zo'ravonlik moddalari bo'yicha javobgarlikka tortdi [1].

Amnesty International tashkiloti O'zbekiston oiladagi zo'ravonlikni qonunga alohida jinoyat sifatida kiritgan beshinchi davlatga aylanganini qayd etgan. Xalqaro tashkilotning Markaziy Osiyo bo'yicha tadqiqotchisi Xeza MakGill O'zbekistonda ayollar va huquq faollari yillar davomida ayollar va bolalarni oiladagi zo'ravonlikdan

yaxshiroq himoyalash uchun kompaniya olib borganini, mamlakat nihoyat Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda Gruziya, Qirg'iziston, Moldova va Ukrainadan keyin oiladagi zo'ravonlikni qonunga alohida jinoyat sifatida kiritgan beshinchi davlatga aylanganini ta'kidlagan [2].

Jinoyatchilikning ushbu turi oiladagi kelishmovchiliklar, ichkilikbozlik va boshqa illatlar, ijtimoiy hayotdagi murakkab salbiy omillar bilan bog'liq. Sog'lom turmush tarziga ko'p jihatdan ushbu hodisani vujudga keltiruvchi sabablarga aloqador bo'lgan muammolarni hal etishda sinalgan va ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Yana bir muammo shundaki, jinoyatchilikning zamonaviy ko'rinishlari faol tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, biroq oilada sodir etilayotgan jinoiy hodisalarni o'rganish ko'p hollarda tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qoladi. Bu esa oila a'zolarining huquq va erkinliklariga jinoiy tajovuz qilish miqdorining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham hozirga kelib ushbu muammo ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va keng jamoatchilikning diqqat markazida ekani tabiiy holdir. Agar ilgari zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar aholining nochor qatlamlarida ko'proq uchragan bo'lsa, hozirgi paytda bunday qilmishlar ko'proq o'ziga to'q oilalarda ham ro'y bermoqda. Ayni chog'da oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar mavjudligi bilan emas, balki ijtimoiy munosabatlarning deyarli barcha sohalariga o'zining salbiy ta'siri bilan jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu turdagi jinoyatlar jamiyatning muhim institutlari bo'lgan oila, oilaviy munosabatlar, yosh avlod tarbiyasi va boshqa munosabatlarga ham zarar yetkazadi.

Material va metodlar

Maqolada oiladagi zo'ravonlik, kelishmovchiliklar, ularning sabablari, obyektiv salbiy jihatlari, xususan, inson tajovuzkorligining psixologik mexanizmlari, mavzuga oid ko'plab yangi tadqiqotlarni o'z ichiga olgan tajovuz frustratsiyasi doktrinasini, *coercive power* nazariyalari alohida o'rganildi. Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Oila jamiyatning alohida bir bo'g'ini bo'lib, u bolalar va katta yoshdagilar xulq-atvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. "Oila – kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi [3]."

Darhaqiqat, "Adolat va tenglik qaror topgan demokratik jamiyatda oilaviy munosabat yuksak ideallar – muhabbat, do'stlik, birodarlik, o'zaro hurmat-izzat tamoyillari asosida tuzilishi muqarrar. Nikohning erkin bo'lishi, er va xotin nikohdan o'tishining erkin bo'lishi oila munosabatlarining mustahkam va abadiy bo'lishi uchun garovdir" [4]. Oilaga mamlakatimiz Konstitutsiyasida alohida (XIV) bob ajratilganligi ham bejiz emas. Zotan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida belgilanganidek, "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 18-fevralda oilani yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 4602-son hamda 2018-yil 2-iyuldagi "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilinib, hayotga tatbiq etib kelinmoqda.

2023-yil 11-apreldagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun ko'ra, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar oilada zo'ravonlikni nazarda tutuvchi moddalar bilan to'ldirilganiga qaramay, O'zbekistonda birgina 2023-yilda oilaviy zo'ravonlik bo'yicha Jinoyat qonuniga asosan 203 nafar shaxs sudlangan. Shuningdek, 8 928 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan [5].

Oiladagi muhit uning a'zolari xulq-atvoriga nafaqat ijobiy, balki o'ta salbiy, jumladan, jinoiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Oila boshlig'i jinoyatchi bo'lsa, u oila a'zolarining barchasiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Oilaning ahamiyati jamiyatimizda yuqori ekanligini e'tiborga olsak, undagi barcha a'zolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari, balki jamiyatdagi har bir insonning vazifasidir. Oila institutini jamiyatning muhim va alohida instituti sifatida noto'g'ri tushunish ayrim hollarda ba'zi fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini jiddiy tarzda buzishi mumkin. Ammo zo'ravonlikka, shu jumladan, o'z oila a'zolari tomonidan ham zo'ravonlikka duchor bo'lmaslik har bir insonning ajralmas va tabiiy huquqi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Garchi yuqoridagi salbiy holatlar madaniy jamiyatga xos emasdek ko'rinsa-da, biroq qator Sharq davlatlarida oilada sodir etiladigan zo'ravonlik faktlari jinoiy ta'qib ostiga olinmaydi. Ushbu mamlakatlarda farzandlarni jismoniy kuch ishlatib tarbiyalash odatiy holga aylangan, bunga nafaqat ruxsat berilgan, balki bir qator holatlarda hatto rag'batlantiriladi ham. Ayrim huquqiy tizimlarda ayolning o'z irodasiga qarshi eri tomonidan jinsiy aloqa qilishga majburlashdek qilmish hatto jinoyat deb hisoblanmaydi. Bunday xulq-atvor nafaqat qoralanmaydi, balki oiladagi zo'ravonlikka jiddiy ijtimoiy muammo sifatida qaralmaydi. Aksincha, ushbu davlatlarda ayollarning aybi bilan oilaviy nizolar vujudga keladi, chunki ularning o'zlari bunday nizolarning sababchisidir, degan fikr shakllangan.

Afsuski, bunday qarash ayrim sog'lom fikrli kriminologlarga ham xos bo'lib, uni oiladagi zo'ravonlikning ommaviy xususiyatini hisobga olgan holda izohlash maqsadga muvofiqdir. Bunday fikr tarafdorlari oilada jismoniy va ruhiy majburlovni qo'llash – jamiyat a'zolari sabr-bardosh bilan qarashlari lozim bo'lgan to'liq maqbul hodisa, deb hisoblaydi. Shuningdek, oiladagi zo'ravonlik erkaklarning o'z oilalarida zimmalariga

oladigan institutsionallashtirilgan vazifalarning miqdoriga bog'liq degan fikrlar ham keng tarqalgan. Ushbu nuqtayi nazarga muvofiq, ayollarga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish erkak hukmdorligining in'ikosi sifatida ko'rilishi lozim; ayol erkakka nisbatan quyida turadi, shuning uchun ham ayol unga bo'ysunishi kerak. Bunday nazariyalarga ko'ra, ayolning erkakka ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qaramligi erkakning ayolga nisbatan zo'rlik ishlatishiga sharoit tug'diradi. Shu bois oiladagi zo'ravonlikka nisbatan bardoshli bo'lish alohida mustaqil etnoslarda shakllangan barqaror e'tiqodlar natijasi hisoblanib, erkak bilan yashaydigan ayol unga tegishli, shu sababli u ayoliga o'zi istagancha munosabatda bo'lish huquqiga ega degan tasavvurlar ham mavjud.

Yuqorida qayd etilgan qarashlarning ildizlari ko'p asrlardan buyon davom etib kelayotgan jinsga ko'ra kamsitishlarga borib taqaladi. Ular urf-odatlar shaklida, shuningdek, insoniyatning chinakam qadriyatlari haqidagi bir butun majmuani tashkil etuvchi kundalik qarashlarda saqlanib qolgan.

Professor K. Abdurasulova oiladagi zo'ravonlikka "oila-turmush doirasida oila a'zolaridan birining turmush o'rtog'iga, ota-onasiga, aka-ukalariga yoki boshqa qarindoshlariga zulm o'tkazishi. Ba'zi hollarda oiladagi zo'ravonlik natijasida qotillik, og'ir va boshqa turdagi tan jarohati yetkazish huquqbuzarliklarini sodir etish" [6] deb ta'rif beradi. Boshqa bir tadqiqotchining fikricha, "zo'ravonlik faqat jismoniy kuch ishlatish bilan emas, ruhiy, axloqiy, iqtisodiy va maishiy bosim ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin. Haqoratlash, majburlash, zo'rlash, iqtisodiy cheklovlar qo'yish, muntazam ruhiy qiynoqqa solish kabi holatlar ham zo'ravonlik sifatida baholanadi. Xonadondagi zo'ravonlik, uydagi janjal shunchaki oilaning ichki ishlari sifatida qabul qilinadi" [7].

Shu sababli yuqorida tilga olingan Amnesty International tashkiloti vakili ham O'zbekistonda jismoniy zo'ravonlik endi jinoyat hisoblansa-da, iqtisodiy va ruhiy zo'ravonlik e'tiborsiz qolishidan xavotirda ekanini ta'kidlagan. Tashkilot ma'lumotlarida hozirgacha O'zbekistonda oiladagi zo'ravonlik va ayollarga nisbatan tazyiq jiddiy muammo bo'lib qolayotgani aytiladi. Shuningdek, ko'pincha oiladagi zo'ravonlik nizolarini hal qilishning oilani saqlab qolishga qaratilishi va mansabdor shaxslarning jabrlanuvchini himoya qilish o'rniga yarashish, oilani birlashtirishga intilishi, bu huquqiy himoyaga ham putur yetkazishi ta'kidlanadi [2].

Oiladagi zo'ravonlikning sabablarini tushuntiruvchi va ular ko'lamini turli darajada (mahalliy, mintaqaviy, umumdavlat va boshqa darajalarda) belgilovchi nazariyalar mavjud. Ushbu nazariyalarning ayrimlariga muvofiq, oilaviy zo'ravonlikning sabablarini individuum xulq-atvori xususiyatlaridan, masalan, spirtli ichimliklarga ruju qo'rganlik yoki giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish; oilaviy zo'ravonlik qurbonlarining g'alamisliklari; ayrim shaxslarning ruhiy xastaliklari; jinoyat subyekti ruhiyatining buzilganligi; ba'zi shaxslarda tajovuzkorona xulq-atvor uyg'otuvchi jinsiy moyillik; aholi madaniyat darajasining pastligi va boshqalardan izlash lozim. Biroq oila a'zolari o'rtasidagi asosiy qarama-qarshiliklarning vujudga kelish sabablarini aniqlashda oila ichida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni o'rganish murakkab kriminologik muammolar qatoridan joy olganligiga alohida e'tibor qaratish lozimligini ham unutmash kerak.



Inson tajovuzkorligining psixologik mexanizmlari Zigmund Freyd tomonidan o'rganilgan bo'lib, u yig'ilib qolgan "tajovuzkorlik quvvati" vaqti-vaqti bilan tajovuz harakatlari orqali "yumshatib" turilishi lozim, deb hisoblagan [8]. Freydning izdoshlari ushbu fikrga asoslangan konsepsiyani rivojlantirib, "tajovuzkorlikning psixologik nazariyasi" degan umumiy nom ostidagi nazariyalarning turli yangi ko'rinishlarini yaratganlar [9]. Inson tajovuzkorligini hayvonlar tajovuzkorligiga tenglashtiruvchi va uni sof biologik jihatdan ta'riflovchi ancha keyin paydo bo'lgan nazariyalar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra ushbu nazariyalarga yaqin turadi. Tabiiyki, ushbu nazariyalarda ko'p hollarda zo'ravonlik va urushlar muqarrarligini ilmiy asoslashga harakat qilingan.

Yel universiteti tadqiqot guruhi (Miller, Maurer, Sire va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan va ko'plab yangi tadqiqotlarni o'z ichiga olgan tajovuz frustratsiyasi doktrinasini [10] eng mashhur tajovuzkorlik nazariyasi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Unda tajovuzkorlikning mustaqil shaxsiy xususiyat sifatida mavjudligi e'tirof etilgan.

Umuman olganda, tajovuzni ijtimoiy o'rganish konsepsiyasi tajovuz frustratsiyasi nazariyasiga qarshi qo'yiladi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, frustratsiya, shaxslar o'rtasidagi kelishmovchilik tajovuz paydo bo'lishini yengillashtiradi, lekin uning vujudga kelishi uchun yetarli shart-sharoitni yaratmaydi. Frustratsiyada individda tajovuzkor xulq-atvor shakllanishi uchun muayyan sharoitda tajovuz qilishga moyillik bo'lishi lozim. Bunday moyillik ijtimoiy muhitni o'rganish orqali atrofdagilarning xulq-atvorini kuzatish, shaxsiy muvaffaqiyat evaziga shakllanadi va mustahkamlanadi. Shunday qilib, ijtimoiy muhit shaxsda tajovuzkor xususiyatlar shakllanishida asosiy o'rin tutadi. Garchi ijtimoiy o'rganish nazariyasi tajovuzga konstitutsional, ruhiy-biologik xususiyatlar ta'sirini to'g'ridan to'g'ri rad etmasa-da, ijtimoiy omillarga asosiy e'tiborni qaratadi. Hozirgi paytda ushbu nazariya tajovuzkor frustratsiya nazariyasiga qaraganda ustunroq turadi va birmuncha keng tarqalgan.

Nihoyat, shaxsning tajovuzkor xulq-atvorini tadqiq qilishda individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni o'zida aks ettirishga uringan hamda universal nazariya maqomiga da'vo qiluvchi, so'nggi (paydo bo'lgan davri bo'yicha) va hali keng tarqalmagan majburlovchi kuch (*coercive power*) nazariyasiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Ushbu nazariyada inson zo'ravonligi va tajovuzkorligi paydo bo'lishining barcha (shaxslar o'rtasidagi, davlatlar o'rtasidagi) ko'rinishlari tushuntirib beriladi. Mazkur nazariya mohiyati oddiy: jismoniy zo'ravonlik (majburlash kuchi)dan istalgan natijaga erishishning barcha boshqa usullari (masalan, ishontirish kuchi) foyda bermaganida (yoki mavjud bo'lmaganida) vosita sifatida foydalaniladi.

Yuqorida qayd etilgan tajovuzkor xulq-atvor to'g'risidagi nazariyalar tahlili va ularni qiyoslash ushbu nuqtayi nazarlarning har biri inson tajovuzkorligi mexanizmini harakatga keltiruvchi qandaydir alohida (muhim, lekin yagona bo'lmagan) jihatini "ko'rsatib beradi" va hozirda mavjud nazariyalarning birontasi ham tajovuzkor xulq-atvorning paydo bo'lishi, shu jumladan, oilada vujudga keluvchi tajovuzkor xulq-atvorning barcha xususiyatlarini ochib bera olmaydi.

Umuman, zo'ravonlik yoki zo'rlik biron-bir shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, majburlash orqali ta'sir ko'rsatishdir [11].

Oiladagi zo'ravonlik kundalik hayotimizdagi kamchiliklar, kelishmovchiliklar va obyektiv salbiy jihatlari turli manbalardan oziqlanuvchi, o'z-o'zidan namoyon bo'luvchi tizimdir. Shu sababli oiladagi zo'ravonlik asosini tashkil etuvchi jinoyatlar sabablarini o'rganish kriminologlar oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. O'z navbatida, garchi ushbu ijtimoiy hodisaning asosiy determinantlarining kriminologik tavsifi uni to'liq bartaraf etishga qodir bo'lmasa-da, xavfsiz darajagacha kamaytirish uchun zarur bo'lgan asosiy choralarni aniqlash imkonini beradi.

Oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar subyektlarida jamiyatga qarshi xulq-atvorning paydo bo'lishi va rivojlanishiga qator shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ularga shaxs bilan bog'liq va tashqi xususiyatga ega bo'lgan omillar kiradi.

Shaxsga oid determinantlar qatorida ijtimoiy, ruhiy, biologik va boshqa ko'p qirrali hamda keng qamrovli omillarni sanash mumkin. Shu sababli jinoyatchi shaxsiga tavsif berilayotganida jinoyatni sodir qilgan subyektning o'zaro bog'liq jihatlari, xususiyatlari va sifatleri yig'indisi asos qilib olinadi. Mazkur tushuncha uchta asosiy qism yoki kichik tizim deb nomlanuvchi: 1) shaxsning muayyan guruhga mansubligi; 2) ijtimoiy demografik tavsifini bildiruvchi ijtimoiy maqomi (jinsi, yoshi, ma'lumoti, oilaviy ahvoli va hokazolar); 3) uning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi faoliyatiga oid ijtimoiy funksiyalari (roli), nihoyat, shaxsning axloqiy-ruhiy tavsifidan iborat bo'lib, shaxsning ijtimoiy qadriyatlarga va amalga oshirilayotgan ijtimoiy funksiyalarga nisbatan munosabatini ifodalaydi [12].

Shaxsning yuqorida qayd etib o'tilgan tuzilishi haqidagi fikrlar o'xshash bo'lgani uchun ham jiddiy e'tirozlarga sabab bo'lmagan. Shu bilan birga, kundalik oilaviy munosabatlar doirasida zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlari salmog'ining ortib borayotgani shaxsning buzilgan xulq-atvoridan muayyan qonuniyatlarni izlashga majbur qiladi. Bundan tashqari, determinatsiya mexanizmining murakkablashishi va muammoning yechimiga oiladagi zo'ravonlikning alohida ishtirokchilari motivatsiyasi xususiyatining viktimologik jihati ta'sir ko'rsatadi.

Oiladagi zo'ravonliklar sabablarini aniqlashda uning viktimologik jihatlari o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, ayniqsa, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari (qarashlari, axloqi, munosabatlari) muhim o'rin tutadi. Zero, shaxsning viktimologik fe'l-atvori, avvalambor, uning odamlarga, o'ziga, ishga, hodisalarga munosabatida namoyon bo'ladi [13].

Oilaviy munosabatlar bo'yicha psixolog olim A. Kadirova ta'kidlaganidek, "er-xotinning oilaviy hayot to'g'risidagi tasavvurlari o'zaro mos kelmasligi nizo yoki ziddiyatlar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biridir [14]".

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, aytish mumkinki, har qanday jinoyat jinoyatchi shaxsi (jumladan, oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar ham), subyekt va u tushib qolgan obyektiv vaziyatning o'zaro murakkab ta'siri tufayli yuzaga keladi. Muayyan bir vaziyatning mazmuniga jabrlanuvchining shaxsi va xulq-atvori ham kiradi. Bunday vaziyatning mazmuni jinoyatchi ruhiyati va tashqi muhit vujudga keluvchi narsa-hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, shuningdek, jabrlanuvchining



shaxs sifatida aybdor bilan oilaviy turmush va ishlab chiqarishdagi o'zaro munosabati, axloqiy qiyofasi, psixofizik xususiyatlari (yoshi, jinsi, mastlik holati va boshqalar)ni, harakat yoki harakatsizlik shaklidagi xulq-atvorini tavsiflovchi obyektiv jihatlarda namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda shaxsning oiladagi zo'rliklardan muhofaza qilinishini ta'minlash zamonaviy jamiyatda har qanday inson hayotida ahamiyat kasb etishini anglatadi. Munosabatlarning bunday shakli nafaqat alohida individlarning manfaatlarini, balki butun jamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Muayyan chiziq bo'yicha jamiyat a'zolari orasidagi munosabatlar asosida amalga oshiriluvchi ko'plab kelishuvlar oxir-oqibat hayotiy muhim bo'lgan barcha kichik ijtimoiy jarayonlarni ko'p mezonli tizimga birlashtiradi. Boshqacha aytganda, oila a'zolarini oiladagi sodir etiladigan zo'rliklardan muhofaza qilish individuum darajasida ham, davlat darajasida ham ijtimoiy-iqtisodiy tizimga hayot bag'ishlash imkoniyatini vujudga keltiradi.

Xulosalar

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, garchi oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan qilmishlarning oldini olishda jinoyat-huquqiy vositalar muhim ahamiyat kasb etsada, ikkilamchi rol o'ynaydi. Aslida ijtimoiy shart-sharoitlar, oiladagi zo'rliklardan aholini muhofaza qilish undagi vaziyat bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, ushbu muammoni faqat ijtimoiy choralar yordamida jinoyat huquqiy vositalarni qo'llamay hal etib bo'lmasligi ham ayon. Shu sababli ham davlat hokimiyati va boshqaruv organlari oilada zo'ravonlik sodir etish eng oxirgi chora hisoblanadigan, ya'ni o'z negizlarida obyektiv asoslarga ega bo'lmagan shart-sharoitlarni bartaraf etishdek asosiy vazifani hal etishi zarur. Ijtimoiy hayotda ro'y beradigan keskin o'zgarishlar natijasida vaziyat nazorat ostidan chiqib ketgan hollarda, jumladan, jinoiy tajovuz oqibatida ham munosabatlarning mazkur guruhiga moslashtirilgan jinoyat-huquqiy vositalar majmui birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Mazkur vazifani amalga oshirish uchun oiladagi zo'rlikning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy siyosatning quyidagi oltita asosiy yo'nalishiga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi: shaharlarni rejalashtirish; sog'liqni saqlash; oilada nizolarga yo'l qo'ymaslik; ta'lim va madaniy an'analarni singdirish; yoshlar va bandlik siyosati. O'zbekistonning birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Shuni tan olib aytish kerakki, yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik – bu, avvalo, biz, kattalarning ularni tarbiyalashda yo'l qo'ygan jiddiy xatolarimiz oqibatidir. Binobarin, shuning uchun ham ruhiy va ma'naviy jihatdan shaxs sifatida shakllanmay qolib, jinoyat sodir etgan yoshlarimizni jamiyatga qaytarish – avvalo, biz, ota-onalar va davlatning zimmasiga tushadi" [15].

Oiladagi har qanday shakldagi zo'ravonlikni oqlovchi barcha fikrlarni rad etgan holda, shuni alohida qayd etish lozimki, ushbu xavfli hodisani bartaraf etishning oddiy yo'li mavjud emas. O'rganilayotgan muammoning sabablari qanday bo'lishidan qat'i nazar, yuridik fanlar va ijtimoiy adolatning eng muhim prinsiplari asosida ijobiy oilaviy munosabatlarning madaniy andozalari yaratilishi kerak. Shu bilan birga, ularni qonunga xilof tarzda buzgan aybdorlar jazolanishi lozim.

Shu bois muammo ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham yuridik jihatdan hal etilmog'i zarur. Biroq turli davlatlarning bu boradagi siyosati bir-biridan tubdan farq qilishi mumkin.

Oiladagi zo'ravonlik jiddiy muammoga aylangan barcha mamlakatlarda hokimiyat organlari qandaydir subyektiv tasavvurlarga tayanmasligi, balki bunday zo'ravonlik muammosini hal etishda adliya tizimining o'rni va ahamiyati qat'iy belgilanishi, ilmiy asoslangan konsepsiya qoidalariga asoslanishi lozim. Shundagina ushbu ijtimoiy salbiy hodisaga chek qo'yish imkoniyati vujudga kelishi mumkin. Garchi oilada zo'rlik ishlatilishining sabablarini doim ham to'liq aniqlab bo'lmasa-da, ammo iloji boricha uning oldini olish choralari ko'rilishi zarur.

Iqtisodiy islohotlar rivojlanishining hozirgi bosqichida oilani ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda uning moddiy ahvoli, har bir oila a'zosining mehnat qilish darajasi qat'iy ravishda individual-differensiatsiyalangan tizim bo'yicha qo'llab-quvvatlanishiga e'tibor berilishi lozim. Tabiiyki, kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish borasidagi davlat dasturi bugungi kun sharoitlariga muvofiq tarzda takomillashtirishni taqozo etadi. Dastur har bir oila va har bir insonning turmush farovonligi, fuqarolarning totuvligiga asoslanib olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. O'zbekistonda uch oyda qariyb 4500 kishi oiladagi zo'ravonlik uchun sudlandi. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/13/family-violence/>
2. Najmiddinova F. Oiladagi zo'ravonlik: O'zbekiston dunyoda beshinchi bo'ldi [Domestic violence: Uzbekistan became fifth in the world]. URL: <https://www.qalampir.uz/uz/news/-2375-80686>
3. Mirziyoyev Sh. A family is a small homeland, if the family is peaceful, if it is happy, the homeland will be peaceful. Available at: <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>
4. Rahmonqulov H.R. O'zbekiston Respublikasining milliy huquq tizimi [National legal system of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSUL Publ., 2005, p. 45.
5. More than 9,000 people were punished for domestic violence in Uzbekistan in 2023. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/12/domestic-violence/>
6. Abdurasulova.K. Kriminologiya: o'quv-uslubiy qo'llanma. – T.:TDYU, 2013. – 199-b.
7. N.Razzakova. Oilaviy zo'ravonlikning har qanday ko'rinishiga qarshimiz! // URL: https://api.moiti.uz/media/book/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D1%8F_9-dekabr_2022.pdf
8. Fenomen agressii v ponimanii K. Lorensa i Z. Freyda: sravnitelnyy analiz. // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fenomen-agressii-v-ponimanii-k-lorentsa-i-z-freyda-sravnitelnyy-analiz>
9. Teoriya agressii i neobxodimost integrativnogo podxoda pri izuchenii agressivnykh sostoyaniy. // URL: <https://expeducation.ru/ru/article/view?id=9521>



10. Frustration-aggression hypothesis // <https://www.britannica.com/science/frustration-aggression-hypothesis>
11. Utanov M. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo'yicha tovlamachilikning obyektiv tomoni // Toshkent Davlat yuridik instituti axborotnomasi. – 2006, 2-son. – 64-bet.
12. Zaripov Z.S., Ismailov I. Kriminologiya (Umumiy qism) Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1996. – 95-bet.
13. Tohirov F. Jinsiy jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarini hal etishda viktimologik muammolar // Toshkent Davlat yuridik instituti axborotnomasi. – 2006, 5-son. – 72-bet.
14. Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psix. fan. nom. ... diss. – T., 2007. 35 b.
15. Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza. // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – T.: O'zbekiston, 2002. – 42-b.

KRIMINOLOGIYA

VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2024-yil 4-son